T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti

# UZLUKSIZ TA’LIM

ILMIY-USLUBIY JURNAL

2020, № 4

*DJURAYEV Risbay*
Bosh muharrir

Tahrir hay’ati:

*Sherzod SHERMATOV*
*Uzoqboy BEGIMQULOV*
*Alisher UMAROV*
*Nargiza RAXMANQULOVA*
*Nodira EGAMBERDIYEVA*
*Xolboy IBRAGIMOV*
*Shavkat QURBONOV*
*Roxatoy SAFAROVA*
*Islom ZOKIROV*
*Dono G‘ANIYEVA*
*Lobar QARAXANOVA*

Jurnal 2001 yildan nashr qilina boshlangan.
O‘z MAAdan 2007 yil 3-yanvarda № 0101-tartib raqami bilan qayta po‘yxatdan o‘tgan.

Tahririyat manzili:
100027, Toshkent sh., Furqat ko‘chasi, 174-uy.
O‘zPFITI
Tel.: (71)-245-92-34
(93)-503-52-07
e-mail: uzluksiztalim_jurnal@mail.ru
liya_2305@mail.ru

Jurnalda e’lon qilingan maqolalardan iqtibos keltirilganda «Uzluksiz ta’lim» jurnalidan olinganligi ko‘rsatilishi lozim.

## TA'LIM MAZMUNI UZLUKSIZLIGI


3 ***E.Q.Qalandarov***
Uzluksiz ta'lim tizimida qattiq jismlar fizikasining mazmunini takomillashtirish xususiyatlari
8 ***I.E.Shernazarov***
Innovatsion texnologiya va tabiiy fanlar integratsiyasida kimyo fanini o'qitish metodikasi
13 ***D.M.Xakimova***
Uzluksiz ta'limda xalq ta'limi tizimini boshqarishni takomillashtirish va isloh qilishning samaradorligi
17 ***U.E.Raxmatov, I.T.Azimov, G.O.Tog'ayeva***
Biologiyadan PISA topshiriqlarini uzluksizz ta'lim jarayoniga tatbiq etish metodikasi
22 ***E.B.Xujanov***
Uzluksiz ta'lim tizimida molekulyar-kinetik nazariyaga oid tushunchalarni izchillik tamoyili asosida shakllantirish
27 ***N.Masharipova***
Uzluksiz ta'lim tizimida tarix o'qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyalari
31 ***Р.Х.Джураев, А.Х.Махмудов***
Подготовка научно-педагогических кадров в системе непрерывного образования. Часть 1: Проблемы и подходы к решению
36 ***Н.М.Эгамбердиева***
Педагогические особенности развития экономической культуры будущих учителей
41 ***Б.Х.Рахимов, Ф.Б.Ниязов, О.А.Абдумуминова***
Формирование исследовательской компетентности будущих учителей в системе непрерывного образования
45 ***Ш.Умаров***
Музыкальное обучение в образовательных учреждениях системы непрерывного образования


## UZLIKSIZ TA'LIM TIZIMIDA MEDIATA'LIM: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR


49 ***L.M.Qaraxanova***
Biologiya darslarida 3D-modellashtirish texnologiyasi va undan foydalanish imkoniyatlari
54 ***R.Madatov***
Biologiya fanlari samaradorligini oshirishda kompyuter vositalaridan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari
60 ***A.Y.Iskandarov, I.E.Shernazarov***
«Organik kimyo» fanini o'qitishda masofaviy ta'lim texnologiyasidan foydalanish metodikasini takomillashtirish


## MA'NAVIY TARBIYA


65 ***B.T.Qodirova***
Bolalar ma'naviyati shakllanishida badiiy adabiyotning o'rni va ahamiyati
69 ***G.M.Qurbonova***
Uzluksiz ta'lim tizimida yoshlarda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishning pedagogik omillari
73 ***G.A.Abdullaeva***
O'quvchi – yoshlarda yo'l harakati qoidalari ko'nikmalarini rivojlantirishda ta'lim muassasasi va oila hamkorligi
77 ***Ф.Кадырова, М.Ф.Джураева***
Технология дополнительных занятий в обучении младших школьников учителем-дефектологом


## KASBGA YO'NALTIRISH VA PSIXOLOGIK XIZMAT


82 ***M.A.Yuldashev***
Uzluksiz ta'lim pedagoglarining malakasi oshirishda ta'lim sifati menejmentining o'zila xos imkoniyatlari
87 ***R.I.Oripova***
Ixtisoslik o'quv predmetlarining predmetlararo aloqadorligi – kasbiy ta'lim uzviyligini ta'minlashning muhim omili sifatida
92 ***K.A.Karimov***
Professional ta'lim tizimi pedagog kadrlar malakasini oshirishda axborot-ta'lim muhitining imkoniyatlari


## ХОРИЖИЙ ТИЛЛАРНИ ЎҚИТИШ ТИЗИМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ – ДАВР ТАЛАБИ


96 ***Ф.А.Тиллабоева***
Непрерывное обучение английскому языку учащихся и студентов с применением эффективных методов и приёмов


## ХОРИЖИЙ TA'LIM


101 ***M.Axmedov***
O'quv jarayoni uzviyligini ta'minlashda kreativ ta'lim texnologiyalarining ahamiyati (xorijiy tajribalar asosida)
106 ***А.А.Ибрагимов***
O'qituvchining kasbiy standarti: xorijiy tajribalar tahlili

# UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA QATTIQ JISMLAR FIZIKASINING MAZMUNINI TAKOMILLASHTIRISH XUSUSIYATLARI

**E.Q.QALANDAROV,**
*O'zPFITI doktoranti (DSc)*

*Mazkur maqolada uzluksiz ta'lim tizimida o'qitiladigan qattiq jismlar fizikasi mazmuniga oid materiallarni tanlash hamda ulardan o'quv jarayonida foydalanishning maqsad va vazifalari, didaktik talablar hamda tamoyillari, qattiq jismlarga tegishli materiallarni tanlash mezonlari, o'qitish metodikasi bo'yicha samarali ishlarni olib borishning dolzarbligi, o'quv mashg'ulotlarini mazmunli tashkil etishning texnologiyalari haqida so'z yuritiladi.*

***Kalit so'zlar:*** *qattiq jism fizikasi, didaktika, ta'lim, tarbiya, dastur, o'quv reja, bilim, ko'nikma, malaka, metod, shakl, vosita*

*В данной статье рассматриваются выбор учебных материалов по содержанию физики твердого тела, преподаваемых в системе непрерывного образования, а также цели и задачи их использования в учебном процессе, дидактические требования и принципы, критерии отбора материалов по физике твердого тела.*

***Ключевые слова:*** *физика твердого тела, дидактика, образование, обучение, программа, учебный план, знания, навыки, квалификация, метод, форма*

*This article discusses the selection of textbook materials on the content of solid state physics taught in the continuing education system, as well as the goals and objectives of their use in the educational process, didactic requirements and principles, selection criteria for materials on solid state physics.*

***Key words***: *solid state physics, didactics, education, training, program, curriculum, knowledge, skills, qualification, method, form.*

Fizika fani inson ehtiyojidan kelib chiqqan deb bejizgi aytishmagan. Shuning uchun har bir rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda ilmiy tadqiqot hamda ilmiy ishlab chiqarish maskanlariga katta e'tibor qaratishadi. Jumladan, Respublikamizda ham mazkur fanga tegishli o'nlab ilmiy tadqiqot institutlari mavjud. Bu ilmiy tadqiqot maskanlari asosan fizika fanining asosiy bo'g'ini hisoblangan "Qattiq jismlar fizikasi" muammolari bilan shug'ullanishadi. Shunday ekan mazkur fanni o'quvchi va talabalarga o'rgatish hamda qiziqtirish o'qitish muammolaridan biridir.

Qattiq jismlar fizikasining asosiy maqsadi, avvalo, mazkur fanning mazmuni, g'oyalari, nazariyalari, qattiq jismlarning qo'llanilish sohalari va boshqalar bilan talaba va o'quvchilarni tanishtirishdir. Bular talaba va o'quvchilar tomonidan o'rganilayotgan tabiat hodisalari va qonunlarini, shuningdek, qattiq jismlar

fizikasining rivojlanishini tushunishi uchun ham foydadan holi bo‘lmaydi.

Hozirgi kunda uzluksiz ta’limda  o‘quvchi va talabalarga qattiq jismlar fizikasini o‘qitishga tegishli didaktik tamoyillar bilan birgalikda ilg‘or yangi metodlar, vositalar, yo‘llarni izlab topish va ulardan samarali foydalanish katta ahamiyat kasb etadi. Bular o‘z navbatida qattiq jismlar fizikasini o‘qitish amaliyotiga ilmiy asoslangan va tajriba-sinovda tekshirilgan didaktikaga oid yangiliklar, tartib qoidalarni joriy etish, o‘quv mashg‘ulotlari jarayonini maqbullashtirish, tashkiliy masalalarning yangi yechimlarini qo‘llash, o‘quvchi va o‘qituvchining dasturli faoliyati, o‘quv mashg‘uloti jarayonidagi ortiqcha samarasiz harakatlarni yo‘qotish, yuqori hamjihatlikni ta’minlash va kerakli natijalarni qo‘lga kiritishni ta’minlaydi.

Ammo shuni e’tirof etishimiz kerakki, umumiy o‘rta ta’lim maktablari va akademik litseylar hamda oliy ta’limda ayrim fizika fani o‘qituvchilari o‘z pedagogik mahoratlarini oshira borishning ahamiyatini yetarli darajada his qilmaydilar, o‘quv jarayonining ilmiyligi, zamon talablariga mosligi, turmush va amaliyot bilan bog‘lanishiga yuzaki qarab, o‘qitilayotgan qattiq jismlar fizikasining ilmiy va g‘oyaviy tarbiyaviy birligini doimo esda tutish lozimligiga e’tibor bermaydilar. Bu esa o‘quvchilarning bilim darajasi va saviyasining yetarli bo‘lmasligi, fan dasturlarini o‘zlashtirishdan orqada qolishlariga sabab bo‘lmoqda. [1. 23]

Shuning uchun ham bugungi kunda uzluksiz ta’limda qattiq jismlar fizikasi mazmuni va o‘qitish metodikasi bo‘yicha samarali ishlarni olib borish dolzarb bo‘lib qolmoqda. Buning uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish muhim deb hisoblaymiz:

a) Qattiq jismlar fizikasi mazmunini aniqlashtirishda fanlararo aloqadorlikni ta’minlash. Ya’ni, matematika, kimyo, informatika, biologiya fanlari bilan o‘zaro bog‘liqligini tizimli ravishda yoritish. Bu jarayon uzluksiz ta’limning hamma bochqichlarida amalga oshiriladi.

b) Qattiq jismlar fizikasini o‘qitishning o‘ziga xos jihatlarini aniqlab, ularni tizimli, dastur va o‘quv rejasi asosida o‘rganish. Ayniqsa, uzluksiz ta’lim tizimida qattiq jismlar va ularning fizik xossalariga tegishli mavzularning uzviyligini ta’minlash zarur.

v) Qattiq jismlar fizikasi mazmunida tabiat – jamiyat, inson – texnika uyg‘unligini ta’minlash. Buning uchun qattiq jismlarning tabiatda tarqalishi, jamiyatdagi o‘rni, inson taraqqiyoti va texnika rivojlanishidagi rollarini tizimli ravishda yoritish. Bular asosan umumiy o‘rta ta’limda amalga oshirilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

g) Qattiq jismlar fizikasi mazmuniga tegishli fan va texnikadagi ilmiy yutuqlarni o‘rinli ravishda yoritish. Bunda fanga tegishli Respublikamiz va jahonning ilmiy tadqiqot maskanlarida yaratilgan eng so‘ngi kashfiyotlari hamda yangiliklarni ta’limga tadbiq qilish katta ahamiyat kasb etadi. Mazkur ma’lumotlar to‘laligicha uzluksiz tizimning oliy ta’lim va oliy ta’limdan keyingi bosqichlarida yoritilishi zarur.

d) Qattiq jismlar fizikasi mazmunini aniqlash, uni o‘qitishning zamonaviy shakllari, metodlari, vositalari va yo‘llarini izlab topish hamda ularni tizimlashtirish. Qattiq jismlar mavzulariga mos holda nan’anaviy dars usullaridan foydalanib, pedagogik texnologiyalar va zamonaviy axborot texnologiyalar yordamida ta’limni tashkil etish kerak bo‘ladi.

e) Zamonaviy ilg‘or tajribalarni joriy etish orqali qattiq jismlar fizikasi mazmunini takomillashtirishga doir metodik tavsiyalar ishlab chiqish kabilarni amalga oshirish. Bunda uzluksiz ta’limning har bir bosqichigi alohida metodik va o‘quv qo‘llanmalar yaratish maqsadga muvofiqdir.

Tajriba – sinov va tahlillarimiz natijalaridan ma’lum bo‘lishicha, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida hamda akademik litseylarda o‘quvchilarning qattiq jismlar fizikasi mazmunidan o‘quv rejasi va dasturdagi mavzular asosida o‘tkazilgan nazariy va amaliy mashg‘ulotlarni olib borishdagi o‘zlashtirish darajalari ko‘rsatkichlari past bo‘lsa, pedagogika oliy o‘quv yurtlarining fizika va matematika mutaxassislik talabalarining bilim darajasi o‘rtacha ekanligi aniqlandi. Bizning nuqtai nazarda bunday o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarining pastligiga fizika fanidan ayniqsa, qattiq jismlar fizikasidan nazariy va amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etishda quyidagi kamchiliklar mavjudligi sabab bo‘lishi aniqlandi:

– fizika fanidan namunaviy dastur, o‘quv rejasining bugungi kun talabi asosida takomillashtirilmaganligi;

– qattiq jismlar fizikasidan hozirga qadar zamonaviy dastur o‘quv va metodik adabiyotlar majmuasi yaratilmaganligi;

– didaktik – metodik materiallar majmuasining ishlab chiqilmaganligi; - ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar mazmuni hamda sifati zamon talabi darajasida emasligi;

– nazariy-amaliy mashg‘ulotlar mavzularining yagona, yaxlit tizimga keltirilmaganligi;

– nazariy va amaliy mashg‘ulotlarni o‘qitishda noan’anaviy metodlardan samarali foydalanilmasligi;

– qattiq jismlar fizikasiga oid laboratoriya mashg‘ulotlar ta’limi zamon talablariga mos emasligi;

– ta’limni tashkil etishda zamonaviy axborot texnologiyalardan yetarlicha foydalanmayotganligi va boshqalar.

Mazkur kamchiliklarni bartaraf etish fizika fanini mazmun va sifat jihatdan takomillashtirish, qattiq jismlar fizikasi mazmuniga oid tanlangan materiallardan o‘quv jarayonida samarali foydalanish hamda o‘quvchi va talabalarda nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalar shakllanishiga keng imkoniyat yaratadi.

Hozirda ta’lim tizimida o‘qitiladigan qattiq jismlar fizikasi mazmunini yanada takomillashtirishga oid materiallar quyidagi muammolarni hal etishi zarur:

– uzluksiz ta’lim tizimining har bir bosqichiga mos didaktik va metodik talablarga javob beradigan materiallarni izlab topish.

– qattiq jismlar fizikasi mazmunini yaratish va uni o‘qitish samaradorligini oshirishda tanlangan materiallardan ma’ruza va amaliy hamda laboratoriya mashg‘ulotlarda qanday noan’anaviy metodlardan hamda shakllardan foydalanishni aniqlash;

– qattiq jismlar fizikasi mazmuni bo‘yicha tanlangan materiallar o‘quvchilarning mustaqil fikrlashlari, bilish qobiliyatlarini faollashtirishni hisobga olish;

– qattiq jismlar fizikasi mazmuni bo‘yicha tanlangan o‘quv materiallarga mos o‘qitish metodikalarini ishlab chiqish;

– uzluksiz ta’lim tizimida o‘qitiladigan qattiq jismlar fizikasiga oid materiallarni zamon talabiga moslab yangilab turish va boshqalar.

Qattiq jismlar fizikasi mazmuni, o‘qitish metodikasi uchun tanlangan materiallar hajmi va mazmuni didaktik talablarga javob berishi, nazariy va amaliy jihatdan ilmiy asoslangan bo‘lishi, didaktik tamoyillarga amal qilishi kerak. O‘qituvchi nafaqat fizika fani dasturi va o‘quv rejasidagi mavzularga oid materiallarni tanlashi, balki ularni tizimlashtirishi, mazkur to‘plangan materiallar mazmuni bilan o‘quvchilarni ma’ruza va amaliy hamda laboratoriya mashg‘ulotlarda tanishtirish maqsadida noan’anaviy (interfaol, evristik, izlanish-tadqiqot, muammoli, produktiv, reproduktiv, klaster kabilar) metodlardan samarali foydalanishni bilishi lozim.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari va akademik litseylarda qattiq jismlar fizikasidan tanlangan materiallar mazmuni o‘rganilayotgan tabiatdagi hodisa va jarayonlarga, ayniqsa, tabiat qonunlariga nisbatan o‘quvchilarda qiziqish

uyg‘otishi, dastur materiallarini puxta o‘rganib olishga yordam berishi kerak.

Qattiq jismlar fizikasidan tanlangan o‘quv materiallardan muvaffaqiyatli foydalanish mumkin, qachonki zamonaviy texnologiya (pedagogik, kompyuter, axborot)lar va texnik vositalarning ilmiy asoslari bilan o‘quvchilarni etarli darajada tanishtirila olinsagina, ularda mazkur fanining rivojlanish tarixi va uning hozirgi zamon olamning fizik manzarasini o‘rganishga nisbatan qiziqishlarini orttiradi.

Oliy ta’lim muassasalari (pedagogika oliy o‘quv yurtlari)da qattiq jismlar fizikasining materiallarini tanlashda va ularni o‘qitishda didaktik tamoyillarga katta e’tibor qaratish zarur. Bularga uzviylik, ilmiylik, nazariyani amaliyot bilan bog‘lanishi, tarixiylik, izchillik, tamoyillari kiradi. Ta’limning bu bosqichida o‘quv materiallari haddan ziyod ko‘pligini e’tiborga olib, ta’limni ilg‘or pedagogik texnologiyalardan tashqari, zamonaviy axborot texnologiyalarining imkoniyatlariga gipermatn, gipermedia, grafika va kompyuterli ovoz dasturlari va boshqalardan foydalanish tavsiya etiladi. [3. 103]

Qattiq jismlar fizikasidan o‘zbek tilida umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun o‘quv va metodik qo‘llanmalar yo‘qligini, oliy ta’lim uchun esa juda kam yetarli emasligini e’tiborga olib, o‘quv metodik majmua yoki darsliklar yaratishni tavsiya beramiz. Bu yaratilajak kitoblardagi o‘quv materiallar uzluksiz ta’limning har bir bosqichiga zarur deb hisoblaymiz. Bunday mazmundagi materiallardan qattiq jismlar fizikasiga oid zamonaviy o‘quv adabiyotlarining kitob shakldа yoki elektron tarzda yaratish tavsiya etiladi. Shunday zamonaviy adabiyotlarning yaratilishi davr talabi bo‘lgan masofadan o‘qitishni tashkil qilishga hamda mustaqil ta’limga bo‘lgan talabning bajarilishiga, talaba va o‘quvchilarning fizik tushunchalarni yaxshi tushunishi hamda uzoq muddat eslab qolishiga, fizika va boshqa tabiiy fanlarga bo‘lgan qiziqishlarining yanada ortishiga olib keladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Djoraev M. “Fizika o‘qitish metodikasi”. / Uslubiy qo‘llanma. –Toshkent – 2015y. 223 b.
2. A.Teshaboev, S.Zaynobiddinov, Sh.Ermatov Qattiq jism fizikasi /O‘quv qo‘llanma. Toshken: Moliya 2001y. 323 b.
3. Ro‘zieva D., Usmanbaeva M., Xolikova Z. Interfaol metodlar. Mohiyati va qo‘llanilishi. / Uslubiy qo‘llanma. – T.: TDPU, 2013. -120 b.

# INNOVATSION TEXNOLOGIYA VA TABIIY FANLAR INTEGRATSIYASIDA KIMYO FANINI O‘QITISH METODIKASI

***I.E.SHERNAZAROV***
*TPTI akademik litseyi, p.f.f.d(PhD)*

*Maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktabining qo‘yi va yuqori sinflarida mavzuni qaysi qismni tushuntirish kerakligi hamda oliy ta’lim muassasalarida mavzuni to‘liq yoritib berish uchun qaysi ma’lumotlarga etibor berish kerakligi va mavzularni tushuntirishda qo‘llaniladigan metodlar haqida ma’lumotlar keltirib mavzu to‘liq yoritib berilgan. Innovatsion texnologiyalar yordamida aniq, tabiiy, ijtimoiy va gumanitar fanlar integratsiyasidan foydalanish o‘quvchi va talabalarni fikrlash, anglash hamda xulosalash orqali malaka ko‘nikmalarini shakllantirishi aniqlab berilgan.*

***Tayanch so‘z va iboralar:*** *PISA, CSR Asia, AKT, dispers sistema, dag‘al dispers sistema, kalloid eritma, emulsiya, suspenziya, chin eritmalar, elektrolitik dissotsiyalanish.*

*В статье приводится информация о методах, используемые для объяснения темы, о том, какую часть темы следует объяснить, а также какую информацию следует учитывать для полного охвата темы в высших учебных заведениях. Использование интеграции точных, естественных, социальных и гуманитарных наук с помощью инновационных технологий направлен на формирование у учащихся навыки мышления, понимания и обобщения.*

***Ключевые слова:*** *PISA, CSR Asia, ICT, дисперсная система, коллоидный раствор, эмульсия, суспензия, стинные растворы, электролитическая диссоциация.*

*The article provides information on which part of the topic should be explained in sheep and senior classes of general secondary school, what information should be considered in order to fully cover the topic in higher education institutions, and the methods used to explain the topic. The subject matter is fully covered. The use of the integration of the exact, natural, social and human sciences through innovative technologies has been found to shape students 'thinking skills through thinking, comprehending and summarizing.*

***Key words****: PISA, CSR Asia, ICT, disperse system, coarse disperse system, colloidal solution, emulsion, suspension, true solutions, electrolytic dissociation.*

Jahonda tabiiy fanlar sohasini takomillashtirish, innovatsion va pedagogik texnologiyalarni o‘quv jarayoniga tatbiq etish, tabiiy fanlarning zamonaviy rivojlanish tendensiyalariga mos ravishda ularni o‘qitishning metodik asoslarini ishlab chiqish kabi masalalarga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xalqaro tashkilotlardan biri bo‘lgan CSR Asia ishlab chiqqan dasturda 2030 yilgacha ta’lim sifatini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) asosida oshirish

e'tirof etilib, unda o'quvchilarining ta'lim olishlarini qo'llab-quvvatlash va samarali tashkil etish ko'zda tutilgan. AKT sohasidagi jadal rivojlanish mahalliy va xalqaro miqyosda kadrlarning o'zaro muloqot qilish va istiqbolda o'zaro qanday munosabatda bo'lishlarini tubdan o'zgartiradi[1].

O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish, o'quv-tarbiya jarayoniga ta'limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish maqsadida, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentyabrdagi «Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-5538-son Farmoni muvofiq:

O'zbekiston Respublikasining 2030 yilga kelib PISA (The Programme for International Student Assessment) Xalqaro miqyosda o'quvchilarni baholash dasturi reytingi bo'yicha jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakati qatoriga kirishiga erishish; xalq ta'limi sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etishdan iboratdir[2].

Umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarini PISA (The Programme for International Student Assessment) Xalqaro miqiyosda o'quvchilarni baholash dasturiga tayyorlash uchun o'quvchilarga o'tiladigan aniq, tabiiy, ijtimoiy va gumanitar fanlarni o'zaro bog'liqliklari haqida tushunchalar berish va o'quvchilarni fikrlash, anglash hamda xulosalash haqida malaka ko'nikmalarini shakllantirish kerak bo'ladi. Umumiy o'rta ta'lim tizimi kimyo fanini biror bir mavzusini tushuntirishda tabiiy va aniq fanlar hamda innovatsion texnologiyalar integratsiyasidan foydalanish o'quvchilarni bilim saviyasini oshiriga katta ta'sir ko'rsatadi. Aynan bu vazifalarni amalga oshirishda fanlarni uzluksizligini taminlash maqsadida ularni bosqichma-bosqich o'quvchilarga tushuntirish kerak bo'ladi.

Masalan: 7-sinf o'quvchilariga "Eritmalar" mavzusini tushuntirishda eritmalar tarkibi (erituvchi va erigan modda) va ularni turlari (dag'al dispers sistemalar, kalloid eritmalar, emulsiya, suspenziya, chin eritmalar) haqida tushunchalar berilsa va dars jarayonida innovatsion texnologiyalardan (eritma ichidagi ko'rinmaydigan zarrachalarni animatsion hamda videorolik ko'rishlari orqali) foydalanilsa o'quvchilarda eritmalar haqida malaka va ko'nikmalar shakllana boradi.

Yuqorida tushuntirib o'tilgan "Eritmalar" mavzusiga doir uzluksiz ta'lim tizimini hisobga olgan holda o'qituvchilar uchun dars jarayonida tushuntirishlari lozim bo'lgan tushunchalarni keltirib o'tamiz.

**7-sinfda "Eritmalar"** mavzusi haqida malaka va ko'nikmalarni qo'yidagicha shakllantirish kerak.

Eritmalar-ma'lum bir erituvchida (suv, spirt yoki boshqa organik erituvchilar)

erigan moddaning miqdori (mol, kilogramm, gramm, milligramm, litr, molekulalar soni) bilan ifodalanadigan kattalik. Eritmani qo'yidagicha ya'ni erituvchi tarkibida erigan modda tabiatiga ko'ra ajratish mumkin. Masalan:

– suvda eriydigan anorganik (tuz, ishqor) va organik (uglevodlar, organik tuzlar) moddalar yordamida tayyorlangan eritmalar

– suvda eriydigan anorganik (kislotalar) va organik (spirt, oddiy va murakkab efirlar, organik kislotalar, aldegid, keton) suyuq moddalar asosida tayyorlanadigan eritmalar

– suvda eriydigan anorganik va organik uchuvchan gaz moddalar yordamida tayyorlanadigan eritmalar

Yuqorida keltirilgan eritmalarni tayyorlash usullari haqida o'quvchilarga nazariy va amaliy tushunchalar berish orqali o'quvchilarda "Eritmalar" mavzusiga doir boshlang'ich bilimlar shakllantiriladi.

Demak eritmalar va dispers sitemalar tayyorlashni animatsion ko'rinishini yanada qiziqarliroq chiqishini ta'minlash maqsadida, laboratoriya bajarishda ishlatiladigan kimyoviy moddalarni fizik-kimyoviy xossalarini ifodalovchi kimyoviy tuzilishi, tabiatdagi ko'rinishi hamda laboratoriya jarayonlarida boradigan kimyoviy o'zgarishlarni (kation va anionlarni harakati va ularni o'zaro birikishi, reaksiya natijasida boshqa moddalarni hosil bo'lish) aniq rangli tasvirda ifodalash zarur. Bu jarayonlarni bajarishda albatta innovatsion texnologiyalar (kompyuter, televezor, kimyoviy asbob va uskunalar) hamda zamonaviy dasturlar (nazariy, amaliy va laboratoriya ishlarini bajarish uchun slayd, animatsiya, videonamoyish, avdiovizual jarayonlarni ifodalashda) kerak bo'ladi. Innovatsion texnologiyalar asosida dispers sistemalar tarkibini tushuntirish ananaviy usulga qaraganda qiziqarliroqdir. Aynan innovatsion texnologiyalar asosida o'quvchilarga dars o'tish, PISA (The Programme for International Student Assessment) Xalqaro miqiyosda o'quvchilarni baholash dasturiga tayyorlashda o'quvchilarni malaka ko'nikmalarini shakllantirish oson bo'ladi. Masalan: kaliy permanganatning rangli eritmasi tayyorlanib shu eritma tarkibidagi moddalarni miqdorini aniqlash vazifa qilib berilganda o'quvchilar eritmaning rangiga qarab kaliy permanganat miqdorini nisbiy jihatdan aniqlashi mumkin.

**8-sinfda** o'quvchilarga "Elektrolitik dissotsiyalanish nazariyasi" mavzusini tushuntirishda, o'quvchilarga eritmalar tayyorlash turlari (to'yingan, to'yinmagan, o'ta to'yingan, foiz, molyar, normal, molyal va titr konsentratsiyali eritmalar) haqida tushuncha berib, tayyorlangan eritmalarni elektrolitik dissotsiyalanishi va ularni noelektrolit yoki elektrolit ekanligini, elektr tokini o'tkazishi va ularni tarkibi va xossalari haqida tushunchalarni o'quvchilar ongiga singdirishda innovatsion texnologiyalar (internet ma'lumotlari asosida tayyorlangan videonamoyishlar va

slayd, animatsiyalar) yordami juda muhim o‘rin tutadi. Albatta to‘yingan, to‘yinmagan, foiz, molyar, normal, molyal hamda titr konsentratsiyali eritmalar tayyorlashda tabiiy fanlar bilan birga aniq fanlar integratsiyasidan foydalanish zarur. Sababi, o‘quvchilaga “Eritmalar va elektrolitik dissotsiyalanish” mavzularni tushuntirishda fizika, matematika fanlaridan foydalanish kerak bo‘ladi. Eritmalarni konsentratsiyalarini ifodalashda kimyo fani bilan birga matematika fanidan foydalanish zarurdir.

**11-sinf** hamda akademik litsey o‘quvchilari ham aynan “Eritmalar va elektrolitik dissotsiyalanish” mavzularini takrorak o‘rganishadi. Aynan bu borada eritmalarni tarkibi (erituvchi va erigan modda) haqida tushuncha va ularni (erigan moddalarni) tabiatda uchrashi, tayyorlangan eritmalarni biologik ahamiyati (o‘simlik tarkibida, inson organizmida, sanoatda va qishloq xujaligidagi ahamiyatlari), fizik xossalari (zichligi, og‘irligi, qaynash va suyuqlanish temperaturalari), ekalogiyasi (tabiiy sharoitda qayrlarda paydo bo‘lishi, ularni ekalogiyaga ta’siri), meditsina sohasi (tayyorlangan eritmalar inson organizmiga ta’siri) haqida tushunchalar berilsa, o‘quvchilar PISA (The Programme for International Student Assessment) Xalqaro miqiyosda o‘quvchilarni baholash dasturiga aynan shu mavzu bo‘yicha tayor deb hisoblash mumkin. PISA test savollarini tuzishda o‘quvchilarni (15-16 yoshdagi o‘quvchilar) dunyo qarashlari ham hisobga olinadi. Demak o‘quvchilarni aynan bilim, malaka va ko‘nikmalarini maktab davridan oliy o‘quv yurtlariga kirgunga qadar shakllantira olishimiz kerak bo‘ladi.

**Oliy ta’lim muassasalarining** bitiruvchi talabalari hozirgi kunda o‘quvchilarni PISA (The Programme for International Student Assessment) Xalqaro miqiyosda o‘quvchilarni baholash dasturiga tayyorlashni bilishlari shart. Sababi ular umumiy o‘rta ta’lim tizimida borib ishlashadi va ular o‘quvchilarni shu dastur asosida dars o‘tishadi. Demak, oliy ta’lim muassasalari talabalari ham hozirgi kunda shu talab asosida tayyor bo‘lishlari shart. Talabalar o‘quvchilarni tayyorlashdan oldin fanlarni integratsiyasini yaxshi tushunishlari va innovatsion texnologiyalarni bilishlari kerak. Masalan: osh tuzi eritmaasini tayyorlash uchun ishlatiladigan natriy xloridning:

– kimyoviy tarkibini o‘rganish uchun - anorganik kimyo fani;
– tabiatda uchrashini o‘rganishda – geografiya fani;
– tirik organizmlarga ta’sirini o‘rganishda – tibbiyot (biokimyo, anatomiya) fanlari;
– bu modda qazib olinishini o‘rganish uchun kimyo texnologiyasi fani;
– osh tuzining fizik xossalari o‘rganishda – fizik kimyo fani;
– osh tuzi eritmasi tarkibidagi ionlarini o‘rganishda – analitik kimyo fani;
– osh tuzini ekalogiyaga ta’sirini o‘rganish uchun – ekalogiya fani;

– osh tuzi eritmalari xossalarini o‘rganish uchun – organik kimyo va organik moddalarni sintezi fanlarini talabalar to‘liq o‘zlashtirishgan bo‘lishi kerak.

Yuqorida ifodalangan ma’lumotlar orqali talaba eritmalar tayyorlashda ishlatiladigan tuzlarni (masalan: natriy xlorid) tabiatda uchrashi, bu tuz qazib olinadigan konlar, tuzning fizik va kimyoviy xossalari, inson organizmidagi ta’siri, o‘simliklarga ta’sirini o‘rganish uchun tabiiy fanlarni integratsiyasidan foydalanish kerak bo‘ladi.

PISA Xalqaro miqiyosda o‘quvchilarni baholash dasturiga tayyorlash uchun talabalar o‘quvchilar uchun qiziqarli, aqliy faoliyati to‘g‘ri yunaltira olishi uchun o‘quvchilarni yoshini, bilimini hisobga olgan holda, rangli tasvirlar va matematik savodxonligini hisobga olgan xolda har xil chizmalar orqali kimyo fanidagi mavzularni tushuntirishi hamda mavzularga mos ravishda test savollarini tuzish orqali o‘quvchilarni bilim saloxiyatlarini to‘g‘ri baholashni bilishlari shart.

Yuqorida ko‘rsatilgan fanlarni va PISA (The Programme for International Student Assessment) Xalqaro miqiyosda o‘quvchilarni baholash dasturini to‘liq o‘zlashtira olgan talaba hozirgi ta’lim sohasidagi o‘zgarishlarga mos yuqori malakali kadr bo‘lib yetishadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. The role of ICT in realizing education for all by 2030 Achieving Sustainable Development Goal 4.–p. 1-46. http://www.csr-asia.com/download/ ICT4SDG4 - Final-Version.pdf.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentyabrdagi PF-5538-son “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 06.09.2018 y., 06/18/5538/1840-son, 13.12.2018 y., 06/18/5597/2300-son)

3. Shernazarov I.E. Tabiiy fanlarni o‘qitishda axborot-kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalarning o‘rni va ahamiyati. Xalq ta’limi. (Ilmiy-metodik jurnal). – №5, 2019 yil. – B. 24–30. (13.00.00.№17).

4. Shernazarov I.E. Akademik litseylar «Kimyo» kursini innovatsion texnologiyalarni joriy etib o‘qitish. Tabiiy birikmalardan qishloq xo‘jaligida foydalanish istiqbollari (xorijiy mutaxasislar ishtirokida). Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 2018 yil 25–26 may, Guliston. – B. 321–322.

# UZLUKSIZ TA'LIMDA XALQ TA'LIMI TIZIMINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH VA ISLOH QILISHNING SAMARADORLIGI

***D.M.XAKIMOVA,***
*XTRMXQTMOI dotsenti, p.f.f.d (PhD)*

*Ushbu maqolada xalq ta'limi tizimini boshqarishni takomillashtirish va isloh qilish samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi mexanizmlar hamdabugungi davr talabiga javob bera oladigan zamonaviy rahbar faoliyatiyoritilgan.*
***Kalit so'zlar:*** *Zamonaviy menejment, zamonaviy rahbar, islohot, ta'lim siyosati, konsepsiya, reyting, mexanizm, o'quv-tarbiya jarayoni.*

*В этой статье описываются механизмы, которые служат для улучшения управления и реформирования системы государственного образования, а также деятельность современных лидеров, способных удовлетворить требования сегодняшнего дня.*
***Ключевые слова:*** *Современный менеджмент, современное лидерство, реформа, образовательная политика, концепция, рейтинг, механизм, образовательный процесс.*

*This article describes the mechanisms that serve to improve the management and reform of the public education system, as well as the activities of modern leaders who can meet the requirements of today.*
***Key words:*** *Modern management, modern leadership, reform, educational policy, concept, rating, mechanism, educational process.*

Jahonda ta'lim tizimi rivojlanishining hozirgi bosqichida AQSH, Yaponiya, Janubiy Koreya, Xitoy Xalq Respublikasi, Evropaning iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarida ta'limning tashkiliy va boshqaruv tuzilmalari, uning maqsadli rivojlanish yo'nalishlari va mazmuniga muhim ahamiyat berib kelinmoqda. Ayniqsa, zamonaviy iqtisodiyotda har qanday mamlakat umumiy boyligining 16,0 foizi moddiy kapital, 20,0 foizi tabiiy boyliklar, 64,0 foizi inson kapitaliga to'g'ri kelishi dunyo mamlakatlarini ta'lim tizimini rivojlantirish va boshqarish bilan bog'liq jarayonlarda zamonaviy menejment hamda uning tamoyillariga amal qilish masalalariga katta e'tibor qaratishga majbur etmoqda. Yaponiya va Germaniya kabi davlatlarda milliy boylikning 80,0 foizini inson kapitali tashkil etadi[5]. Boshqarish nazariyasi rivojlanishining har bir bosqichida inson kapitali, shaxsning kamol topishi, demokratik tamoyillar asosida yosh avlodni tarbiyalashga har doim olimlar, amaliyotchilar va davlat organlari tomonidan alohida e'tibor qaratib kelinmoqda.

Xalqaro tashkilotlar hamda dunyoning ko‘plab mamlakatlari tomonidan 2030 yilgacha belgilangan yangi ta’lim konsepsiyasida «ta’lim tizimini boshqarishni, ta’lim sifatini uni baholash jarayoni va vositalarini takomillashtirish, erishilgan natijalarni aniqlash imkonini beruvchi mexanizmlarni amaliyotga joriy etish» dolzarb vazifa etib belgilandi. Bu esa o‘z navbatida jahon mamlakatlari uchun ta’lim tizimi tashkiliy va boshqaruv tuzilmasini yanada takomillashtirish, samarali ta’lim siyosati hamda boshqaruv mexanizmlarini ta’lim sohasiga joriy etish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

O‘zbekistonda ta’lim tizimini rivojlantirish sharoitida uzluksiz ta’lim tizimini barpo etish, mazmunini tubdan yangilash va ta’lim-tarbiya jarayonining sifatini oshirish masalalariga keyingi yillarda ijobiy yondashilmoqda. Keyingi bir yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining etmishga yaqin qaror, farmon va farmoyishlari qabul qilindi. Bu tom ma’noda ta’lim tizimidagi o‘zgarishlar va yangilanishlar jarayonini boshlab berdi.

Shunday islohotlardan biri, bu 2017-2021 yillarda “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi” da qayd qilingan, ya’ni uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, umumiy o‘rta ta’lim sifatini tubdan oshirish, ta’lim va o‘qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish ustuvor vazifalardan biri etib belgilangan[3]. SHundan kelib chiqqan holda, milliy ta’lim tizimini jahondagi globallashuv va raqobatchilikning yangi shart-sharoitlariga hamohang, maqbul holda moslashtirish, rivojlangan davlatlarning ilg‘or tajribalari asosida respublikamizda ta’lim sohasini isloh qilishning muhim vazifalaridan biri sanaladi.

Ta’lim tizimini boshqarishning samarali mexanizmlarini joriy etish o‘sib kelayotgan yosh avlodni ma’naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish, o‘quv-tarbiya jarayonida ta’limning innovatsion shakllari va usullarini qo‘llashga ko‘maklashishning eng muhim sharti hisoblandi. Shu bilan birga, ushbu sohadagi ishlar holatini tanqidiy tahlil qilish ta’lim tizimi boshqaruvini tashkil etish, davlat umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining faoliyatini amaliy jihatdan muvofiqlashtirish, ularning moddiy-texnik holatini yaxshilash bo‘yicha tadbirlarni moliyalashtirishda bir qator muammolar va kamchiliklar mavjudligi, jumladan:

– joylarda umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’lim sohasida davlat

siyosatini amalga oshirish, umumta’lim muassasalari rahbarlarini tanlash va joy-joyiga qo‘yish masalalarini hal etish, idoraviy mansub tashkilotlarning mulkidan samarali foydalanishda xalq ta’limi boshqaruv organlari rolining etarli darajada emasligi;

– umumta’lim muassasalari rahbarlari zimmasiga ularga xos bo‘lmagan vazifalar va funksiyalarni yuklash, muassasa direktori va uning o‘rinbosarlari o‘rtasida vakolatlarning aniq taqsimlanmaganligi, ular faoliyati samaradorligini baholashning aniq mezonlari va parametrlari mavjud emasligi;

– umumiy o‘rta ta’limning dolzarb masalalari va ularning natijalarini amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha chuqur ilmiy tadqiqotlarning mavjud emasligi, o‘quv-tarbiya jarayonini uslubiy ta’minlash masalalarida xalq ta’limi bo‘limlari va umumta’lim muassasalari o‘rtasida o‘zaro hamkorlik darajasining pastligi;

– xalq ta’limi sifatini ta’minlash, o‘qituvchilarning bilim darajasini va pedagogik mahoratini oshirish masalalarida umumta’lim muassasalari faoliyatidagi ochiqlik va shaffoflik darajasining etarli darajada emasligi, o‘quv-tarbiya jarayoni ustidan samarali jamoatchilik nazoratining mavjud emasligi;

– xalq ta’limi tizimi muassasalarini moliyalashtirish va moddiy-texnik ta’minlash mexanizmining mukammal emasligi, ularning faoliyatiga zamonaviy me’moriy echimlar, innovatsion ishlanmalarni va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish darajasining pastligi aniqlandi.

O‘quv-tarbiya jarayoniga boshqaruvning yangi mexanizmlarini va sifat standartlarini joriy etish, jamiyatda o‘qituvchi kasbining nufuzini oshirish, umumta’lim muassasalarining moddiy-texnik holatini yaxshilash orqali xalq ta’limi tizimini yanada takomillashtirish maqsadida asosiy yo‘nalishlari belgilandi va isloh qilindi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, bugungi davr talabi maktab direktoridan iqtisodiy bilimlarni yaxshi o‘zlashtirgan iqtisodchi bo‘lishi, mustaqil fikrga egaligi, sabr-toqatli, diqqat-e’tiborli, halol, intizomli, so‘zining ustidan chiquvchi, to‘g‘ri so‘z, vijdonli, insonparvar bo‘lishi bilan birga qiyinchiliklarni enga oladigan, orqaga chekinmaydigan, to‘siqlardan qo‘rqmaydigan, o‘zi xato yoki kamchilikka yo‘l qo‘yganda aybini tan olishdan uyalmasligi, tajribali pedagoglarga suyanib ish ko‘rishinitaqazo etadi. SHu nuqtai nazardan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 26 fevraldagi «Xalq ta’limi muassasalarining moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish to‘g‘risida»gi PF-3857 farmoniga binoan maktablarni moliyaviy-iqtisodiy

masalalarni hal etishda ta'lim muassasalarining mustaqilligini kengaytirish va mas'uliyatini oshirish, byudjet mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanish nazarda tutiladi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim sohasidagi islohotlar samaradorligini tizimda bo'layotgan o'zgarishlardan bilishimiz mumkin. Ammo shuni aytish kerakki, davr shiddat bilan rivojlanmoqda. Shunday ekan, ta'lim sohasidagi islohotlar ham yanada chuqurlashib boraverishi zarur.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi. 2017 yil 14 yanvar. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017. – 104 b.
2. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 25 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. 2017 yil 8 dekabr. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli farmoni. //lex.uz.
4. «Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni imzolandi. Hujjat matni O'zA. 5.09.2018 yil.
5. Xakimova D.M., Axmedova N.K. Maktab direktori - samarali menejer (metodik qo'llanma). – Toshkent: «KATRAN» MCHJ, 2019.

# BIOLOGIYADAN PISA TOPSHIRIQLARINI UZLUKSIZ TA'LIM JARAYONIGA TADBIQ ETISH METODIKASI

***U.E.RAXMATOV,***
*TDPU katta o'qituvchisi*
***I.T.AZIMOV,***
*TDPU kafedrasi mudiri, b.f.f.d.*
***G.O.TOG'AYEVA,***
*Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi bosh mutaxassisi*

*Maqolada biologiya o'qitish tizimida xalqaro baholash topshiriqlarini o'quvchilar ilmiy dunyoqarashini, mantiqiy fikrlashlarini oshirish yo'llariga e'tibor berilgan. Shuningdek PISA topshiriqlaridan na'munalar keltirilgan.*

***Tayanch tushunchalar:*** *PISA dasturi, ta'lim sifati, bilish faoliyati, biologiya, botanika, zoologiya, Odam va uning salomatligi, sitologiya, genetika, kasbiy kompetentlik, kompetensiyaviy yondashuv.*

*В статье рассматриваются пути совершенствования научного мировоззрения и логического мышления учеников в международных оценочных заданиях в системе преподавания биологии. Также предоставляются пример? из заданий PISA.*

***Ключевые слова***: *программа PISA, качество образования, познавательная деятельность, биология, ботаника, зоология, человек и его здоровье, цитология, генетика, профессиональная компетентность, компетентностный подход.*

*The article discusses ways to improve the scientific worldview and logical thinking of students in international assessment tasks in the biology teaching system. Also provided are examples from PISA assignments.*

***Key words:*** *PISA program, quality of education, cognitive activity, biology, botany, zoology, Human and its health, cytology, genetics, professional competence, competency-based approach.*

O'zbekiston Respublikasining 2030-yil-ga kelib *PISA* xalqaro dasturi reytingida jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish hamda xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash soha-sidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo'naltirilgan ta'lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan.

***PISA*** – o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy fanlardan bilim darajalarini baholashga qaratilgan xalqaro baholash dasturi bo'lib, o'quvchilarning maktab davri-da olgan bilim va ko'nikmalarini, mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini

aniqlashga mo‘ljal-langan. U o‘z navbatida o‘quvchi-yoshlarning fikr - mulohazalari, ular bergan taklif va yechimlarni baholaydi.

Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, barcha tabiiy fanlar kabi biologiya fani bo‘yicha savodxonlik kompetensiyalarini baholashda uch turdagi topshiriqlardan foydalaniladi:

· bitta to‘g‘ri javob tanlanadigan topshiriqlar:

· to‘rtta javob variantidan bittasini tanlash;

· matn yoki grafikdan “qaynoq nuqta”ni topish.

· bir nechta to‘g‘ri javob tanlanadigan topshiriqlar:

· “**Ha / Yo‘q**” javobli topshiriqlar (javoblar soni ko‘p bo‘lishiga qaramasdan, baholashda ularga yaxlit bitta javob sifatida qaraladi);

· bir nechta javob variantlari orasidan bittadan ortiq to‘g‘ri javobni tanlash;

· ochiladigan menyu”dan foydalanib, jumlaning bir qancha ochiq qolgan joylarini to‘ldirish;

· siljitish va joylashtirish” usulidan foydalanib, ekrandagi elementlarni siljitish orqali taqqoslash, tartib bilan joylashtirish, klassifkatsiyalashga oid topshiriqlar;

· ochiq javobli topshiriqlar.

Bunday topshiriqlarning javobi yoziladi yoki chiziladi. Yozma javob qisqa iboradan tortib, 2–4 tagacha jumladan iborat bo‘lishi mumkin. Ochiq javobli ba’zi topshiriqlarda chizish talab etiladi (masalan, grafk, diagrammalar). Kompyuterga asoslangan baholashda bunday topshiriqlarni bajarish uchun oddiy rasm muharrirlaridan foydalaniladi.

*PISA* 2015 topshiriqlarida agar o‘quvchi 1 ballik topshiriqda berilgan savolga to‘g‘ri javob bersa, javob to‘liq qabul qilinadi (1 ball), aks holda, javob qabul qilinmaydi (0 ball); agar o‘quvchi 2 ballik topshiriqqa to‘g‘ri javob bersa, javob to‘liq qabul qilinadi (2 ball), qisman to‘g‘ri javob bersa, javob qisman qabul qilinadi (1 ball), javob yo‘q yoki noto‘g‘ri bo‘lsa, javob qabul qilinmaydi (0 ball).

*Biologik bilimdonlik* – bu o‘quvchilarning biologiyaning turli tarmoqlarini o‘zaro bog‘lay oladigan va uning turli muammolar yechimini topishda qo‘llay olish qobi-liyatidir. Bu o‘z ichiga biologik fikrlash va biologik tushunchalarni o‘z o‘rnida qo‘llay olish, biologik jarayonlarni borishini aytib bera olish kabilarni o‘z ichiga oladi. Bu - insonlarga biologiyaning dunyo ilmini shakllanishidagi rolini tushunib yetishga va tan olishga, insonning ilmiy dunyoqarashini shakllanishida, turli muammolar yechimini topish uchun aniq xulosalar chiqarishga, turli yaratuvchanlik va qiziqarli fikrlovchi insonlarni shakllanishida katta rol o‘ynaydi.

Uzluksiz ta’lim tizimida biologik bilimdonlikni amalga oshirish - maktabgacha ta’lim muassasa tarbiyalanuvchilari va boshlang‘ich sinflarda dastlabki elementlar so‘ngra 5-8 sinflar davomida bosqichma – bosqich amalga oshiriladi. Keyingi 9-

10-11 sinflarda biologiya fanlarini insoniyat madaniyati rivojlantirishdagi roli va biologiyani chuqur atroflicha o'rganish amalga oshadi. Undan so'ng oliy ta'lim va oliy ta'limdan keying bosqichlarda biologik bilimdonlik darajasi yanada takomillashtiriladi.

Bugungi kundagi ustuvor vazifalarni amalga oshirish borasida nafaqat milliy markaz a'zolari balki mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan har bir *umumta'lim maktab o'qituvchilari, oliy o'quv yurtidagi professor-o'qituvchilar, kadrlar malaka oshirish va qayta tayyorlash tarmoq markaz o'qituvchilari hamda o'quvchilarning* birgalikda faol ishtirok etishlari o'ta muhim sanaladi.

Yuqoridagi keltirilgan vazifalarni amaliy ifodasi sifatida mualliflar birgalikda uzluksiz ta'lim tizimida tabiiy fanlar xususan, biologiya o'quv kursi bo'yicha *PISA* dasturining bevosita tadbiq etish metodikasini yoritishga asosiy etiborni qaratdik.

– *maktabgacha ta'lim massasalari* tarbiyalanuvchilari *PISA* dasturi elimentlari (qiziqarli rasmli topshiriqlar asosida) dan foydalanishi maqsadga muvofiq;

– *umumiy o'rta ta'limning boshlangich sinflarida* atrofimizdagi olam va tabiat-shunoslik o'quv kurslarida dastlabki biologik bilimdonlikni shakllantirish bo'yicha *PISA* dasturi elimentlari (mantiqiy, qiziqarli rasmli topshiriqlar asosida) dan foydalangan holda tashkil etilishi lozim;

– *PISA* dasturi topshiriqlaridan biologiya (*botanika-5-6, zoologiya-7, odam va uning salomatligi-8, biologiya-9-10-10- sinf o'quvchilariga*) o'quv kurslari bo'yicha quyi, o'rta va yuqori qiyinlilik darajadagi topshiriqlardan foydalanish tavsiya etiladi.

**I-topshiriq. TISHLAR KARIYESI**

Og'iz bo'shlig'ida yashovchi bakteriyalar tishlar kariyesining sababchisi sanaladi. XVIII asrdan boshlab shakarqamishdan shakar ishlab chiqarish ko'lami ortishi bilan kariyes muammoga aylandi.

Hozirgi kunda kariyes haqida ko'p narsa bilamiz. Masalan:

– kariyesning sababchisi bo'lgan bakteriyalar shakar bilan oziqlanadi;
– shakar kislotaga aylanadi;
– kislota tishlarning ustki qavatini zararlaydi;
– tishlarni tozalash kariyesning oldini olishga yordam beradi.

**Savol:** tishlar kariyesida bakteriyalar qanday ahamiyatga ega?

A.Bakteriyalar emal ishlab chiqaradi.
B.Bakteriyalar shakar ishlab chiqaradi.
C.Bakteriyalar minerallar ishlab chiqaradi.
D.Bakteriyalar kislota ishlab chiqaradi.

**Baholash mezoni.** Mazkur topshiriqni bajarish uchun o'quvchilar topshiriq matnini diqqat bilan o'qib tushunishlari zarur. Matnda keltirilgan ma'lumotlarni

talqin qilish orqali to‘g‘ri javobni topish mumkin bo‘ladi: kariyesning sababchisi bo‘lgan bakteriyalar shakar bilan oziqlanadi, shakar kislotaga aylanadi, kislota tishlarning ustki qavatini zararlaydi. Demak, bakteriyalar shakar bilan oziqlanib, kislota ishlab chiqaradi. Agar o‘quvchilar “D. Bakteriyalar kislota ishlab chiqaradi” javob variantini belgilashsa, to‘liq qabul qilinadi (1 ball). Boshqa javoblar belgilansa yoki javob yo‘q bo‘lsa, qabul qilinmaydi (0 ball). Bu turdagi PISA topshiriqlari o‘quvchilarning ma’lumotlar va dalillarni ilmiy talqin qilish kompetensiyasini baholashga poydevor bo‘ladi.

**II -topshiriq. Genetik modifikatsiyalangan ozuqa**

Genetik modifikatsiyalangan (GM) makkajo‘xori ta’qiqlanishi kerak

Tabiatni muhofaza qilish xalqaro tashkiloti mutaxassislari genetik modifikatsiya-langan makkajo‘xorini ta’qiqlashni talab qilmoqda. GM makkajo‘xori maxsus yaratilgan bo‘lib, kuchli gerbitsid makkajo‘xorining oddiy navlariga ta’sir ko‘rsatadi, ularni nobud qiladi, ammo bunday navga ta’sir etmaydi. Yangi gerbitsid makkajo‘xori dalalarida o‘suvchi ko‘pgina begona o‘tlarni yo‘qotishga mo‘ljallangan.

Yuqoridagi maqolada tilga olingan ilmiy tadqiqot bo‘yicha batafsil ma’lumotlar quyida keltirilgan:

– Butun mamlakat hududidagi 200 ta dala maydoniga makkajo‘xori ekilgan.

– Har bir dala ikkita qismga ajratilgan. Dalaning bir qismiga kuchli yangi gerbitsid bilan ishlov berilgan genetik modifikatsiyalangan makkajo‘xori, ikkinchi qismiga esa oddiy gerbitsid ta?sir ettirilgan oddiy makkajo‘xori navi ekilgan.

– Yangi gerbitsid bilan ishlov berilgan GM makkajo‘xorida aniqlangan hasharotlar soni oddiy gerbitsid bilan ishlov berilgan oddiy makkajo‘xoridagi hasharotlar soniga deyarli teng bo‘lgan[4].

**1-savol**. Makkajo‘xori butun mamlakat hududidagi 200 ta dala maydoniga ekilgan. Olimlar nima sababdan bittadan ko‘p daladan foydalanishgan?

A.Bunda ko‘pchilik fermerlar yangi GM makkajo‘xorini sinab ko‘rishlari mumkin.

B.Ular qancha GM makkajo‘xorini o‘stirishlari mumkinligini ko‘rish uchun.

C.GM makkajo‘xorini imkon qadar ko‘proq dala maydonlarida o‘stirish uchun.

D.Makkajo‘xorini har xil sharoitlarda yetishtirishni tekshirish uchun.

**Baholash mezoni.** Mazkur topshiriqni bajarish uchun o‘quvchilar biror-bir muammoni ilmiy tadqiq etish uchun tajriba o‘tkazishni bilishlari kerak. Tadqiq etilayotgan obyektga turli omillarning ta’sirini o‘rganish uchun tajriba keng miqyosda o‘tkaziladi. Makkajo‘xori yetishtirishda turli omillarning ta’sirini aniqlash maqsadida ekin ko‘p sonli dalalarga ekilgan. Agar o‘quvchilar to‘g‘ri javob sifatida «D. Makka-jo‘xori yetishtirishning har xil sharoitlarini tekshirish uchun”ni belgilashsa, javob to‘liq qabul qilinadi (1 ball). Boshqa javoblar yoki javob yo‘q

bo‘lsa, javob qabul qilinmaydi.

Ushbu savol o‘quvchlarning ilmiy tadqiqotlarni loyihalash va baholash kom-petensiyasini baholashga qaratilgan.

**2-savol.** Quyida keltirilgan ma’lumotlarga qanchalik darajada qiziqasiz? Har bir qatorda faqat bitta katakchani belgilang.

| | | *Juda qiziq* | *Qiziq* | *Unchali kqiziq emas* | *Qiziq emas* |
|---|---|---|---|---|---|
| a) | o‘simliklarni genetik modifikatsi yalash jarayoni haqida bilish | ☐1 | ☐2 | ☐3 | ☐4 |
| b) | gerbitsidlar ba’zi o‘simliklarga ta’sir ko‘rsata olmasligining sabablarini bilish | ☐1 | ☐2 | ☐3 | ☐4 |
| c) | o‘simliklarning chetdan changlanishi va ularni genetik modi fikatsiyalash o‘rtasidagi farqni yaxshiroq tushunish | ☐1 | ☐2 | ☐3 | ☐4 |

Yuqorida keltirilgan topshiriq o‘quvchilarning tabiiy fanlarga bo‘lgan munosabati, ya’ni fanga qiziqishini aniqlashga qaratilgan. O‘qituvchilarimiz *PISA* topshiriqlarining formatini har doim yodlarida saqlagan bo‘lishlari lozim.

– *Oliy ta’lim muassasalari hamda kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tarmoq markazlarida* esa biologiya o‘qitish metodikasi o‘quv kurslarida PISA dasturi topshiriqlarining quyi, orta, yuqori darajalaridan foydalanish ushbu dastur mazmunini o‘rganishdagi muhim qadam hisoblanadi. Zero, o‘quvchilarni ongida bu dasturni mohiyatini shakllantirish jarayonida o‘qituvchi shaxsi asosiy o‘rinda turadi.

Xulosa qilib aytganda, dars jarayonida o‘qituvchi yoki o‘quvchi *PISA* topshiriq-laridan foydalanish natijasida o‘quvchilarning bilish faoliyati faollashadi, o‘quvchi-larning ilmiy dunyoqarashini shakllantiradi, mantiqiy va kreativ fikrlashlarini rivoj-lantiradi, biologik jarayonlar va hodisalarning mazmun mohiyati ochib beriladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5712-sonli Farmoni.

2.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 997-sonli qarori.

3.PISA 2012 Assessment and Analytical Framework: Mathematics, Reading, Science, Problem Solving and Financial Literacy, OECD Publishing.

# UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA MOLEKULYAR-KINETIK NAZARIYAGA OID TUSHUNCHALARNI IZCHILLIK TAMOYILI ASOSIDA SHAKLLANTIRISH

***E.B.XUJANOV,***
*TDPU o'qituvchisi, p.f.f.d (PhD)*

*Maqolada uzluksiz ta'lim tizimida fizika o'qitishda izchillik tamoyilining qo'llanilishi, molekulyar fizika o'qitishda qo'llaniladigan termodinamik va statistic metodlar, molekulyar-kinetik nazariyaga doir tushunchalarni izchillik asosida shakllantirish usullari bayon etilgan.*

***Kalit so'zlar.*** *O'quv predmeti, izchillik tamoyili, didaktik funksiyalar, molekulyar-kinetik nazariya, tajriba, kuzatish, analiz, sintez, ilmiy dunyoqarash, o'quvchi, talaba.*

*В статье описывается применение принципа преемственности в преподавании физики в системе непрерывного образования, методы формирования понятий молекулярно-кинетической теории.*

***Ключевые слова:*** *Учебный предмет, принцип преемственности, дидактические функции, молекулярно-кинетическая теория, лаборатория, наблюдения, анализ, синтез, научного мировоззрения, ученик, студент.*

*The article describes the application of the principle of continuity in the teaching of physics in the system of continuing education, methods of forming the concepts of kinetic theory of gases.*

***Key words:*** *Subjects of study, principle of continuity, didactic functions, molecular-kinetic theory, laboratory, observation, analysis, synthesis, scientific worldview, pupil, student.*

Izchillik tamoyili – ilmiy bilish usuli hisoblanib, mazmunni takomillashtirish va oydinlashtirishga xizmat qiladi. O'qitishdagi izchillikning mohiyati shundan iboratki, o'qitishning oldingi bosqichida o'rganilgan asosiy bilimlarga asoslanib, keyingi bosqichda qayd etilgan qarama-qarshiliklarni bartaraf etish orqali ularni bosqichma-bosqich shakllantirish va takomillashtirishdan iborat.

O'quv materialini ko'p bosqichli qilib tanlashning metodologik konsepsiyasi o'qitishdagi didaktik funksiyalarga asoslangan yagona yondashuvni amalga oshirishdan iborat bo'ladi. Didaktik funksiyalarni bajarish natijasida quyidagi xulosalar kelib chiqadi:

– fizik bilimlarni o'qitish mazmuniga mos tarkibiy qismlar asosida umumlashtirish, o'quv materiallarining sintez qiluvchi o'quv materiallar modellarini yaratish, topshiriqlar to'plamini tuzish uchun asos hosil qilish;

o‘qitish jarayonida maqsadga yo‘naltirilgan, faol o‘quvchi va talabalar faoliyatini tashkil qilish, bilimlarni o‘zlashtirish vositalari, o‘quv materialini ketma-ket, izchil o‘rganish, takrorlash o‘quvchi va talabalarning bilimlari sifatini nazorat qilish hamda baholash;

o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyatida darajalarga ajratish va ma’lum bir maqsadga yetishni ta’minlash; o‘quv jarayonidagi talabalarning turli manbalardan olingan ma’lumotlar bilan ishlashi, takrorlash va imtixonlarga tayyorgarlik ko‘rishi bilimlarga metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Molekulyar fizika va termodinamika asoslarini o‘rganish tabiatdagi juda ko‘p fizik hodisalarni mazmun-mohiyatini tushunishda tayanch vazifasini bajaradi. Molekulyar-kinetik tasavvurlar asosida moddalarning gaz, suyuqlik, qattiq va plazma holatlaridagi turli fizik va kimyoviy xossalari o‘rganiladi.

Ma’lumki, dastlab, o‘quvchilarning molekulyar fizika bo‘yicha olgan bilimlarida mexanikaviy, fenomenologik tasavvurlar, molekulyar-kinetik tasavvurlarga nisbatan ustunroq bo‘ladi. Chunki, o‘quvchilar 9-sinfda molekulyar fizika va termodinamika asoslarini o‘rgangunga qadar fizika o‘quv predmetidan mexanika, elektr va magnit hodisalari bilan yaqindan tanishadilar. Bu kamchilikning asosiy sababi o‘quv dasturlariga ehtimoliy-statistik tasavvurlarning deyarli kiritilmaganligi hisoblanadi. Shunga ko‘ra, ehtimollar nazariyasi va matematik statistika hamda uning tatbiqlari bo‘yicha mashhur olim B.V.Gnedenkoning «Fizikada statistik konsepsiya xukmron bo‘lib qoldi, ammo, bunga o‘quv rejalari hech qanday munosabatini bildirgani yo‘q. Statistik fizika, atom fizikasi, kvant mexanikada nazariy-ehtimoliy apparat keng ko‘lamda qo‘llanilmoqda, u fizik fikrlashning asosini tashkil qilmoqda va yetarli darajadagi nazariy-ehtimoliy ta’limga katta ehtiyoj sezilmoqda» degan fikrini keltirishimiz mumkin bo‘ladi.

Molekulyar fizika va termodinamika asoslarini o‘rganishda termodinamik va statistik metodlar uyg‘un holda qo‘llaniladi. Mexanikani o‘rganishdan molekulyar fizika va termodinamika asoslarini o‘rganishga o‘tish jarayoni o‘quvchilar bilimlarining oshishida, ularning fizikaviy fikrlashlari shakllanishi va rivojlanishida hamda ilmiy dunyoqarashlari boyishida butunlay yangi bosqichdir.

Mexanik xususiyatlardan farqli o‘laroq issiqlik hodisalaridagi yangi xususiyatlar ikki omil: moddaning uzlukli tuzilishi hamda o‘zaro ta“sirlashuvchi zarralar (molekulalar, atomlar, ionlar) sonining ulkanligi bilan izohlanadi.

Shu sababli issiqlik hodisalarini tushuntirish uchun, mexanikada qaralmagan, temperatura, molekulalarning o‘rtacha kvadratik tezligi, ideal gaz, gazning hajmi va bosimi, ichki energiya, issiqlik muvozanati, kvazistatik jarayon, issiqlik jarayonlarining yo‘naltirilganligi hamda termodinamikaning birinchi qonuni kabi fizik tushunchalarni kiritish talab etiladi.

Shuningdek yuqori sinflarda molekulyar fizika va termodinamika asoslari jismlarning mexanik va issiqlik xususiyatlarini, moddalarning tuzilishi hamda zarralarning o‘zaro ta’sirlashuvlariga bog‘liq ravishda ulardagi fazaviy o‘tishlarni o‘rganadi.

Bunda mikroskopik moddiy sistema parametrlari (gaz hajmi va bosimi, temperatura, sirt tarangligi va b.) bilan zarrachalar parametrlari (harakat tezligi, zarrachalar konsentratsiyasi, ular orasidagi ta’sir kuchlari va hokazo) orasidagi bog‘lanishlar aniqlanadi.

O‘rganilgan makrohodisalar va jarayonlar darhol molekulyar - kinetik jihatdan izohlanadi. Bunday o‘rganish natijasida fizik metodlarning mikroolamni o‘rganishdagi qudrati, mikroolamni o‘rganish, moddaning ichiga kirib borish imkoniyatlari aniqlanadi.

O‘quvchilar molekulyar-kinetik nazariyaga oid tushunchalar bilan dastlab 6-sinf kursida fizika sifat jihatdan tanishadilar. Molekulyar fizika statistik va termodinamik usullar asosida o‘rganiladi. O‘quvchilarga mavzuni tushuntirishda ushbu ikkala usuldan birdek foydalanishni talab qiladi.

Mexanikada hodisa, jarayon va qonuniyatlarning dastlabki shartlariga ko‘ra vaqt o‘tishi bilan qanday o‘zgarishini oldindan aytish mumkin bo‘ladi. Molekulyar-kinetik nazariyaning ikki sababga ko‘ra yondashuvi boshqacha hisoblanadi. Birinchidan, hech kim dastlabki sharoitlarni aniq bilmaydi, ya’ni, har bir molekulaning ma’lum vaqt momentidagi harakat turi va holatini aniqlab bo‘lmaydi. Ikkinchidan, hatto bunday ma’lumotlar mavjud bo‘lganda ham gaz juda ko‘p sonli zarrachalardan iborat bo‘lganligi tufayli keyingi holatni aniqlash imkonsiz.

Shuning uchun, alohida molekulalar harakatini tavsiflovchi fizik kattaliklarning aniq qiymatini o‘rganib bo‘lmaydi, faqatgina statistik tushunchalar asosida o‘rtacha tezlik yoki kichik bir vaqt oralig‘ida o‘rtacha bo‘lgan hajmli elementdagi molekulalarning energiyasi yoki bu molekulalar orasida chiziqli tezliklar va boshqa harakatlarning o‘rtacha taqsimotini aniqlash mumkin. Natijada, o‘quvchilar gazlar molekulyar-kinetik nazariyasini

oʻrganishda ehtimoliy-statistik tushunchalarning zarurligini anglab yetadi. Chunki, tajriba yoki hisoblashlarda moddani tavsiflovchi massa, tezlik, ichki energiya, temperatura, hajm, bosim, zichlik va boshqa fizik kattaliklarning “oʻrtacha” qiymati oʻlchanadi.

Oʻquvchi va talabalarning yosh-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda umumiy oʻrta ta’lim maktab va pedagogika oliy ta’lim muassasasi (OTM)lardagi “Molekulyar-kinetik nazariya asoslari” boʻlimiga tegishli mavzularning mavjud dasturlardagi holati va unga oʻz takliflarimizni keltiramiz (1-jadval).

*1-jadval.*

**Umumiy oʻrta ta’lim maktab va pedagogika oliy ta’lim muassasalarida “Molekulyar-kinetik nazariya asoslari” boʻlimini oʻqitishdagi izchillik**

| Umumiy oʻrta ta’lim maktab | Takliflar | Pedagogika oliy ta’lim muassasasi | Takliflar |
|---|---|---|---|
| Modda tuzilishining molekulyar-kinetik nazariyasi. Molekulalarning massasi va oʻlchami. Modda miqdori. Ideal gaz. Temperatura. Gaz molekulalarining harakat tezligi. Ideal gaz holatining tenglamasi. Izojarayonlar. Izotermik jarayon. Izobarik jarayon. Izoxorik jarayon. Molekulalarning oʻlchamini baholash. | Termodinamik va statistik metodlar haqida tushuncha. Amaliy ish: Galton taxtasida statistik qonuniyatlarni oʻrganish. Molekulalar-ning xaotik va issiqlik harakati. Temperatura-ning statistik talqini. | Molekulyar-kinetik nazariya asoslari. Molekulyar kinetik nazariyaning asosiy tenglamasi. Modda tuzilishini oʻrganishning ikki usuli. Molekulalarning oʻzaro ta’siri. Molekulalarning tezliklari. Ideal gaz. Gaz bosimi. Temperatura. Holat parametrlarini oʻlchash. Ideal gaz holat tenglamasi. Ideal gaz qonunlari. Broun harakati. Barometrik formula. Perren tajribasi. Bolsman qonuni. Ehtimollik haqida tushuncha. Taqsimot haqida tushuncha. Taqsimot funksiyasi. Molekulalarni tezliklar boʻyicha taqsimoti. Molekulalarning oʻrtacha tezligi. Ehtimoli eng katta tezlik. Nisbiy tezliklar uchun Maksvell formulasi. Taqsimot qonunini eksperimentda tekshirish. | Molekulyar sistemalarni oʻrganishda dinamik, termodinamik va statistik yondashuvlar. Ideal gazlarning statistik nazariyasi elementlari va tasodifiy oʻzgaruv chilarning tarqalish qonuniyatlari |

Molekulyar fizikani oʻrganish tabiatdagi juda kup hodisalarni tushunishda kalit rolini uynaydi. Molekulyar tasavvurlar asosida gaz, suyuqlik, qattiq jism va plazma holatidagi moddalarning turli fizik va kimyoviy xossalari oʻrganiladi. Molekulyar fizikaning asosiy gʻoyalari, prinsiplari, metodlari va natijalari faqatgina fizika fanida fundamental ahamiyatga ega boʻlib qolmasdan, ular

juda muhim bo‘lgan umumilmiy, metodologik ahamiyatga ham ega. Chunki ularning manbai bulib, molekulalarning real mavjudligi, ularning harakati va o‘zaro ta’siri, issiqlik harakatiga tegishli statistik qonuniyatlarning obyektivligi, materiya harakatining issiqlik va mexanik ko‘rinishlarini farq qilishi va boshqa tasavvurlar hisoblanadi.

Yuqori malakali fizika o‘qituvchilarini tayyorlash, ulardan, talabalik chog‘ida maktab fizika kursining ilmiy asosini, fizika fani bilan uning har xil bosqichlarda o‘qitish orasidagi izchillikni chuqur bilishni va tushunishni talab qiladi. Ammo, OTMlarida o‘qitish jarayonida bu masala hanuzgacha yuqori darajada hal qilinayapti deb bo‘lmaydi. Ko‘pchilik talabalar oliy ta’lim muassasasi fizika kursida olgan bilimlarini umumiy o‘rta maktablarida tatbiq qilishga qiynalishadi. Ularning fizik dunyoqarashida asosiy o‘rinni dinamik qonuniyatlar egallab, statistik qonuniyatlarga esa deyarli o‘rin qolmagan. Bunday kamchiliklarni yuzaga kelishiga sabab, pedagogika OTMlarida umumiy va nazariy fizika, fizika o‘qitish metodikasi kurslarini o‘qitishda didaktikaning muhim tamoyillaridan bo‘lgan-izchillik tamoyilini e’tiborga olmaslikdadir. Hozirgi zamon o‘qitish nazariyasi va amaliyoti talabalarning o‘qitishga bo‘lgan qiziqishlarini oshirishda didaktik tamoyillarga, jumladan izchillik tamoyiliga yondashishni taqozo qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Джораев М. Физика ўқитиш методикаси. – Т.: ABU MATBUOT-KONSALT, 2015 й. – 256 б.

2. Xujanov E.B. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida Maksvell tezliklar taqsimotini statistik metod asosida o‘qitish.– T.: Pedagogika, 2018/1. – B. 73-80.

3. Habibullayev P.Q., Boydedayev A., Bahromov A.D., Suyarov K.T., Usarov J.E., Yuldasheva M.K. Fizika, umumiy o’rta ta’lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik, T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. – 2019. – 176 b.

4. Xayriddinov B., Jo‘rayev Sh., Xolmirzayev N., Turumov E. Molekulyar fizika: o‘quv qo‘llanma / O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. -Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2013. - 264 b.

# UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA TARIX O'QITISHNING ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI

***N.MASHARIPOVA,***
*Xorazm viloyati Gurlan tumanidagi*
*1-maktab o'qituvchisi (mustaqil tadqiqotchi)*

*Bugun har qanday o'quv fani o'qitilishini, u ta'limning qaysi bosqichida bo'lishidan qat'i nazar, taqdimot texnologiyasi, elektron nusxa, elektron multimedia darsliklari, elektron ensiklopediya, universal test dasturi, elektron virtual kutubxona, internet tarmog'i va videomateriallarsiz tasavvur qilish qiyin. Maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablari va yo'nalishli litseylarda tarix o'qitish tizimini ta'limning zamonaviy texnologiyalari asosida tashkil etish borasida fikr yuritiladi.*

***Kalit so'zlar**: uzluksiz ta'lim tizimi, pedagogik texnologiya, ta'lim texnologiyalari, taqdimot texnologiyasi, elektron nusxa, elektron multimedia darsligi, elektron ensiklopediya, elektron virtual kutubxona, videomaterial, tarix ta'limi, maktab, yo'nalishli litsey.*

*Сегодня трудно представить преподавание какого-либо предмета сегодня, независимо от уровня образования, без технологий презентации, электронных копий, электронных мультимедийных учебников, электронной энциклопедии, универсальной тестовой программы, электронной виртуальной библиотеки, интернета и видеоматериалов. В статье рассматривается организация системы преподавания истории в общеобразовательных школах и специализированных лицеях на основе современных образовательных технологий. Общеизвестно, что сегодня студенты заинтересованы в ведении бизнеса с использованием компьютеров и интернета.*

***Ключевые слова**: система непрерывного образования, педагогические технологии, образовательные технологии, презентационные технологии, электронная копия, электронный мультимедийный учебник, электронная энциклопедия, электронная виртуальная библиотека, видеоматериал, историческое образование, школа, лицей направленного обучения.*

*The article discusses the organization of the history teaching system in secondary schools and specialized lyceums based on modern educational technologies. In the end, it is difficult to imagine teaching a subject today, regardless of educational level, without presentation technologies, electronic copies, electronic multimedia textbooks, an electronic encyclopedia, a universal test program, an electronic virtual library, the internet, and video materials.*

***Key words**: continuing education system, pedagogical technologies, educational technologies, presentation technologies, electronic copy, electronic multimedia textbook, electronic encyclopedia, electronic virtual library, video material, historical education, school, lyceum of directed learning*

Yangi tug‘ilgan g‘oya ta’limotga aylanishi uchun u tajriba-sinov, tanqid, muhokama bosqichlaridan o‘tgan, amaliyotda o‘zini oqlagan muhim yangilik bo‘lishi, turli mezonlarda o‘lchab ko‘rilishi shart. Inson o‘z ijtimoiy faoliyatida fikrni qabul qiluvchi tafakkur kuchiga tayanadi. Mustaqil fikrlay olmaydigan shaxs o‘z qarashlarini himoya qila bilmaydi. Innovatsion texnologiyalarni maktab va yo‘nalishli litseylarda tarix o‘qitish tizimiga tatbiq etish ta’lim samaradorligini oshirish, tezkorlik, mahsuldorlik va tejamkorlik imkoniyatini beradi. Tarixiy haqiqatlarning uzluksiz boyib borishi, har ikkala bosqich o‘quvchilarining intellektual rivojlanishi, ularning bilish kompetentliligi integrativ ta’lim usullarining o‘zlashtirilishiga bog‘liq bo‘lib qolmoqda.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari va yo‘nalishli litseylarda tarix o‘qitishni innovatsion texnologiyalar asosida tashkil qilish vositalari sirasiga o‘quv adabiyotlarining yangi avlodi: elektron dastur, elektron o‘quv qo‘llanmalar, elektron darsliklar, audio-video dasturlar, multimediali dasturlar, elektron nazorat testlarining kirib kelishi tarix ta’limi samaradorligini ta’minlashga xizmat qilmoqda.

Tinimsiz takomillashib, kengayib borayotgan axborot texnologiyalari, ma’lumotlarini jamlash, qiyoslash, tanlash va ulardan tezkor foydalanish vositasi hisoblangan shaxsiy kompyuter – dunyo tarixini bilishning ham tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Ayni paytda har ikkala yo‘nalish bo‘yicha tarix o‘qituvchilarini elektron o‘quv dasturlari, qo‘shimcha elektron o‘quv qo‘llanmalardan foydalanishga o‘rgatish bilan izchil shug‘ullanish davr talabiga aylandi. O‘quvchilarning tarixiy bilimlarini takomillashtirishni maqsad qilgan o‘qituvchining o‘zi kompyuterdan foydalanish texnikasini to‘liq egallagan bo‘lishi taqozo etiladi. Tarix ta’limi dts talablarida o‘quvchida tarixni bilish kompetentliligini shakllantirish va rivojlantirish bosh maqsad qilib belgilangan ekan, dars jarayonini nternetsiz, axborot texnologiyalarisiz, veb-sahifalarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi[2]. O‘quvchini ijodiy izlanish, internet, ziyonet saytlaridan zarur axborotni qidirish, kerakli fakt va dalillarni topish, undan tezkor foydalanishga o‘rgatish hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biri bo‘lib turibdi.

Zamonaviy dizayndagi animatsion audio-video dasturlarning maktab va litseylarda tarix o‘qitish amaliyotiga joriy etilishi yuqoridagi muammoning echimidir. U o‘quv materiali sahifasiga matn, grafika, rangli animatsiya, diksiya (ovozli o‘qish) kabi didaktik imkoniyatlarni kiritish orqali amalga oshiriladi va alohida elektron o‘quv dasturlari, elektron darsliklar sifatida taqdim etiladi. O‘quv materialini rangli chizmalar, xaritalar ko‘rinishida elektron slaydlar vositasida taqdim etish jarayonida idrok, xotira va tafakkur qo‘zg‘atilib, avval egallangan bilim, ko‘nikma va malakalar xotirada qayta tiklanadi. Elektron darsliklar asosida dars o‘tish, avvalo, o‘quvchiga qiziqarli bo‘ladi va yangi mavzuni o‘rganish, mustahkamlash jarayoni egallangan

bilimlarni bevosita sinab ko‘rish imkonini ham beradi.

Elektron darsliklardan foydalanishda zarur axborotni tezkor tanlash; bilimlarni shu zahoti tekshirib, taqqoslab ko‘rish, oddiy darslikda berish imkoni bo‘lmagan tarixiy hodisalarning audio va video tasvirlarini ko‘rish, eshitish, fikrlash, fikrni yozma ifodalash va tekshiruvchi iste’molchiga tezkor uzatish imkoniyatiga ham ega bo‘linadi.

Maktab va litseylarda tarix darslarini tashkil etishda kompyuterdan foydalanish orqali o‘quvchilar tarixiy manbalar, axborotlar zaxirasi bilan ta’minlanadi. Ma’lumotlarni obrazlar ko‘rinishida taqdim etish – o‘quvchining anglash, fikrlash va fikr ifodalash qobiliyatiga ijobiy ta’sir o‘tkazadi. Tarix va tarixiy shaxslar haqidagi ma’lumotlar matn ko‘rinishidagi ma’lumotlarga nisbatan qiziqarliligi, o‘quvchi diqqatini jamlash, mavzuni oson qabul qilinishiga yo‘nalish berishi bilan muhim didaktik ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, o‘quvchilarda mustaqil izlanish, zamonaviy texnika bilan erkin muloqot ko‘nikmalari shakllanadi. Kompyuter bilan muloqot tafakkur, idrok va xotirani o‘zaro uyg‘unlikda rivojlantiradi, elektron o‘quv dasturlari o‘quvchida bevosita tarixiy imkoniyatlarini o‘rganishga, ijobiy o‘quv motivlarining tug‘ilishi va shakllanishiga sharoit yaratadi.

Bulardan tashqari, tarix ta’limi jarayonida axborot kommunikativ texnologiyalaridan foydalanish quyidagi afzalliklarga ham ega:

1. Elektron o‘quv dasturlari maktab va litsey o‘quvchilarini o‘z-o‘zidan ta’lim jarayonining sub’ektiga aylantiradi. Dastur uni faol ishlashga, tez fikrlashga, fikrni aniq va qisqa ifodalashga majbur qiladi.

2. Dasturlashtirilgan o‘quv qo‘llanmalari, grammatik slaydlar, psixolingvistik o‘quv topshiriqlari tizimidan ta’lim jarayonida unumli foydalanish, o‘quvchida mantiqiy mushohada yuritish ko‘nikmasini hosil qiladi.

3. Tarix darslarida fanlararo aloqadorlik yo‘lga qo‘yiladi.

4. Maktab va litseylarda tarix ta’limi jarayonida elektron dasturlar bilan ishlashda o‘quvchilar turli xildagi muammoli topshiriqlarni bajarish, muammolarning ixcham echimlarini topish va javob topish imkoniyatlariga ega bo‘ladi.

5. Internet orqali elektron pochtaga kirish, axborot olish, javob matnini audio-video axborot manbalari bilan boyitishga qulay imkoniyat ochiladi.

6. Kompyuter dasturi bilan muloqot, asosan, o‘yin tarzida kechishi, qiziqarliligi o‘quvchida tarixiy haqiqatlarni erkin izlash ko‘nikmalarini ham shakllantiradi. Unda jadal fikrlash, nutqiy malakani takomillashtirishga zarurat va o‘z bilimiga ishonch hissi ortadi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari 5–9-sinflari va yo‘nalishli litseylar 1–2-bosqichining tarix darslarida quyidagi bir qator axborot kommunikativ

texnologilardan unumli foydalanish tavsiya etiladi:

*taqdimot texnologiyasi* – dars jarayonida kompyuterdan foydalanishning hozirgi sharoitga ko‘ra eng qulay usulidir. Buning uchun o‘qituvchiga bitta protsessor, katta ekran va videoproektor kerak bo‘ladi. O‘qituvchi ms power point kompyuter dasturida iqtidorli o‘quvchilar yordamida tarixiy slaydlar yaratadi, o‘quvchilar bilan birgalikda slaydni og‘zaki sharhlash, mavzuga oid test savollari tuzish bilan shug‘ullanadi.

Elek*tron multimedia darsligi* – tarix o‘quv fanini aynan kompyuter vositasida, o‘qituvchi yordamida yoki mustaqil o‘zlashtirishni ta’minlovchi didaktik ishlanmalar kompleksi bo‘lib, undan tarixiy hodisa bo‘yicha zahira manbalar hosil qilish, rasmli reklamalar yaratishda foydalaniladi.

*Universal test dasturi* – har ikkala yo‘nalishda tarix darslarining biror yirik bo‘limi bo‘yicha test topshiriqlari va reyting tizimidan iborat bo‘lgan kompyuter dasturidir. Uning qulayligi shundaki, birgina dasturiy ta’minot asosida turli xil test sinovlarini o‘tkazish mumkin.

*Elektron virtual kutubxona* – multimedia xonasining keng imkoniyatlaridan yana biri, elektron nusxa yoki elektron multimedia darsliklari, jamlangan, ichki tarmoqqa ulangan kutubxona. Undan o‘quvchi tarixiy bilimlarini boyitish, milliy tarixiy va madaniy merosimizni o‘rganishda foydalanadi.

*Internet tarmog‘i*dan mustaqil ta’lim jarayonida ma’lumotlar to‘plash, mavzularni o‘zlashtirish, berilgan mavzuda referat, esse va boshqalarda foydalanish mumkin.

*Videomateriallar*dan maktab va yo‘nalishli litsey o‘quvchilari tarixiy bilimlarini boyitishda samarali foydalanish mumkin va hk[2].

Xulosa qilib aytganda, elektron o‘quv qo‘llanmalari nazariy yondashuvga asoslangan bo‘lib, ular, asosan, mustaqil ta’limga yo‘l ochadi. Maktab va yo‘nalishli litseylar o‘quvchilariga ko‘rish, eshitish, anglash, fikr ifodalash, tarixiy mavzularga oid elektron slaydlar yaratish singari kompetensiyalarni egallash imkonini beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Adilova S. O‘zbek tilini o‘qitishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish. Monografiya. – t.: 2006.

2. Xodjaev B. X. Umumta’lim maktabi o‘quvchilarida tarixiy tafakkurni modernizatsiyalashgan didaktik ta’minot vositasida rivojlanirish. Dokt. Diss. Avtoreferati. –t., 2016.

3. Po‘latov A., Muhamedova S. Kompyuter lingvistikasi. – t.: fan va texnologiyalar markazi bosmaxonasi, 2009.

# ПОДГОТОВКА НАУЧНЫХ И НАУЧНО-ПЕДАГОГИЧЕСКИХ КАДРОВ В СИСТЕМЕ НЕПРЕРЫВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ. ЧАСТЬ 1: ПРОБЛЕМЫ И ПОДХОДЫ К РЕШЕНИЮ

**Р.Х.ДЖУРАЕВ,**
*УзНИИПН, д.п.н., академик*
**А.Х.МАХМУДОВ**
*УзНИИПН, д.п.н.*

*Олий малакали илмий ва илмий-педагог кадрларни тайёрлаш маҳаллий тизимининг мазмунини критик таҳлили келтирилган. ОТМ ва ИТИ муассасаларда тадқиқотчиларни фаолиятини мониторинг қилиш тизимидаги муаммолар еритиб берилган.*

***Калит сўзлар***. *Олий ўқув юртидан кейинги таълим, тадқиқотчи, кредит, таълим сифати, мониторинг, узлуксиз таълим, диссертация, фаол фаолият, мотивация, психолог-педагогик механизмлар.*

*Приводится критический анализ содержания отечественной подготовки научных и научно-педагогических кадров высшей квалификации. Раскрываются проблемы системы мониторинга эффективности деятельности соискателей в ВОУ и НИИ.*

***Ключевые слова***. *Послевузовское образование, соискатель, кредит, качество образования, мониторинг, непрерывное образование, диссертация, активная деятельность, мотивация, психолого-педагогические механизмы.*

*A critical analysis of the content of the national training of scientific and scientific-pedagogical personnel of higher qualification is given. The problems of the system of monitoring the performance of applicants in the INSTITUTE and research institutes are revealed.*

***Key word***. *Postgraduate education, applicant, credit, quality of education, monitoring, continuing education, dissertation, active activity, motivation, psychological and pedagogical mechanisms.*

**Актуальность проблемы**. Указ Президента Республики Узбекистан «О дальнейшем совершенствовании системы послевузовского образования» №УП-4958 от 16.02.2017 года направлен на кардинальное повышение качества и эффективности системы подготовки и аттестации научных и научно-педагогических кадров высшей квалификации, дальнейшего совершенствования сферы послевузовского образования, расширения возможностей для всесторонней реализации интеллектуального потенциала молодежи в научно-исследовательской деятельности[1].

В рамках решения поставленных задач, прежде всего, следует определить её основную цель – подготовку научных и научно-педагогических кадров: «…*послевузовское образование — вид непрерывного образования, направленный на обеспечение потребностей общества в научных и научно-педагогических кадрах высшей квалификации*»[2]. В этом отношении послевузовскую подготовку следует рассматривать не как форму повышения научной квалификации(или подготовку диссертаций), а как образовательную ступень(углубленная теоретическая и практическая подготовка, преемственную предшествующим ступеням высшего образования), формирующую необходимую компетентность научного сотрудника. В структуре данной компетентности можно выделить следующие основные компоненты: научно-исследовательский, педагогический, профессиональный по базовой специальности, духовно-нравственный, инновационный.

**Состояние проблемы**. Анализ системы послевузовского образования в отечественных высших образовательных учреждениях(ВОУ) и научно-исследовательских институтах(НИИ), показывает, что процесс обучения в докторантуре во многом ориентирован на самостоятельную, сознательную, ответственную деятельность самого соискателя. Эффективность такой деятельности и соответственно качество прохождения обучения в институте послевузовского образования(становление соискателя как молодого ученого) во многом зависит от личностных качеств докторанта, в частности от степени его самоорганизации, самостоятельности, самооценки, саморазвития и т.д. Как показывает практика у многих соискателей именно эти качества в недостаточной степени развиты в предшествующими ступеням образования. Естественно, если качество обучение в докторантуре зависит в основном от самостоятельной научно-исследовательской деятельностью соискателя, не трудно предположить, что при нынешних условиях результаты подготовки научных и научно-педагогических кадров не может удовлетворять повышенным требованиям общества и государства.

Мы понимаем, что институт послевузовского образования предполагает индивидуальное обучение и построен на принципах самостоятельной научно-исследовательской деятельности соискателей: «…*докторанты и самостоятельные соискатели проходят обучения согласно индивидуальному плану, утвержденному решением Коллегиального органа*», а также «… *В целях обеспечения качественной подготовки научных и научно-педагогических кадров высшей квалификации, а также оказания им необходимой научной и учебно-методической помощи в проведении диссертационных исследований решением Коллегиального органа:соискателям уче-*

*ной степени доктора философии (PhD) назначаются научные руководители, а соискателям ученой степени доктора наук (DSc) назначаются научные консультанты»*[2].Это означает, что научный руководитель(консультант) обеспечивает планирование и организацию работы соискателя,-мотивацию и стимулирование этой работы,координацию и контроль. Это в свою очередь требует высокий научный, организационный и педагогический уровень компетентностиу научного руководителя(консультанта).

Отметим, что в «Положении о послевузовском образовании»[2] указаны достаточно четкие критерии определения эффективности деятельности соискателей в ВОУ и НИИ. Однако практический механизм реализаций данного мониторинга содержит ряд не решенных проблем, что не позволяет на высоком качественном уровне достичь поставленных целей. Во-первых, мониторинг эффективности деятельности докторантов реализуется в большей степени в количественной характеристике, который(мониторинг) не учитывает качественные составляющие формирования личности ученого и качество диссертации. Во-вторых мониторинг не ведется непрерывно, а реализуется по результатам учебного года, что не способствует непрерывному повышению компетентности научного сотрудника в период всего обучения. В третьих, как показывает практика, большинство соискателей активизируются только в период мониторинга.

**Предлагаемое решение проблемы.** Мы полагаем, что вышеуказанные проблемы вытекают из-за непроработанности мотивационных и психолого-педагогических механизмов в системе мониторинга. Отсутствие этих механизмов не способствует активизации самостоятельной деятельности соискателей на весь период обучения в системе послевузовского образования.

Следовательно, в существующую систему мониторинга необходимо ввести мотивирующие психолого-педагогические механизмыс применением информационных технологий. Таким мотивирующим механизмом может быть кредитная система прохождения обучения, которая эффективно применяется в сфере образования многих передовых странах мира. Дальнейшее развитие Болонского процесса и переход кредитно-модульной системы на третий уровень обучения — аспирантуру — представляет собой динамическое продолжение первых двух уровней (бакалавриата и магистратуры)и учет специфики специальностей, подготовка по которым на 90% состоит из экспериментально-практической составляющей.[3, 4,].

Таким образом, эффективная система мониторинга должна быть реализована на основе интеграции инновационных (кредитно-модульной) и цифровых технологий.

Отметим, что предлагаемая система мониторинга разработана с учетом и в соответствии всех положений ПостановленияКабинета Министров Республики Узбекистан №304 от 22 мая 2017 г. *«О мерах по дальнейшему совершенствованию системы послевузовского образования»*[2].

Структура кредитно-модульного мониторинга эффективности деятельности соискателей (КММЭДС) состоит из следующих подсистем(рис.1.):

- подсистема приёма претендентов на обучение в институт послевузовского образования(ППП);

- подсистема прохождение обучения соискателей в институте послевузовского образования(ППО);

-подсистема аттестации выпускника института послевузовского образования(ПАВ);

- подсистема информационного обеспечения(базы) системы мониторинга(ПИБ);

- подсистема диагностики эффективности деятельности соискателя(П-ДЭ);

- подсистема отчетности и связи с вышестоящими органами власти(-ПОС).




Рис.1. Система мониторинга эффективности деятельности соискателей в ВОУ и НИИ

Раскрытию цели, сущности и содержанию каждой подсистемы, а также функционированию системы в целом будет посвящен следующая часть наших исследований(Подготовка научных и научно-педагогических кадров в системе непрерывного образования.Часть 2: Методы решения и выводы).

Выводы:

1. Процесс обучения в докторантуре во многом ориентирован на самостоятельную, сознательную, ответственную деятельность самого соискателя. Однако, у многих соискателей именно эти качества в недостаточной степени развиты в предшествующими ступеням образования.

2. В директивных документах даны достаточно четкие критерии определения эффективности деятельности соискателей в ВОУ и НИИ. Однако практический механизм реализаций данного мониторинга содержит ряд не решенных проблем, состоящий в том, что в существующей системе мониторинга не заложены психолого-педагогические механизмы мотивации и активизации соискателей, а также не используются возможности информационных технологий.

3. Эффективная система мониторинга должна быть реализована на основе интеграции кредитно-модульной и цифровых технологий.

4. Раскрытие психолого-педагогических механизмов мотивации и активизации деятельности соискателей требует глубоких научно-педагогических и психологических исследований.

**Использованная литература:**


1. Указ Президента Республики Узбекистан от 16 февраля 2017 года №УП-4958 «О дальнейшем совершенствовании системы послевузовского образования». Собрание законодательства Республики Узбекистан, 2017 г., № 8, ст. 106.

2. ПостановленияКабинета Министров Республики Узбекистан №304 от 22 мая 2017 г. «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы послевузовского образования». Собрание законодательства Республики Узбекистан, 2017 г., № 21, ст. 396; Национальная база данных законодательства, 09.11.2017 г., № 09/17/898/0234, 15.02.2018 г., № 09/18/109/0699, 12.10.2019 г., № 09/19/864/3902.

3. Б.И. Бедный, А.А. Миронос, Т.В. Серова. Методика оценки эффективности подготовки научных кадров в аспирантуре. -Вестник Нижегородского университета им. Н.И. Лобачевского, 2010, № 5 (1), с. 11–19.

4. Чистохвалов В.Н. Проблемы введения системы зачетных единиц (кредитов) в российскую систему высшего профессионального образования в условиях его модернизации //Актуальные проблемы образования в условиях его модернизации: Матер. Международной научной конференции. — М.: МАНПО, 2007.

# ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

***Н.М.ЭГАМБЕРДИЕВА,***
*профессор УзНИИПН, д.п.н.*

*Maqolada pedagoglarning sifatli ta'lim xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish vazifalari doirasida talabalar – bo'lajak o'qituvchilarning iqtisodiy madaniyatini shakllantirishning pedagogik tizimi ochib berilgan. Kognitiv va amaliy sohalarda iqtisodiy madaniyatni muvaffaqiyatli shakllantirishning pedagogik shartlari belgilandi: individual yondashuv, mustaqillikni rivojlantirish, kasb bilan aloqa qilish, amaliy yo'naltirilgan va ijodiy biznes texnologiyalarini qo'llash, yutuqlar darajasini doimiy monitoring qilish.*

***Tayanch so'z va iborakar**: iqtisodiy madaniyat, talabalar, diagnostika, tarkibiy qismlar, mezonlar, tadbirkorlik faoliyati, xususiy o'quv loyihalari, usullari, texnologiyalari.*

*В статье раскрывается педагогическая система формирования экономической культуры студентов – будущих учителей в контексте задач развития частной предпринимательской деятельности педагогов по оказанию качественных образовательных услуг. Обозначены педагогические условия успешного формирования экономической культуры в когнитивной и практической сферах: индивидуальный подход, развитие самостоятельности, связь с профессией, применение практико-ориентированных и творческих бизнес-технологий, постоянный мониторинг уровня достижений.*

***Ключевые слова:** экономическая культура, студенты, диагностика, компоненты, критерии, предпринимательская деятельность, частные образовательные проекты, методы, технологии.*

*The article reveals the pedagogical system of forming the economic culture of students – future teachers in the context of the development of private business activities of teachers to provide quality educational services. Pedagogical conditions for the successful formation of economic culture in the cognitive and practical spheres are outlined: individual approach, development of independence, connection with the profession, the use of practice-oriented and creative business technologies, constant monitoring of the level of achievements.*

***Key words**: economic culture, students, diagnostics, components, criteria, entrepreneurial activity, private educational projects, methods, technologies.*

В вузах Узбекистана проводится комплекс мероприятий по внедрению в учебный процесс новых педагогических технологий, основ развития у студентов навыков критического мышления и использование интерактивных методов обучения, обеспечение широкого профиля подготовки, включающем не только собственно специальную, связанную непосредственно с профессией, но и экономическую.

В Указе Президента Республики Узбекистан № УП-5106 от 5 июля 2017 года «О мерах по повышению эффективности государственной молодежной политики и поддержке деятельности Союза молодежи Узбекистана» от 05.07.2017 ставится акцент на необходимость обеспечения условий для подготовки специалистов с высшим образованием на уровне международных стандартов, что подразумевает ориентацию на запросы и приоритетные направления социально-экономического развития страны [1]. В связи с этим ставится задача привлечения высших образовательных учреждений к широкому обсуждению проектов, нормативно-правовых актов и программ ускоренного развития регионов, отраслей экономики и социальных сфер. Планируется усилить деятельность государства по созданию условий для занятия предпринимательской деятельностью среди молодежи, развития ее деловых способностей, участия в малом бизнесе и частном предпринимательстве, что приводит к выводу о необходимости овладения студентами экономическими знаниями и навыками, формирования их экономической культуры.

Неизменность курса на модернизацию образования в Узбекистане, предоставляет выпускникам вузов значительную степень экономической свободы личности, что открывает возможности для широкого развития индивидуально-предпринимательской, личностно-организационной, акционерно-трудовой и иной экономической деятельности. Поэтому в настоящее время конкурентоспособность на рынке труда обеспечивается широким профилем подготовки, включающем не только собственно специальную, связанную непосредственно с профессией, но и экономическую. Процесс перехода к регулируемой социально-рыночной экономике существенным образом изменил требования, предъявляемые к профессиональной подготовке современных специалистов **различных** уровней. Глубокие социально-экономические изменения в Узбекистане, переход к рыночной экономике ставят перед обществом важную педагогическую проблему — сформировать экономическую культуру молодого человека, которая будет способствовать осуществлению эффективной экономической деятельности и позволит оценивать данную деятельность с позиции не только экономической целесообразности, но и нравственной ценности.

Сложность задачи выработки и внедрения эффективных методов и технологий формирования экономической культуры объясняется отсутствием единого взгляда на ее сущность, т.е. на ее определение как базового понятия экономического образования и воспитания.

М. В. Владыка считает, что экономическая культура представляет собой целостное личностное образование, характеризующееся высоким уровнем овладения экономическими знаниями и умениями; сформированным социально-ценностным отношением к экономике, ее предметам, средствам и результатам; развитыми качествами личности, позволяющими ей наибо-

лее полно реализовать себя в познавательной и социально-ориентированной экономической деятельности [2]..

Мы определяем **экономическую культуру** учителя как совокупность экономически-правовых и экономически- социальных знаний, позволяющих индивиду ориентироваться и совершать экономически целесообразные действия в соответствии с условиями современного общества и особенностями своей профессии.

Следующим важным шагом исследования формирования экономической культуры учителей является определение ее критериев, с помощью которых возможно получить достоверную информацию о действенности применяемых методик и технологий.

Особое внимание при организации процесса формирования экономической культуры студентов было обращено на констатирующий этап эксперимента, так как его данные служат ориентиром для дальнейшего научного поиска и являются базой формирования структуры и содержания практической части исследования.

Для проведения эксперимента был составлен план-алгоритм по исследованию процесса формирования экономической культуры студентов базовых вузов. Работа проводилась в такой последовательности:

– определение и анализ исходного уровня сформированности экономической культуры студентов в экспериментальной и контрольной группах;

– установление причин в случае несоответствия знаний студентов используемых критериям;

– разработка содержания формирующего эксперимента;

– обоснование методов и технологий, используемых в ходе их апробации и внедрения в вузовскую практику;

– оформление педагогической модели;

- реализация разработанной программы формирования экономической культуры в экспериментальных группах;

– сравнение результатов экспериментальной работы, полученных в экспериментальной и контрольной группах;

– корректировка модели в зависимости от результатов;

– формулирование педагогических условий развития экономических знаний и навыков будущих учителей начальных классов.

Анализ современного состояния экономического образования в педагогических вузах республики позволил выявить следующие недостатки:

– недостаточная разработка теории экономического воспитания и образования, формирования экономических и предпринимательских навыков студентов в соответствии с новыми экономическими условиями;

– нечеткость и недостаточность осмысления целей его реализации в

высших учебных заведениях неэкономического (в том числе педагогического)профиля, отсутствие связи с конкретной профессионализацией будущих учителей;

– преимущественно теоретический характер преподавания экономики в вузах;

– недостаточное методическое и технологическое обеспечение изучаемых курсов;

– отсутствие методической литературы практико-ориентированной направленности по экономической подготовке студентов, разработанной в соответствии с новыми социально-экономическими условиями;

– низкий уровень экономических знаний у студентов;

– формальный подход к изучению экономических вопросов;

– пассивная позиция большей части слушателей на лекциях и семинарских занятиях;

– низкая или неустойчивая мотивация к экономическому образованию и экономической деятельности.

Задача преподавателей заключается в том, чтобы направить интеллектуальные усилия студентов в те области экономики, которые в наибольшей степени отвечают специфическим потребностям их будущей профессии [3,4].

Экономическая, а точнее, предпринимательская деятельность в сфере образования является в настоящее время востребованным видом услуг – сюда относятся частное репетиторство и современный менеджмент высокоорганизованных учебных заведений, дистанционное образование, создание частных образовательно-воспитательных, просветительских учреждений.

Эффективным методом можно назвать **метод учебных конкретных ситуаций (УКС).** Этот метод позволяет моделировать экономическую ситуацию, т.е. набор ситуации, когда выбор какого-либо из данных решений влияет на конечный результат.

Данный метод разрабатывался в разных вариантах и формах учебно-развивающей работы студентов – тренингов, ролевых игр на экономическую тематику, практических упражнений, соревнований и конкурсов по переговорам, продвижению проектов (услуг) на рынок, командной работы с опорой на партнерские взаимоотношения обучающих и обучаемых. Перечисленные методы были нацелены на прочное усвоение и достижение свободной ориентации студентов в деятельности маркетинговых структур, в составлении бизнес-планов, грамотного ведения бизнеса в правовом, социальном и этическом плане.

Tajriba-sinov vaqtida olingan sonli ma'lumotlar solishtirilib, umumlashtirildi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligini tekshirish maqsadida St'yudent-Fisher kriteriyasi asosida matematik-statistik tahlil qilindi. Tahlil natijalariga ko'ra, tajriba guruhining ko'rsatkichi nazorat guruhinikiga nisbatan 10,7 % ga oshganligi aniqlandi.

Xulosa qilib aytganda, umumta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlardageografiya ta'limi jarayoniga axborot texnologiyalari vositalarini keng ko'lamda joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunning natijasida, o'quvchi-yoshlarning geografiya faniga bo'lgan qiziqishi oshadi hamda tafakkuri rivojlanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Lutfillayev M.H. Oliy ta'lim o'quv jarayonini takomillashtirishda axborot texnologiyalarini integratsiyalash nazariyasi va amaliyoti (Informatika va tabiiy fanlar misolida) // Pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. –Toshkent, 2007. – 246 b.

2. Xamroyeva F.A. Oliy ta'lim muassasalarida tabiiy geografik fanlarni o'qitish metodikasini mediatexnologiyalar asosida takomillashtirish // Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2020. – 43 b.

3. Nikadambayeva H.B. «O'zbekiston tabiiy geografiyasi» fanini o'qitishda komp'yuter texnologiyalaridan foydalanish metodikasi (oliy ta'lim misolida) / / Pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2012. – 223 b.

# “ORGANIK KIMYO” FANINI O‘QITISHDA MASOFAVIY TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH
## (oliy ta’lim muassasalari misolida)

***A.Y.ISKANDAROV,***
*TDPU dotsent,*
***I.E.SHERNAZAROV,***
*TDPU p.f.f.d (PhD)*

*Maqolada “Organik kimyo” fanini o‘qitishda axborot kommunikatsiya va masofaviy ta’lim texnologiyalar integratsiyasidan foydalanish metodikasini takomillashtirish tushuntirilgan. Maqolada axborot va masofaviy ta’lim, integratsiya, integratsiyalashgan ta’lim ma’nosi va ularni mazmuni yoritilgan.*
***Kalit so‘zlar:*** *axborot texnologiya, masofaviy ta’lim, kommunikatsiya, integratsiya, integratsiyalashgan ta’lim, kommutatsiya, animatsiyalar.*

*В данной статье раскрыты вопросы совершенствования методики интегрированного использования информационно-коммуникационных технологий и дистанционного обучения в преподавании предмета “Органическая химия”. В статье освещены сущность и содержание таких понятий как информационные технологии и дистанционное обучение, интеграция, интегрированное обучение.*
***Ключевые слова:*** *информационная технология, дистанционное обучение, коммуникация, интеграция, интегрированное обучение, коммутация, анимация.*

*This article reveals the issues of improving the methodology of the integrated use of information and communication technologies and distance learning in the teaching of the subject «Organic Chemistry». The article highlights the essence and content of such concepts as information technology and distance learning, integration, integrated learning.*
***Key words****: information technology, distance learning, communication, integration, integrated learning, switching, animation.*

Bugungi kunda respublikamiz hayotida siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy o‘zgarishlar bo‘lmoqda. Bu o‘zgarishlar, jamiyatni yuqori malakali, mustahkam va chuqur bilimli, o‘z ustida ishlaydigan qobiliyatli kadrlarga bo‘lgan talabiga mos ravishda o‘tkaziladigan kasbiy ta’limning tabiiy jarayoniga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmoqda. Hozirgi kunda yangi o‘sib kelayotgan avlodni o‘qitishda ilg‘or pedagogik texnologiyalarni dars jarayonlariga tatbiq qilish keskin rivojlanmoqda.

2017 yil 7 fevraldagi PQ-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni[1], 2017

yil 29 avgustda PQ-3245-sonli “Axborot-kommunikasiya texnologiyalari sohasida loyihalarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 fevraldagi «Axborot texnologiyalari va kommunikasiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-5349-son Farmoni, 2020 yil 12 avgustda PQ-4805-sonli “Kimyo va biologiya yo‘nalishlarida uzluksiz ta’lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qaroriga ko‘ra zamonaviy axborot texnologiyasi yordamida “Organik kimyo” fanidagi kimyoviy reaksiyalar mexanizmlarni “jonli” namoyish qilish imkoniyati bo‘lgan bir paytda kompyuter yordamida mavzuga oid animasiya yaratib, uni darsda joriy etilsa, dars samaradorligining oshishiga katta ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Masalan: oliy ta’lim muassasalarida “Organik kimyo” fanidagi reaksiya mexanizmlarining kompyuter animasiyalarini ishlab chiqish, “Organik kimyo” fanidagi laboratoriya jarayonlarining kompyuter animasiyalarini ishlab chiqish, axborot-kommunikasiya va pedagogik texnologiyalar asosida talabalarning mustaqil ishlashini ta’minlaydigan, ularning faoliyati va bilimining uzluksiz o‘zi tomonidan nazorat qilib borilishiga imkon beradigan, talaba vaqtini tejaydigan, mashg‘ulot samarasini oshiradigan o‘quv-metodik majmualar yaratish va undan foydalanish metodikasini ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etish va o‘quv jarayoniga joriy etishdan iborat.

O‘quv jarayonida “Organik kimyo” fanidan elektron o‘quv qo‘llanma yaratilib bunda laboratoriya jarayonlarining ovozli video namoyishlari yaratish, talaba vaqtini tejaydigan, mashg‘ulot samarasini oshiradigan o‘quv-metodik majmua yaratilib, ulardan foydalanish metodikasi hamda organik moddalar tarkibidagi kimyoviy bog‘lar sonini topish formulalari va shu formulalar yordamida organik moddalarning fazoviy ko‘rinishlarini aniqlash metodikasi ishlab chiqish kerak.

“Organik kimyo” fanidagi laboratoriya jarayonlarini axborot texnologiyalar yordamida bajarishning avzallik tomonlari quyidagilardan iborat:

– talabalarning o‘quv faoliyatiga qiziqishi ortadi;

– o‘quv axborotlarini qabul qilish, to‘plash, uzatish, xotiraga olish va qayta ishlash ishlarini boshqarish imkoniyatlari tug‘iladi;

– talabalarda mustaqil fikrlash ko‘nikmalari shakllanib, ta’limning keyingi bosqichlarida ularda axborot texnologiyalarini qo‘llash ehtiyoji kuchayadi;

– axborot texnologiyalari yordamida amaliy ishlarni tekshirib ko‘rish,

boshqacha aytganda, “teskari aloqa”ni tez va aniq amalga oshirish imkoni tug‘iladi, masala yechish yo‘llari kengayadi, ishlarni umumlashtirish ko‘nikmalari shakllanadi;

– laboratoriya jarayonini mutloqo xavfsiz ekanligi;

– laboratoriya jarayonlarini rangli tasvirda yaqqol ko‘rish mumkinligi;

– laboratoriya tajribasini takroran ko‘rib to‘liq tushunish mumkinligi;

– talabalarda o‘zlari laboratoriya jarayonlarini animatsion shaklini yaratishlari uchun asosiy tushunchalar bo‘lib xizmat qiladi;

– talaba tajribani to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri bajarayotganligi va uni oqibatlarini ko‘rib tasavvur qilishi to‘liq ta’minlanganligini bilan izohlash mumkin.

An’anaviy usulda laboratoriya jarayonlarini bajarish uchun talabalar laboratoriya matni o‘rganish bilan birga bajarilish tartibini nazariy o‘rgangan bo‘lishlari shart.

Axborot texnologiyalar yordamida laboratoriya jarayonlarini bajarishda oldindan tayyorlangan animasiyalar orqali talabalarga tushuntiriladi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarga yangicha yondashishlar asosida, bilim, malaka va ko‘nikmalarini shakllantirish bilan bog‘liq o‘quv jarayonini tashkil etib, ta’limni yangi sifat bosqichiga ko‘tarish imkonini berishi mumkin bo‘lgan texnologiyadir.

Ta’lim tizimining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari quyidagi asosiy funksiyalar va talablarni bajaradi:

ta’lim oluvchilar va ularning axborot muhitidan foydalanish faoliyatlarini qayd etish;

ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchilarning faoliyatini maslahat yo‘li bilan qo‘llab-quvvatlashni hisobga olish;

ta’lim oluvchilarga zaruriy o‘quv materiallarini mustaqil o‘zlashtirish uchun tavsiya qilish;

o‘quv jarayonida, ta’lim oluvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarning test yordamida, shuningdek, og‘zaki va yozma usuldagi nazoratini tashkil qilish;

axborot bazasida ta’lim oluvchilarga tavsiya qilingan o‘quv materiallaridan, qo‘shimcha adabiyot va boshqa vositalardan foydalanishi uchun o‘quv muassasasi axborot resurslaridan masofadan turib foydalanish imkonini yaratish;

virtual laboratoriya mashg‘ulotlari va amaliy topshiriqlarni bajarishda

masofadan turib ta'lim muassasasi xodimlarining maslahati va boshqa yordamlarini uyushtirish va hokazo.

Integratsiyalashgan texnologiyalar asosida tashkil etiladigan masofaviy o'quv jarayonida o'quv predmetlarining asosiy mazmuni quyidagi o'quv-uslubiy materiallardan iborat bo'ladi:

elektron o'quv-uslubiy majmualar;

o'zini o'zi nazorat qilish uchun test dasturlari va savollar majmuasi;

virtual laboratoriya ishlari va ularning tavsifi;

mustaqil ishlar va nazorat ishlari;

hisoblash dasturlari, elektron ma'lumotnomalar, elektron ilovalar;

qo'shimcha dasturiy ta'minotlar.

Integratsiyalashgan texnologiyalarning qo'llanilishi natijasida o'quv mashg'ulotlari masofadan turib tarmoq texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalangan holda tashkil etishga olib keladi. Bu esa masofali o'qitishni tashkil etishning asosidir [4].

Masofali o'qitishda tarmoq texnologiyalarining asosiy vazifasi o'quv jarayonida o'qituvchi va talaba orasidagi muloqotni ta'minlashdan iborat. O'qituvchi va talabalar orasidagi doimiy muloqotsiz tashkil qilingan o'quv jarayoni ko'zlangan samarani bermaydi. Ta'lim tizimining kunduzgi shaklida o'qituvchi va talaba orasidagi muloqot bir vaqt, bir joyda o'quv auditoriyasida amalga oshiriladi. Masofali o'qitishda esa bu jarayon telekommunikatsion vositalar asosida kompyuterning tarmoq texnologiyalari orqali amalga oshiriladi [5].

"Organik kimyo" fanida internet ma'lumotlaridan foydalanish, talabalarni guruhda o'z fikrlarini bayon qilishga, mustaqil fikrlashga va ishlashga, topqirlikka, hozirjavoblikka o'rgatadi. Ularning "Organik kimyo" faniga bo'lgan qiziqishini oshiradi, o'quvchilarni faollikka undaydi. Shuning uchun "Organik kimyo" fanini o'qitish jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etish va uni takomillashtirish masalasini har jihatdan tahlil qilib yoritish maqsad qilib olinadi.

Axborot kommunikatsion texnologiyalar (AKT) qo'llanilishi "Organik kimyo" fanini o'qitish uchun yangi istiqbollar va samarali o'qitish imkoniyatlarini ochadi. Shu bilan bir qatorda mustaqil ravishda o'qish qobiliyatini rivojlantirish axborot texnologiyalari bilan ishlashda muayyan savodga yo'naltirib buning o'zi o'quvchilarning intellektual rivojlanishi uchun zarur sharoitdir. "Organik kimyo" darslarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan foydalanish, internet resurslarini qo'llash orqali uy vazifalarni masofadan turib o'qituvchi tomonidan berilishi va o'quvchi tomonidan bajarilgan vazifalarni tekshirish mumkin. AKT o'quv

materiallarini o‘zlashtirishni nazorat qilishning eng qulay usulidir [5].

Yuqoridagi keltirilgan “Organik kimyo” fanidagi mavzularni zamonaviy axborot kommunikatsiyasi asosida tushuntirish oliy ta’lim muassasalari talabalari uchun pandemiya vaqtida juda samarali deb hisoblayman. Yuqorida keltirilgan ma’lumotlar asosida Toshkent davlat pedagogik univesiteti kimyo o’qitish metodikasi yo’nalishi talabalariga dars o‘tilganda samaradorlik oshganligini ko‘rishimiz mumkin. Talabalar organik moddalarni fazoviy harakat modelini va laboratoriya jarayonlarini audeovizual va rangli tasvir orqali namoyish qilinganligi sababli mavzuni yaxshi o‘zlashtirishdi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy talab darajasida o‘quv jarayonini tashkil etish, ta’lim mazmunlarini umumlashtirish va to‘ldirishda zamonaviy axborot texnologiyalari alohida ahamiyat kasb etib, ko‘zlangan maqsadga erishishni kafolatlashga yordam beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son Farmoni. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida / O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.

2. 2020 yil 12 avgustda PQ-4805-sonli “Kimyo va biologiya yo‘nalishlarida uzluksiz ta’lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori / Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 13.08.2020-y., 07/20/4805/1174-son.

3. The role of ICT in realising education for all by 2030 Achieving Sustainable Development Goal 4.–p. 1-46. http://www.csr-asia. com/ download/ ICT4SDG4-Final-Version.pdf.

4. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari.: -Toshkent. Fan, 2007. –B.164.

5. Боровский Т.А. Индивидуализация обучения химии на основе современных образователных технологий// - Москва. МГУ. Виртуальная галерея, 2011.–Б.217.

# BOLALAR MA’NAVIYATI SHAKLLANISHIDA BADIIY ADABIYOTNING O‘RNI VA AHAMIYATI

**B.T.QODIROVA**
ADU o‘qituvchisi

*Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishlarida umumadabiyotning tarkibiy qismi bo‘lgan bolalar adabiyotini o‘qitilishi kelajakda o‘quvchilarning ma’naviyatli shaxs bo‘lib etishishida katta ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqola ham bevosita bolalarning ma’naviyatini shakllantirishida badiiy adabiyotdan foydalanish masalalariga qaratilgan.*

***Tayanch so‘zlar:*** *bolalar, o‘quvchilar, o‘qituvchi-pedagoglar, tarbiyachi, badiiy adabiyot, ertak, maqollar, pedagogika, ta’lim-tarbiya.*

*Teaching children’s literature, which is an integral part of general literature in preschool and primary education, will play an important role in the future development of students as spiritual beings. This article also focuses on the use of fiction in the formation of children’s spirituality.*

***Key words:*** *children, students, teachers, educator, fiction, fairy tales, proverbs, pedagogy, education.*

*Обучение детской литературе, которая является неотъемлемой частью общей литературы в дошкольном и начальном образовании, будет играть важную роль в будущем развитии учащихся как духовных существ. Эта статья также посвящена использованию художественной литературы в формировании детской духовности.*

***Ключевые слова***: *дети, студенты, учителя, воспитатель, художественная литература, сказки, пословицы, педагогика, образование.*

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, taraqqiy etish yo‘lida jadallik bilan davom etmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev tomonidan qabul qilingan barcha qonun va qarorlar, farmon va farmoyishlar, avvalambor, mana shu yurt, xalq hamda kelajak egalari bo‘lgan yoshlarning farovon hayot kechirishlari uchunligini bilish muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizning taraqqiy etishi, xalqimizning farovon hayot kechirishida yoshlarning bilimi, dunyoqarashi va tarbiyasi alohida o‘rin tutadi.

Shunday ekan, yoshlarimiz, farzandlarimiz ongi, tafakkurini yot va zararli ta’sirlardan himoyalash, ichki dunyosini komillik sari yo‘naltirish orqali bo‘shliqlarni to‘ldirish bugunning dolzarb masalalaridan biridir. “Nega deganda, biz farzandlarimizning ongi, dunyoqarashi asrlar davomida sinovdan o‘tgan, yuksak ma’naviyat xazinasi bo‘lgan jahon va milliy adabiyotimiz asosida emas,balki qandaydir shubhali, zararli axborotlar asosida shakllanishiga beparvoqarab turolmaymiz”. Bu kabi barcha ezgu ishlarning boshida, albatta, etarlicha bilim va

malakaga ega bo‘lgan o‘qituvchiva murabbiylarimiz,yana ham aniqroq aytadiganbo‘lsak, maktab ta’limi asosiy o‘rin tutadi. Chunki bola umrining o‘n bir yili maktabda o‘tadi,bu ozmuncha vaqt emas, qolaversa,inson ta’lim va tarbiya olishida eng mahsuldor va mas’uliyatli davri maktab davridir. Insoniy fazilatlarni yoshlikdan singdirish kerakligi esa barchamizga ma’lum. “Hozirgi kunda mamlakatimizda kitobxonlik saviyasini oshirish, mutolaa madaniyatini yuksaltirishga katta ahamiyat berilayotgani... Lekin ko‘plab bolalarimiz kitobdan uzoqlashib, ko‘p vaqtini ijtimoiy tarmoqlarda o‘tkazayotgani bu ham bor gap”.

Maktabgacha ta’lim muassasalarining bo‘lg‘usi tarbiyachilari hamda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari oliy o‘quv yurtida bu fanni puxta o‘rganmas ekan, kichkintoylarni savodga o‘rgatish yoxud boshlang‘ich sinf “O‘qish kitob”laridagi badiiy ijod namunalarini keng tahlil qilish malakasini qanday egallaydi? Bolalar adabiyotining muhim qismi sifatida xalq og‘zaki ijodi, chet el bolalar adabiyoti, ifodali o‘qish, adabiy tur va janrlar haqida tushuncha beradigan tanlov fanlarga ham ehtiyoj katta.

Uzluksiz ta’limning boshqa bosqichlaridan farqli o‘laroq, boshlang‘ich sinflarning o‘qish darslarida o‘quvchilarning o‘qish malakasini shakllantirish, asar matni ustida ishlash ta’limning didaktik maqsadi hisoblanadi. Shunga ko‘ra, o‘qish darslarining etakchi xususiyati o‘quvchilar savodxonligini ta’minlash bilan birga, badiiy adabiyot olamiga olib kirish, yuksak axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga asoslangan.

O‘qish fani bo‘yicha davlat ta’lim standartlarida hikoya, ertak, maqol, topishmoq, doston, tez aytish, she’r, latifa, lof kabi janrlar namunasini o‘qitish; o‘zbek va xorijlik bolalar yozuvchilari asarlarini o‘qish; yozuvchilar va ular asarlari haqida to‘laroq tushuncha hosil qilish; badiiy asarlar sharhi, ifodali o‘qish; asar mazmuni va voqealari o‘rtasidagi bog‘lanishni, qahramonlar fe’l-atvorini aniqlash, qiyosiy tavsiflash; badiiy asarlarni estetik tahlil qilish; nasriy asar mazmunini to‘liq, qisqartirib, shaxsini o‘zgartirib hikoya qilish; badiiy asarlarni o‘zaro qiyoslab, tegishli xulosalar chiqarish kabilar alohida ta’kidlab ko‘rsatilgani ham bejiz emas[5].

Bundan tashqari, 1—4-sinf o‘quvchilari 540 soatdan ziyodroq o‘qish darslarida o‘zbek va jahon bolalar adabiyoti, xalq og‘zaki ijodi namunalari bilan tanishadi. Adabiy janrlarni kuzatib, ifodali o‘qish ko‘nikmasiga ega bo‘ladi. Demak, bu malakani bo‘lg‘usi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, avvalo, o‘zi egallamog‘i lozim. SHu ma’noda, adabiyot darslari uzviyligini boshlang‘ich sinflar “O‘qish kitob”lari belgilaydi, o‘quvchilar hikoya va qissa namunalarini mutolaa qilish, she’rlarni ifodali aytish bilan birga, uning mazmunini teran idrok etishi bundagi zarur jarayondir.

Binobarin, boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishidagi ixtisosliklarda fanning uzviyligini ta’minlovchi “Ifodali o‘qish” va “Adabiyot qoidalari” (1-kurs), “Xalq og‘zaki ijodi va bolalar kitobxonligi” (2-kurs), “O‘zbek bolalar adabiyoti” (3-kurs), “Jahon bolalar adabiyoti” (4-kurs) qismlarini mukammal o‘rganish orqali ko‘zlangan

maqsadga erishish mumkin[5]. Ayni paytdagi dasturlarda adabiyot fanining bu muhim qismlari nazardan chetda qolgani sababli, bakalavr diplomini qo‘lga olayotgan bo‘lg‘usi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining she’riy, nasriy yoxud dramatik asarlarni ifodali o‘qiy olishi, adabiy janrlar, shuningdek, jahon bolalar adabiyoti namunalarini tushunish, tahlil qilish darajasini qoniqarli deb bo‘lmaydi.

“O‘qish kitob”larining mualliflari mumtoz bolalar asarlari bilan birga hozirgi adabiy jarayonning faol ijodkorlari, shuningdek, jahon adabiyotining mashhur asarlari namunalarini e’tiborga olishlari muhim. Zero, boshlang‘ich sinflardayoq bolalar kitobxonligini yuksak saviyaga ko‘tarish uchun, avvalo, ularning bo‘lg‘usi muallimlarining aynan oliy o‘quv yurtlarida mutaxassislik kasblarini egallash jarayonida badiiy asar mohiyatini to‘g‘ri ilg‘ashiga, adabiy janrlarni idrok eta bilish malakasini shakllantirishga e’tibor qaratish shart. YUrtboshimiz ta’kidlaganidek, yoshlarimizning kitob o‘qimay qo‘ygani juda achinarli hol. Farzandlarimizni kitobga oshno qilish muammosi,avvalambor,adabiyot o‘qitishda sifat jihatidan yangilanish bo‘lishini taqozo qilmoqda. O‘quvchilarda kitobga muhabbat o‘qilgan kitobning sir-asrorini bilgandan keyingina shakllanadi[5].

Adabiy ta’lim o‘quvchiyoshlarning fikrinigina emas, balki ularning tuyg‘ularini, qalbini, hissiyotlar olamini ham shakllantirishga ahd qilgan ta’lim jarayonidir[3]. O‘quvchi badiiy asardan ma’naviy lazzat olsa, o‘zining zavqini keltirgan tasviriy unsurlarni payqay bilsagina kitobxonga aylanadi. CHunki biror asarni o‘qish jarayonida, uni tahlillash mobaynida tuyilgan lazzat o‘quvchini boshqa asarlarni o‘qishga, ulardan ham zavqlanishga undaydi. Adabiy ta’lim oldidagi bu vazifalar badiiy asarlarni chuqur tahlil etishni talab qiladi. Ezgu ishlar, ezgu qahramonlardan ibrat olish,yaxshilarning yaxshiligi, yomonlarning yomonligi asosi va omillarini aniqlash asarlarni o‘rganishda etakchilik qilishiga, qahramonlarning xarakterli tomonlari, xatti-harakati, gap-so‘zlari tahlil qilinishiga erishish maqsadga muvofiq. Badiiy asarlarda ana shu buzilgan munosabatlarni insoniylik malhami, muhabbat dorisi bilan tuzatish, faqat ma’naviyatgagina emas, tafakkurga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatish qudrati mavjud[3].

O‘quvchilarda badiiy adabiyot mutolaa madaniyatini rivojlantirish ta’lim muassasasidagi o‘qitish jarayoni bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, sinf va sinfdan tashqari shakllar uyg‘unligida amalga oshadi. Ana shu sababli kitobxonlikni targ‘ib etish jarayonida quyidagi jihatlarga alohida e’tibor qaratish lozim: fanlarning xususiyati hamda maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda har bir darsning tashkiliy qismida badiiy-ma’rifiy asarlarning mavzuga doir qismini o‘quvchilar bilan birga muhokama qilish, birinchidan, o‘quvchilarda o‘quv motivini kuchaytiradi, ikkinchidan, o‘quvchilar kitob o‘qish texnikasi va mutolaa malakalarini jadallik bilan o‘zlashtirib borishadi; nazorat ishlario‘tkazishda fanning tegishli bo‘limini o‘rganish jarayonida o‘quvchilar tomonidan o‘qilgan badiiy-ma’rifiy, ilmiy-ommabop asar bilan bog‘liq

topshiriqning taqdim etilishi o‘quvchilarning kitob o‘qishga mas’uliyatini oshiradi va ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantiradi; mustaqil ta’lim tashkil etishning badiiy-ma’rifiy, ilmiy-ommabop asarlarni o‘qish bilan bog‘liq holda ishbilarmonlik o‘yin texnologiyalari asosida o‘tkazish o‘quvchilar o‘rtasida raqobat muhiti va izlanishli faoliyatga doir amaliyotni tashkil etish imkoniyatini beradi; mashg‘ulotlar jarayonida o‘quvchilarning matn ustida ishlashini tashkil etish, tushunchalarni aniqlashga doir interfaol metodlarning qo‘llanilishi maqsadgamuvofiq. Yangi mavzuni o‘rganish jarayonida dastlab o‘quvchilarni matn bilan ishlashga jalb etish hamda matndagi ular uchun tushunarli bo‘lmagan so‘zlarni daftarga yozishlari va izohli lug‘at yordamida ularning ma’nosini juftliklarda ishlash orqali tushunishga erishish materialni to‘liq o‘zlashtirish imkoniyatini yuzaga keltiradi; o‘quvchilarni dars jarayonida voqelikni emotsional idrok etish, ijodiy xayolotga yo‘naltirish juda muhim, badiiy asarlar ana shu imkoniyatni taqdim etish qudratiga ega.

Badiiy adabiyotning ana shunday ta’sir kuchini inson kamoloti yo‘liga safarbar eta bilish san’at asari mohiyatiga etish, uning namunalarini ta’sirchan va haqqoniy tahlil etish.

O‘quvchilar kitob o‘qish davomida o‘zining amaliy faoliyati tajribasida to‘plangan taassurotlarni qayta tiklash, yangi fikrlar bilan boyitish, ularni o‘zaro birlashgan holatga keltirish ko‘nikmasini o‘zlashtirishadi. YAngidan-yangi obrazlar esa bolada kreativ iqtidorlilikni rivojlantirishning eng muhim omili hisoblangan ijodiy xayolotni tarkib toptirishga xizmat qiladi;mashg‘ulotlar jarayonida o‘quvchilarda o‘qish motivini jadallashtirishga e’tibor qaratish lozim. O‘quvchiningshaxsiy faoliyatda erishgan dastlabki yutug‘i uni boshqa natijalarni egallashga undaydi. Uning o‘qish faoliyatidagi birinchi mehnat mahsuli shodlik va quvonch his-tuyg‘usini keltirib chiqaradi. Ayrim o‘quvchilar u yoki bu matnni bir necha marta o‘qishga harakat qiladi. O‘qish faoliyatiga qiziqish uning mazmuniga ham qiziqishni vujudga keltiradi, bilim olish ehtiyojini tug‘diradi va o‘qish motivlarini tarkib toptiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни ҳатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Тошкент : Ўзбекистон, 2018.1-жилд. –529-бет.

2. Йўлдошев Қ. Адабиёт ўқитишнинг илмий-назарий асослари.Т.,-”Ўқитувчи”,1996.41-бет.

3. Камол Ж. Достонлар. -Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978. 18-бет.

4. Бошланғич синф ўқитувчиси болалар адабиётини яхши билиши даркор // http://marifat.uz/marifat/ruknlar/umumii-urta-talim/1409.htm

# UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA YOSHLARDA FUQAROLIK POZITSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK OMILLARI

***G.M.QURBONOVA,***
*TDPU dotsenti*

*Uzluksiz ta'lim muassasalarida yoshlarning fuqarolik pozitsiyasiga egaliklari ularning jamiyat hayotining barcha sohalarida faol ishtirok etishini ta'minlaydi. Ushbu maqolada ilmiy ma'lumotlar asosida yoshlarda fuqarolik sifatlarini shakllantirishning pedagogik jihatlari yoritilgan.*
***Tayanch iboralar:*** *vatanparvarlik, fuqarolik jamiyati, ijtimoiy faollik, ijtimoiy-iqtisodiy tahlil, milliy qadriyatlar.*

*Обладание молодёжью гражданской позиции в учреждениях непрерывного образования обеспечивает их активное участие во всех сферах жизни общества. В данной статье раскрыты педагогические стороны формирования гражданских качеств у молодёжи на основе научных данных.*
***Ключевые слова:*** *патриотизм, гражданское общество, социальная активность, социально-экономический анализ, национальные ценности.*

*The comprehensive development of students is the basis of the system of higher education, which trains specialists. In this article, the pedagogical aspects of the development of social activity of students on the basis of scientific data.*
***Key words:*** *social activity, socio-economic analysis, national values.*

Pedagogika oliy ta'lim muassasalari faoliyatida bo'lajak o'qituvchilarda fuqarolik sifatlarini samarali shakllantirishga imkon beradigan bir qator omillar mavjud bo'lib, ularning tarbiyaviy ta'siridan maqsadga muvofiq foydalanish pedagogik jamoa oldida turgan muhim ijtimoiy-pedagogik vazifalardan biri sanaladi.

Shaxsning fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lishida tarix va huquq fanlarining g'oyaviy-tarbiyaviy ta'siri katta. Shu sababli oliy ta'lim muassasalarida pedagogik turkum fanlarni huquq fanlari bilan integral tarzda o'qitish bo'lajak o'qituvchilarda fuqarolik tuyg'usini shakllantirish va rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Fuqarolik tarbiyasi – bu "fuqarolik tushunchasining mohiyatinianglatish orqali o'quvchilarda yuksak darajadagi fuqarolik tarbiyasini shakllantirish, ularni xalq, Vatan, jamiyat manfaatlari yo'lida kurashuvchi fuqarolar etib tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon" [3, c. 251] bo'lib, uning "markaziy ob'ekti fuqaro sanaladi". Shaxsni fuqaro sifatida kamol toptirishda oila, ta'lim muassasalari va ijtimoiy muhit (jamiyat)da tashkil etilayotgan fuqarolik tarbiyasi o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy tarbiyaning mazkur yo'nalishida pedagogik faoliyatni tashkil etishda quyidagi vazifalarning bajarilishiga e'tibor qaratiladi:

1. Yosh avlodni doimiy ravishda jamiyatda ustuvor mavqega ega bo'lgan axloqiy va huquqiy me'yorlarga rioya etishga o'rgatib borish.

2. O'quvchilarga fuqarolik huquq va burchlari to'g'risida ma'lumotlar berib borish, ularda fuqarolik faoliyatini tashkil etish borasida ko'nikma va malakalar hosil qilish.

3. O'quvchilarda davlat ramzlariga nisbatan hurmat va muhabbatni qaror toptirish, O'zbekiston Respublika Prezidenti sha'ni, or-nomusini himoya qilishga tayyorlik hissini shakllantirish.

4. O'quvchilarda xalq o'tmishi, milliy qadriyatlarga nisbatan muhabbat tuyg'usini uyg'otish, ulardan g'ururlanish, faxrlanish va iftixor hislarini oshirish.

5. Vatan, xalq va millat ishiga sodiqlik, o'z manfaatlarini yurt manfaatlari bilan uyg'unlashtira olishga erishish, fidoiy fuqaroni tarbiyalab voyaga etkazish.

Fuqarolik tarbiyasi quyidagi sifatlarni o'zida aks ettiradi:

**ma'naviy-axloqiy sifatlar** – vatanparvarlik, baynalminallik, mehnatsevarlik, fidokorlik, e'tiqodlilik, adolatparvarlik, vijdonlilik, davlat siyosatining to'g'riligi va o'z kuchiga bo'lgan ishonchga egalik, do'stlik tuyg'usiga egalik, tinchlik va adolat uchun kurashuvchanlik, bag'rikenglik, mas'uliyatlilik, insoniylik, insonparvarlik, kurashuvchanlik, milliy tarixga xurmat ko'rsatish, ijobiy milliy xususiyatlar (mehmondo'stlik, bolajonlik, jamoaviylik, saxiylik, oliyjanoblik va boshqalar)ga sodiqlik, jamoa ishlarida faol qatnashish, ijtimoiy topshiriqlarni bajarish, liderlik, o'z oilasi, ta'lim muassasasi hamda o'zi mansub bo'lgan akademik guruh sha'nini himoya qilish, jamoa obro'si uchun kurashish, intizomlilik;

Uzluksiz ta'lim muassasalarida yoshlarning fuqarolik pozitsiyasiga egaliklari ularning jamiyat hayotining barcha sohalari – ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy va harbiy sohalarida faol ishtirok etishlarida ko'zga tashlanadi. Shaxsning fuqaro sifatida jamiyat hayotidagi ishtiroklari bevosita quyidagilarda namoyon bo'ladi:

**ijtimoiy-siyosiy sohada** – ijtimoiy-siyosiy bilimlarni chuqur o'rganish, siyosiy haq-huquqlarini anglash, siyosiy jarayonlarni doimiy kuzatib borish va ularga nisbatan o'z munosabatini bildirish, saylash va saylanish huquqlaridan foydalanish, vakillik organlari deputatligiga munosib nomzodlarni tanlash va ularni saylash, qabul qilinayotgan qonunlarning muhokamalari hamda referendumlarda faol ishtirok etish, ularda ilgari surilayotgan g'oyalar xususida o'z nuqtai nazarini ifodalay olish, saylovlarni tashkillashtirish, saylovoldi yig'ilishlarini o'tkazishda ishtirok etish, shuningdek, deputatlikka o'z nomzodini qo'yish, nomzod sifatida jamiyat ravnaqini ta'minlash, istiqbolni belgilashga doir harakat dasturini ilgari surish, yoshlar tashkiloti faoliyatida faol ishtirok etish,

muayyan ijtimoiy vazifalarni bajarish va hokazolar.

Yukorida keltirilgan sifatlarni shaklllantirishda yoshlarda o‘z-o‘zini anglash va fuqarolik pozitsiyasiga egalik muhimdir. Bizning fikrimizcha, ijtimoiy nuqtai nazardan shaxsning o‘z-o‘zini anglashi u tomonidan o‘zining kim ekanligini, jamiyatdagi o‘rnini va zimmasidagi burchlarni tushunishi demakdir. Shunga ko‘ra, bo‘lajak o‘qituvchilarning fuqaro sifatida o‘z pozitsiyalarini anglashlari quyidagilar ta’sirida ro‘y beradi: 1) atrofdagilarning unga bergan baholari; 2) tengdoshlari tomonidan o‘zi mansub bo‘lgan guruhdagi maqomining e’tirof etilishi; 3) o‘zi to‘g‘risidagi haqqoniy (o‘z shaxsi, xatti-harakatlari, o‘y-fikrlari, ichki kechinmalarini to‘g‘ri ifodalashi, qanday bo‘lsa shunday e’tirof etishi) va yolg‘on (o‘z shaxsi, xatti-harakatlari, o‘y-fikrlari, ichki kechinmalarini noto‘g‘ri ifodalashi, o‘z-o‘zini oqlashi, o‘z-o‘zini aldashi) ma’lumotlarga egaligi. Zotan, ijtimoiy barqarorlik, shu bilan birga, yurt tinchligi, vatan ravnaqi, xalq erkinligi va farovonligiga erishish, inson huquqlarining moddiy kafolatlarini kengaytirish, millatlararo totuvlik, diniy bag‘rikenglik kabi jihatlar fuqarolarimizning sog‘lom ma’naviy-axloqiy tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi. Ayni paytda, bu jihatlar huquqiy ongni shakllantirish asoslari hisoblanadi.

Olimlarimiz ilmiy tadqiqot ishlarida fuqarolik tarbiyasini milliy qadriyatlar,o‘z-o‘zini anglash tushunchalari bilan boglab yoritganlar.

D.Ro‘zieva “milliy o‘z-o‘zini anglash” tushunchasini quyidagicha ta’riflaydi: milliy o‘z-o‘zini anglash millatning rivojlanish va taraqqiyot tarixini yaxshi bilish, taraqqiyotning turli bosqichlarida erishilgan yutuq va muvaffaqiyatlar asosini to‘g‘ri talqin eta olish, milliy qadriyatlar mohiyatini anglay olish, ijobiy milliy xususiyatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarga ega bo‘lish, salbiy xislatlar (masalan, mustaqil fikrga ega bo‘lmaslik, ota-ona yoki yaqinlarga tobe bo‘lib yashash, o‘ta andishalilik, qat’iyatning etishmasligi)ni ko‘ra olish, milliy madaniyatning jahon sivilizatsiyasidagi o‘rnini etarli darajada baholash, Vatan taqdiri uchun befarq bo‘lmaslik, uning istiqloli va istiqboli uchun kurashish bo‘lib, u “milliy iftixor tuyg‘usi va Vatanni sevish, milliy madaniyatni anglashdagi quvonch, milliy rivojlanish va xalq manfaati uchun xizmat qiladigan siyosiy harakatlar va g‘oyalarning haqqoniyligini anglab etish kabi tuyg‘ular negizida shakllanadi” [4, c. 103].

Fuqarolik faolligi – individ va ijtimoiy guruhlarning fuqarolik jamiyatini o‘zgartirish va rivojlantirishga qaratilgan faoliyati “ijtimoiy muammolarni hal qilish, hokimiyatni o‘zgartirishdan iborat maqsadni amalga oshirishga yo‘naltirilgan harakat”. Mazkur tushunchaning ifodalanishi fuqarolik jamiyati tushunchasining yoritilishi bilan bog‘liq. Aksariyat manbalarda “fuqaroligi faolligi” tushunchasi “ijtimoiy faollik” tushunchasi bilan bir xil ma’noga egaligi aytiladi.

“Ijtimoiy faollik hodisa, holat va munosabat sifatida e’tirof etiladi. Psixologik nuqtai nazardan faollik tavsifi shaxsning ehtiyojlari va qiziqishlari negizida yuzaga kelib, harakatga undovchi ichki tayyorlik tarzida namoyon bo‘ladigan holat – sifat tarzida yoritiladi. Munosabat sifatida esa sub’ektlarning o‘zini va turli faoliyat sohalarini qayta shakllantirishga yo‘naltirilgan ko‘p yoki kam quvvat talab etuvchi faoliyat”, “harakat ichki zaruriyatining anglanishiga asoslanuvchi shaxs faoliyati qayta qurilishini ifodalovchi chora-tadbir bo‘lib, uning maqsadlari ijtimoiy ehtiyojlar negizida aniqlanadi”[5].

Yoshlarni kasbiy tayyorlash, jamiyatga mutanosib insonlar qilib shakllantirish, ular shaxsiga yangicha yondashish hozirgi ijtimoiy taraqqiyotning zaruriy talabidir. Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, yoshlarda fuqarolik sifatlarini shakllantirish orkali fuqarolik pozitsiyasini egallaganligi orttirish pedagogik muammolardan biridir. Muammoni nazariy va amaliy jihatdan o‘rganish dolzarb masaladir. Bu talabning qondirilishi yoshlar o‘rtasida fuqarolik tarbiyasini izchil, uzluksiz, tizimli, samarali yo‘lga qo‘yilishiga bog‘liq.

Ilmiy tadqiqot kuzatishlarimiz asosida xulosa kilamizki, yoshlarning o‘z-o‘zini boshqarish organlari faoliyatidagi ishtiroklari ularning ijtimoiy, fuqarolik faolliklariga va fuqarolik sifatlarini shakllanganligiga bog‘liq. Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy va harbiy sohalarda ro‘y berayotgan tub o‘zgarishlar mohiyatini anglash, jamiyat ravnaqi, xalq farovonligini ta’minlashdagi ahamiyatini to‘g‘ri baholash, erishilayotgan yutuqlardan faxrlanish, ularni boyitish, mavjud muammolarni ijobiy hal qilishga o‘z hissalarini qo‘shishga intilish yoshlarning fuqarolik pozitsiyasini belgilab berish bilan birga fuqarolik faolliklarini ham baholash imkonini beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Pedagogika nazariyasi va tarixi: Pedagogika nazariyasi: Darslik / M.X.Toxtaxodjaeva va boshq. 1-qism. – T.:Moliya-iqtisod, 2007. 251-b.

2. Ro‘zieva D.I. Oliy ta’lim muassasalari talabalarida milliy iftixor tuyg‘usini shakllantirishningilmiy-pedagogik asoslari:Ped.fanl. d-ri ... dis. – T., 2007. 103-b.

3. Arzikulova D.N.Kasbiy kamolotning psixologik o‘ziga xos xususiyatlari: Psix.fanl.nomz. … dis.Avtoref. – T., 2002.22-b.

4. Mustaqillik: Izohli ilmiy-ommabop lug‘at / Mualliflar: M.Abdullayev va boshq.; R.Ro‘ziev va Q.Xonazarovning umumiy tahrir. To‘ldirilgan uchinchi nashr. – T.: Sharq, 2006. 373-b

4. kun.uz/.../savkat-mirzieevning-prezidentlikdagi-ilk-kitobi-na.

# O'QUVCHI – YOSHLARDA YO'L HARAKATI QOIDALARI KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA TA'LIM MUASSASASI VA OILA HAMKORLIGI

***G.A.ABDULLAEVA,***
*O'RFVV AFMI katta o'qituvchisi*

*Ushbu maqolada bolalar va o'smirlarni yo'l harakati xavfsizligi qoidalari bilan bog'liq muhim muammolardan biri ochib berilgan. Qoidalarni bilish erta yoshdan boshlab har bir insonning hayotida zarurdir degan xulosaga kelingan. Shu sababli, bolalar va o'smirlar bilan ishlash yangi, qiziqarli shakllarini izlash muhim kasb etadi.*

***Kalit so'zlar:*** *bolalar, o'smirlar, ta'lim, yo'l harakati xavfsizligi, avariya, xavfsizlik, yo'l transport hodisasi, favqulodda vaziyat va h.k.*

*В этой статье раскрывается один из наиболее важных вопросов, связанных с правилами безопасности дорожного движения для детей и подростков. Был сделан вывод о том, что знание правил необходимо в жизни каждого человека с раннего возраста. Поэтому важно искать новые, захватывающие формы работы с детьми и подростками.*

***Ключевые слова:*** *дети, подростки, образование, безопасность дорожного движения, авария, безопасность, дорожно-транспортное происшествие, авария и др.*

*This article reveals one of the most important issues related to road safety rules for children and adolescents. It was concluded that knowledge of the rules is necessary in the life of every person from an early age. Therefore, it is important to look for new, exciting forms of work with children and adolescents.*

***Key words:*** *children, adolescents, education, road safety, accident, safety, traffic accident, accident, etc.*

2019-2020 yilning may oyiga qadar Respublika bo'yicha 8695 ta yo'l harakati hodisasi sodir bo'lib, shulardan 1950 nafar fuqarolar, bolalar hodisa natijasida halok bo'lishgan, qolganlari turli tan jarohati bilan jarohatlanishgan.

O'zbekiston Respublikasida aholini favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilishga o'rgatishni tartibga soluvchi samarali tizim yaratilgan. Bu borada bir qator huquqiy-me'yoriy hujjatlar qabul qilingan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 9 sentyabrdagi 754-sonli «Aholining barcha qatlamlarini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga va fuqaro muhofazasi sohasida tayyorlash tartibi to'g'risida»gi, 2017 yil 11 iyuldagi «Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlari muhim qadam bo'ldi.

Bolalar o'limi mavzusi hech kimni befarq qoldirmaydi. Har bir bunday fojea yaqqol dalil, kattalarni ma'suliyatsizligidan dalolat beradi. Ular bolalarni himoya

qilish va ularning hayotini saqlab qolish uchun qo'llaridan kelganini qilolmaydilar. Bugungi kunda, ko'cha-kuylardan nafaqat piyodalar va yo'lovchilar, balki, yo'ldan foydalanuvchi – velosiped haydovchilari, skuterlardan foydalanayotganlar ham sababchi bo'lishmoqda.

Bola uchun oila ijtimoiy tajriba manbai hisoblanadi. Bu erda u taqlid qilish uchun misollar topadi va bu erda uning ijtimoiy tug'ilishi sodir bo'ladi. Agar biz axloqiy jihatdan sog'lom avlodni tarbiyalashni istasak, bu muammoni «butun dunyo» bilan hal qilishimiz kerak: ta'lim tizimi, oila, jamoa (Suxomlinskiy).

Ushbu muammoning dolzarbligi kichik yoshdagi bolalar kattalarga xos bo'lgan yo'l sharoitlariga qarshi himoya psixologik reaktsiyaga ega emasligi bilan bog'lik. Bolani yo'l-transport vositasi bilan tanishtirishning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Ularning bilim uchun chanqoqligi, doimo yangi narsalarni kashf qilish istagi ko'pincha bolani haqiqiy xavf-xatarlarga duchor qiladi. Shu sababli, shaxsiy tajriba bolalarning yo'lda xavfsiz xulq-atvorini oldindan o'rgatish bo'yicha profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali jamiyat tomonidan to'plangan tajriba bilan almashtirilishi kerak.

Bolani juda yoshligidan boshlab, yo'l harakati qatnashchisi-piyodalar uchun umrbod «kasb» ga tayyorgarlik ko'rishi kerak. Bu yoshda atrof-muhitdagi hayotiy yo'nalishlarning asosi va bolalarning ta'lim tizimida o'rganadigan har bir narsa abadiy esda qoladi.

Faqat o'qituvchi-pedagoglar va ota-onalarning birgalikdagi sa'y-harakatlari, ularning bilimlari, sabr-toqati va xulq-atvoridan foydalanib, farzandlarimizga ko'chalar va yo'llarning murakkab dunyosi bilan xavfsiz muloqot qilish qobiliyatini o'rgatishi mumkin. Bolalar bilan yo'l-transport hodisasining oldini olishning muvaffaqiyati asosan kattalarning ongi, shaxsiy madaniyati va intizomiga bog'liq. Kichkina piyodani tarbiyalashning eng samarali vositasi ota-onalarning yo'ldagi xatti-harakatlarning namunasidir. Oilada bolaning xarakterini, boshqalarga bo'lgan munosabatini shakllantirish, avvalam bor muloqot qobiliyati bilan boshlanadi hamda oilada bolaning eng muhim ehtiyojlarini qondirishni ta'minlaydi.

Ushbu yo'nalishdagi ishlarning alohida ahamiyatini hisobga olgan holda, bolalar muassasasi uzluksiz ta'lim tizimida birinchi bosqich bo'lganligi sababli, bizning jamoamiz nafaqat bolalarga, balki ularning ota-onalariga ham yo'l harakati qoidalariga rioya qilishning muhim odatini rivojlantirish uchun ma'lumot berish vazifasini qo'ydi. Ota-onalar bolalarni tarbiyalash va rivojlantirishda bizning manfaatdor hamkorlarimiz bo'lib, ular bilan o'zaro aloqada bo'lib, quyidagi bosqichda tashkil etilgan turli xil ish turlaridan foydalanadilar.

Demak, ushbu darajadagi ta'limning asosiy tamoyili maktabgacha ta'lim muassasasi va oila o'rtasidagi o'zaro munosabatlar.

Ota-onalar orqali ta'lim berish bosqichi:

- bolalar bog'chasi sayti;
- ota-onalarga bolalarning yoshini hisobga olgan holda shahar ko'chalarida

o‘zini tutish bo‘yicha tavsiyalar berilgan axbort stenlari;

- burchakni loyihalashda ota-onalarning e’tiborini jalb qilish uchun shiorlar yaratish: «shoshilish narxi – farzandingizning hayoti», «diqqat – biz farzandlarmiz!», «Bola yashash huquqiga ega!», «Bolaning hayoti hisobidan o‘z vaqtini tejash ahmoqlikdir», «men va farzandim shahar ko‘chalarida», «avtomobildan ehtiyot bo‘ling» va h.k.;

- eslatmalar va varaqalar - bolalar va kattalar tomonidan assimilyasiya qilish uchun zarur bo‘lgan yo‘l harakati qoidalari to‘g‘risidagi materialni o‘z ichiga olgan murojaatlar, «e’tibor bering, bolalar!», «yo‘l harakati qoidalariga rioya qilish muammoga duch kelmaydi» va h.k.

Ikkinchi bosqich - boshlang‘ich umumiy ta’lim muassasalari o‘quvchilaridir (7-10 yosh). Ushbu bosqichda piyodalar xavfsizligi asoslari to‘g‘risida bilimlari shakllantiriladi, transportda va yo‘llarda harakatlanish etikasi, madaniyati o‘rgatib boriladi. Boshlang‘ich sinfning oxiriga kelib, bola normal sharoitda xavfsiz harakatlarining asosiy qoidalarini bilishi, yo‘l harakati holatining rivojlanishini oldindan aytib bera olishi va asosiy yo‘l «tuzoqlari»ni hal qilishi kerak.

Uchinchi bosqich – umumta’lim maktabining 5-7 sinf o‘quvchilari kiradi (11-13 yosh). Ushbu bosqichda boshlang‘ich sinfda olingan yo‘l harakati xavfsizligi asoslari haqidagi bilimlari mustahkamlanadi. Yo‘l harakati qoidalarining asosiy jihatlari o‘rganiladi. Ehtimol, fizika, matematika bilan ob’ektlararo aloqalarni hisobga olgan holda oxirigacha o‘rgatib boriladi.

To‘rtinchi bosqich – bu umumta’lim maktabining 8-11 sinf o‘quvchilari (14-17 yosh). O‘rta maktabda piyodalar, haydovchilar, yo‘lovchilar uchun yo‘l harakati asosiy qoidalarini takrorlash bilan profilaktik suhbatlar va ma’ruzalar o‘tkazish tavsiya etiladi.

Yo‘l harakati qoidalarini buzganlik uchun ma’muriy, jinoiy va fuqarolik javobgarligi choralarini ko‘rib chiqish zarurligiga alohida e’tibor qaratish lozim. 14 yoshdan oshgan o‘quvchilar qonun normalari va ularni buzganlik uchun javobgarlik choralarini bilishlari shart: jarimalar miqdori, profilaktika choralari, tarbiyaviy va majburiy ta’sir choralari va h.k.

Huquqiy mavzularda ma’ruzalar o‘qish uchun «yo‘l-transport hodisalarida birinchi yordam» mavzusini o‘rganayotganda, yurist maslahatchilar va qonun me’yorlarini biladigan «yo‘l harakati xavfsizligi» xodimlari, tibbiyot xodimlari «tibbiy bilim asoslari va bolalar sog‘ligini saqlash» bo‘limida o‘qitishga jalb qilish kerak. Ta’limning barcha darajalarida bunday darslarning samaradorligini oshirish shubhasizdir.

Yo‘l harakati xavfsizligi asoslari bo‘yicha bolalar va o‘smirlarning umrboqiy ta’lim tizimida bolalar uchun qo‘shimcha ta’lim muassasalari alohida o‘rin tutadi. Ularga turli yoshdagi bolalar va o‘smirlar tashrif buyurishadi. Shu sababli uzluksizlik tamoyilini amalga oshirish uchun o‘quv jarayonini uch bosqichda tashkil etish tavsiya etiladi:

Maktabgacha yoshdagi tayyorlov guruh va boshlang'ich sinf o'quvchilari tomonidan yo'l harakati xavfsizligi asoslarini o'rganish (1-4 sinflar);

Ko'chalarda va yo'llarda xavfsiz harakat qilish bo'yicha bilim, ko'nikmalarni takomillashtirish, ommaviy tadbirlarda ishtirok etish: tanlovlar, o'yinlar, yo'l harakati xavfsizligi bo'yicha yosh inspektorlar bo'linmalari va bolalar uchun qo'shimcha ta'limning boshqa birlashmalari (5-7 sinflar);

O'rta maktab o'quvchilarining kasbiy o'zini-o'zi aniqlash (8-11 sinflar). Turli xil faoliyat turlari orqali ko'chalarda va yo'llarda xavfsiz harakat qilish ko'nikmalarini takomillashtirish, shu jumladan haydovchilar uchun kasbiy tayyorgarlik, yosh o'quvchilar orasida yo'l harakati xavfsizligi bo'yicha targ'ibot ishlarida ishtirok etish. Ushbu yondashuv sizga ko'cha va yo'llarda xavfsiz harakat qilish, vilosiped, moped, avtomashinalarni xavfsiz boshqarish va o'smirlarning kasbiy yo'nalishi bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan bolalar va o'smirlarni qo'shimcha o'qitish muammolarini har tomonlama hal qilishga imkon beradi.

Bolalarda yo'l-transport jarohatlarining yuqori darajasi muqarrar ravishda bolalarning hayoti va sog'ligini saqlashning eng samarali usullarini izlashga olib keladi. Sinfda yo'l harakati qoidalarini o'rganish, dars soatlari, ma'ruzalar, bolalar bilan suhbat, turli tanlov va viktorinalar, musobaqalar, ekskursiyalar va oldini olishning boshqa shakllari uzluksiz ta'lim va tarbiyaning yaxlit tizimiga kiritilishi kerak. Shu bilan birga, bolalarning yo'l-transport hodisalari profilaktikasining bir tomondan samaradorligi, yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash, bolalar va o'smirlarning hayoti va sog'lig'ini saqlashdan manfaatdor bo'lgan barcha sub'ektlarning o'zaro bog'liqligiga, boshqa tomondan bu ishning amaliyotiga ilmiy yutuqlar va yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish lozim bo'ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 9 sentyabrdagi «Aholini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga va fuqaro muhofazasi sohasida tayyorlash tartibini takomillashtirish to'g'risida»gi 754 - sonli qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 11 iyuldagi «Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori.

3. Q.X. Azizov, J.R. Kulmuxammedov, K.M. Nazarov, T.Sh. Umurzoqov «Yo'l harakati qoidalari va uning xavfsizligi»// 2014 y. O'quv qo'llanma.

4. R.A. Abdurahmonov, G'.I. Mamaev «Yo'l harakati qoidalari va xavfsiz harakatlanish asoslari»// 2013 y. Uslubiy qo'llanma.

# ТЕХНОЛОГИЯ ДОПОЛНИТЕЛЬНЫХ ЗАНЯТИЙ В ОБУЧЕНИИ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ УЧИТЕЛЕМ-ДЕФЕКТОЛОГОМ

**Ф.КАДЫРОВА,**
*д.п.н,*
**М.Ф.ДЖУРАЕВА,**
*студентка ТГПУ*

*В статье представлена сущность технологии компенсации познавательных трудностей в обучение младших школьников учителем-дефектологом в условиях массовой общеобразовательной школы; описываются принципы построения системы коррекционно-развивающего обучения.*

***Ключевые слова**: компенсация, познавательные трудности в обучении, коррекционно-развивающая работа, технология компенсации познавательных трудностей, младшие школьники, учитель-дефектолог в условиях массовой общеобразовательной школы.*

*The article presents the essence of technology compensation cognitive difficulties in the primary classroom a teacher-defectologist in mass secondary schools, describes the principles of the system of correctional-developing learning Special attention is paid to particular problems, providing timely and specialized assistance to students experiencing cognitive learning difficulties in mastering the compulsory minimum content of education in the conditions of mass school.*

***Key words**: compensation, cognitive learning difficulties, correction-developing work, compensation technology cognitive difficulties, primary school students, teacher-defeclologisl in the context of mass secondary school*

Компенсации познавательных трудностей в обучении младших школьников в отечественной теории и практике уделяется немало внимания, но в данной статье представлена технология компенсации познавательных трудностей в обучении младших школьников учителем-дефектологом на базе массовой общеобразовательной школы в виде коррекционно-развивающей работы.

Эффективность коррекционно-развивающей работы в условиях общеобразовательной школы обеспечивается комплексным подходом к ее содержанию, что позволяет определить индивидуальные личностно-ориентированные методы и приемы компенсации познавательных трудностей в обучении и формировании учебных знаний. Учитель-дефектолог осуществляет взаимодействие со специалистами школьного ПМПк (учителем, логопедом, психологом, медицинским работником), администрацией школы, родителями с целью разработки индивидуального образовательного маршрута.

Комплексный подход к содержанию коррекционно-развивающей работы обеспечивает и проведение коррекционно-развивающих занятий. Коррекционно-развивающая работа учителя-дефектолога строится на принципах системы коррекционно-развивающего обучения. При ее организации следует руководствоваться следующими положениями:

1) комплексный подход к диагностике и коррекции, соблюдение принципа единства диагностики и коррекции. Диагностическая работа специального педагога является составной частью комплексного изучения ребенка специалистами школьного психолого- медико-педагогического консилиума (ПМПк). Результаты дефектологического обследования обязательно обсуждаются на заседаниях консилиума и сопоставляются с психологическими, логопедическими, медицинскими и педагогическими данными;

2) осуществление дифференцированного подхода к анализу нарушений. Неравномерности формирования познавательного развития требуют осуществления дифференцированного подхода в работе специального педагога по преодолению школьных трудностей учащихся. В коррекционно-развивающей работе дефектолога выделяются приоритетные направления (одно или несколько), которые в первую очередь необходимы для компенсации состояния. По этому основанию происходит комплектование групп и зачисление учащихся на индивидуальные занятия;

3) учет возрастных и индивидуальных особенностей развития ребенка при построении коррекционно-развивающей работы. Содержание занятий строится в рамках ведущей деятельности младшего школьного возраста с учетом «зоны ближайшего развития» на материале. соответствующем требованиям школьной программы. Коррекционно-развивающие упражнения подбираются таким образом, чтобы их выполнение было доступным для учащихся, а также чтобы уровень их сложности позволял активизировать потенциальные возможности ребенка;

4) междисциплинарное взаимодействие специалистов, осуществляющееся в соответствии со структурой нарушения и первоочередными задачами коррекционно-развивающего воздействия. В процессе комплексной диагностики (психолога, дефектолога, логопеда. медицинского работника) выявляются учащиеся, нуждающиеся в помощи специалистов, в том числе учителя-дефектолога. В случаях, когда ребенок нуждается в помощи двух и более специалистов, составляются комплексные программы его развития, которые предусматривают приоритетные направления коррекционно-развивающей работы каждого специалиста, а также суммарную нагрузку на учащегося и рекомендации педагогу и родителям;

5) динамическое наблюдение за развитием учащегося проводится с целью отслеживания динамики развития ребенка, определения соответствия выбранных форм, приемов, методов обучения уровню развития учащегося. В процессе динамического изучения также решается задача дифференциации сходных состояний нарушений развития, выявляются дети, не подлежащие обучению в системе компенсирующего обучения.

Сопоставление реальных учебных достижений ребенка и развития познавательной сферы позволяет корректировать коррекционно-развивающие программы, индивидуальный образовательный маршрут учащегося, варьировать приемы работы педагога, выбирать адекватные формы обучения в каждом отдельном случае.

Рассматривая в качестве общей цели деятельности учителя-дефектолога обеспечение своевременной специализированной помощи учащимся, испытывающим познавательные трудности в обучении и освоении им обязательного минимума содержания образования в условиях массовой школы, в ходе коррекционно-развивающей работы происходит решение следующих частных задач:

– выявление неблагоприятных вариантов развития и определение учебных трудностей ребенка;

– составление индивидуального образовательного маршрута развития ребенка в условиях взаимодействия специалистов ПМПк;

– выявление детей с познавательными трудностями для осуществления специального коррекционно-развивающего воздействия специалистов: учителя-дефектолога (учебная и познавательная деятельность), логопеда (речевая деятельность), психолога (познавательная деятельность и эмоционально-личностное развитие);

– выявление детей, не подлежащих обучению в системе компенсирующего обучения;

– динамическое изучение уровня познавательного развития детей и результатов коррекционно-развивающего воздействия;

– отслеживание соответствия выбранной программы, форм, методов и приемов обучения реальным достижениям и уровню развития ребенка;

– проведение индивидуальных и групповых коррекционно-развивающих занятий, обеспечивающих усвоение программного материала и осуществление переноса сформированных на занятиях умений и навыков в учебную деятельность учащихся;

– консультирование педагогов и родителей по проблемам развития, обучения и воспитания детей, испытывающих познавательные трудности в

обучении, выбору оптимальных форм, методов, приемов обучения и воспитания в соответствии с индивидуальными особенностями ребенка.

Решение поставленных задач реализовывается в следующих направлениях работы учителя-дефектолога, обеспечивающих комплексный подход к ее организации:

1) диагностическое направление. Особенностями данного направления являются определение перспектив обучения; распределение детей, испытывающих познавательные трудности в обучении на группы по ведущему нарушению для проведения коррекционно-развивающей работы; динамическое наблюдение за развитием ребенка; определение оптимальных условий индивидуального развития в процессе комплексного воздействия на ребенка [2];

2) коррекционно-развивающее направление работы учителя-дефектолога, представляющее собой систему коррекционно-развивающего воздействия на познавательную деятельность ребенка, испытывающего трудности в обучении. Деятельность учителя- дефектолога строится с учетом возрастных и индивидуальных особенностей ребенка и зависит от структуры дефекта и степени его выраженности [1]. Основной формой организации дефектологической работы являются групповые и индивидуальные занятия. Количество детей в группах варьируется в зависимости от степени выраженности нарушения от 2 до 16 человек. Коррекционно-развивающие занятия учителя-дефектолога проводятся в часы, свободные от уроков, в режиме группы продленного дня или во время внеурочной деятельности с учетом режима работы школы [2];

3) аналитико-методическое направление. Необходимость этого направления работы обусловлена потребностью в комплексном эффективном подходе к проблемам ребенка, который предполагает:

– планирование работы учителя-дефектолога, согласование с администрацией, перспективное планирование работы на год;

– ведение документации;

– обработку результатов диагностики, составление индивидуальных карт динамического развития обучающегося по результатам анализа полученных данных, планирование коррекционно-развивающих мероприятий;

– разработку рабочих программ для учащихся 1-4 классов КО, цель которых - педагогическая коррекция высших психических функций (память, внимание, восприятие, воображение, мышление), связной речи, эмоциональной сферы на занятиях с детьми, имеющими трудности в обучении;

– подбор и группирование методик для диагностик;

–подбор материалов и литературы для коррекционно-развивающей работы;

– оформление отчетов;

– подготовку и участие в консилиумах, методических объединениях, педагогических советах.

Для этого учителем-дефектологом разрабатывались рекомендации родителям и педагогам в соответствии с возрастными и индивидуальными особенностями детей, состоянием их соматического и психического здоровья. По запросу родителей и учителей организовывалось дополнительное обследование учащихся, проводились индивидуальные консультации и тематические родительские собрания, выступления на методических объединениях педагогов.

Таким образом, данная технология компенсации познавательных трудностей осуществляет работу по профилактике вторичных и третичных нарушений развития. Эффективность использования специфических методов и приемов работы учителя-дефектолога показана в исследовании на материале коррекционно-развивающего обучения, направленного на компенсацию познавательных трудностей в обучении.

**Литература:**

1. Вильшанская АД. Коррекционно-педагогическая работа с младшими школьниками с задержкой психического развития церебрально-органического генеза в общеобразовательной школе: автореф. дис. ... к.п.н.: 13.00.03.- М.: РГБ, 2005.

2. Филонова Е.В. Направления работы учителя-дефектолога по осуществлению педагогической поддержки младших школьников, испытывающих познавательные трудности в обучении // Современная наука: актуальные проблемы теории и практики. Гуманитарные науки: научно-практический журнал. -2016. -№ 3.

# UZLUKSIZ TA'LIMI TIZIMI PEDAGOGLARINING MALAKASINI OSHIRISHDA TA'LIM SIFATI MENEJMENTINING O'ZIGA XOS IMKONIYATLARI

***M.A.YULDASHEV,***
***O'z RMT vazirining o'rinbosari, p.f.d, dotsent***

*Ushbu maqolada xalq ta'limi tizimi pedagoglarining malakasini oshirishda ta'lim sifati menejmentining o'ziga xos imkoniyatlari haqida fikr yuritilgan bo'lib, unda shuningdek, jahondagi ta'lim sifati menejmentini takomillashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarda olib borilayotgan tadqiqotlar tahlil qilingan, pedagogik shart-sharoitlar haqida ma'lumotlar keltirilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *xalq ta'limi tizimi, xalq ta'limi xodimlarining malakasini oshirish, ta'lim sifati, baholash, ta'lim sifati menejmenti pedagogik ichki va tashqi omillar, davlat talablari, ta'lim dasturi, ta'limiy munosabatlar, sub'ektivlilik, tinglovchilar, natija.*

*В данной статье рассматриваются уникальные возможности управления качеством образования в профессиональном развитии педагогов государственной системы образования, а также анализируются текущие исследования, направленные на повышение качества образования в мире, и предоставляется информация о педагогических условиях.*

***Ключевые слова:*** *народное образование, подготовка кадров народного образования, качество образования, оценка, управление качеством, педагогические внутренние и внешние факторы, государственные требования, образовательная программа, образовательные отношения, субъективность, результаты.*

*This article discusses the unique possibilities of managing the quality of education in the professional development of teachers of the state education system, as well as analyzes current research aimed at improving the quality of education in the world and provides information on pedagogical conditions.*

***Key words:*** *public education, training of public education staff, quality of education, evaluation, quality management, pedagogical internal and external factors, state requirements, educational program, educational relations, subjectivity, results.*

Ta'lim sifati va uni boshqarish bilan bog'liq ilmiy izlanishlar jahonning etakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalarida, jumladan, London universiteti qoshidagi Ta'lim instituti (Buyuk Britaniya), Bavariya akkreditatsiyalash, sertifikatlash va sifatni kafolatlash instituti (Germaniya), Nant universiteti (Fransiya), Kaliforniya va Ogaya universitetlari (AQSH), Vullongong universiteti (Avstraliya), Tokio pedagogika universiteti (Yaponiya), Chonnam milliy universiteti (Koreya Respublikasi), Shanxay ta'limni baholash instituti (XXR), Moskva davlat universitetining boshqaruv

kadrlarini tayyorlash o'quv-ilmiy markazida (Rossiya) olib borilmoqda.

Ta'lim sifati, uni baholash va sifat menejmentiga oid jahonda olib borilgan tadqiqotlar natijasida qator, jumladan, quyidagi ilmiy natijalar olingan: oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifati nazoratining ichki baholash mexanizmlari ishlab chiqilgan (London universiteti qoshidagi Ta'lim instituti, Buyuk Britaniya); ta'lim sifati menejmenti tizimini sertifikatlash va sifatni kafolatlash usullari tavsiflangan (Bavariya akkreditatsiyalash, sertifikatlash va sifatni kafolatlash instituti, Germaniya); ta'lim sifati nazoratining tashqi baholash mexanizmlari takomillashtirilgan (Nant, Fransiya); sifatning yalpi boshqaruvi konsepsiyasini oliy ta'lim muassasalarida qo'llash xususiyatlari ochib berilgan (Kaliforniya va Ogaya universitetlari, AQSH); ta'lim sifatini baholash mezonlari va ko'rsatkichlari takomillashtirilgan (Vullongong universiteti, Avstraliya); sifat boshqaruvini takomillashtirib borish yo'nalishlari aniqlangan (Tokio pedagogika universiteti, Yaponiya); xodimlarning mehnat samaradorligini oshirish, sifatni baholash va nazorat qilish usullari yaratilgan (Shanxay ta'limni baholash instituti, XXR); sifatning yalpi menejmentini qo'llash ilmiy-amaliy jihatdan asoslangan (Chonnam milliy universiteti, Koreya Respublikasi); professor-o'qituvchilarning pedagogik mahoratini oshirish orqali oliy ta'lim muassasalarida sifatni ta'minlash mexanizmi yaratilgan (Bosh ilmiy-metodik markaz, O'zbekiston).

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-sonli "Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi" to'g'risidagi Farmoni[2]ning qabul qilinishi va u asosida amalga oshirilayotgan islohotlar xalq ta'limi tizimini innovatsion rivojlantirishning kelajak modelini shakllantirishga, mamlakatning intellektual va texnologik salohiyatini ko'tarishga yordam beruvchi uzoq muddatli ssenariy asosida strategik rejalashtirish tizimini yaratishni taqozo etmoqda.

Shunday qilib, uzluksiz ta'lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, shuningdek professional kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish ta'lim muassasalarini jamiyatning, ijtimoiy tizimning tarkibiy qismi sifatida baholanishi mumkin. Bu murakkab, dinamik, ochiq, o'zini o'zi boshqaradigan, boshqariladigan, noyobligi va maqsadga yo'naltirilganligi asosiy xususiyati bo'lgan tizim hisoblanadi.

Xalq ta'limi tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, shuningdek professional kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishda ta'lim munosabatlarini sub'ektivligini ta'minlash va uning modelini ya'ni, ta'lim amaliyotiga tatbiq etish modelini ishlab chiqish jarayonida sub'ektivlilikka murojaat

etishni taqozo qiladi. Muhimi, ta'lim munosabati ishtirokchilarining individual xususiyatlarini maksimal darajada hisobga olishga e'tibor qaratish lozim. Chunki ta'lim munosabatlarini sub'ektivligini ta'minlashning natijasi ta'lim faoliyatining yangi sifat bosqichiga ko'tarish, ta'lim muassasasini boshqarishda yangi rolga ega bo'lish, o'z faoliyatini belgilash va baholash hisoblanadi.

Tadqiqotlar jarayonida "ta'lim sifati menejmenti"ni tavsiflashga bo'lgan turli yondashuvlarning mavjudligi qayd etildi.

Sh.Qurbonov, E.Seytxalilovlar ta'lim sifatini boshqarish – muayyan ijtimoiy va pedagogik shart-sharoitlarning ta'siri oqibatida yuzaga kelgan va ko'p funksiyali vazifalarni o'z ichiga olgan tizim, deb ta'riflaydilar [3; 103-b.].

Malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslarida o'qitish mazmuni va metodlarini yangilash, baholash tizimini qayta ko'rib chiqish natijalari malaka oshirish tizimini boshqarishning ta'limda amalga oshirilayotgan islohotlarga mutanosib va xozirjavob mexanizmi mavjud emasligi; malaka oshirish ta'limi mazmuni va sifatiga qo'yiladigan davlat talablarining tabaqalashtirilgan yondashuv asosida ishlab chiqilmaganligi; iste'molchilarning ko'rsatilayotgan ta'lim xizmatlari sifatiga samarali ta'sir ko'rsatish imkoniyatining yo'qligi; ta'lim mazmunini shakllantirishda ehtiyojlarning etarli darajada hisobga olinmasligi; tizimda ta'lim sifatini monitoring qilish va sifatni boshqarishning zamonaviy mexanizmlari joriy etilmaganligi kabi dolzarb muammolar mavjudligini ko'rsatdi.

Mazkur muammolar xalq ta'limi xodimlari malakasini oshirish ta'lim muassasalari ichki boshqaruvi tizimida ham kuzatilib, boshqaruvning direktiv xususiyatga ega ekanligi, boshqaruv faoliyatida pedagoglar jamoasining ishtirok etmasligi, innovatsiyalarning muassasa imkoniyatlari va ehtiyojlarini hisobga olmagan holda joriy etilishi, malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning yosh xususiyatlari etarlicha e'tiborga olinmasligi kabi holatlar ta'lim sifatini ta'minlashga salbiy ta'sir ko'rsatgani aniqlangan.

Malaka oshirish tizimiga murakkab tarkibga ega bo'lgan ijtimoiy tizim sifatida qarab, undagi ta'lim sifati deyilganda iste'molchilarning talablariga muvofiqlikni tushunish mumkin. Malaka oshirish tizimidagi ta'lim sifatining asosiy tashkil etuvchilari:

– ta'lim muhitining tashkil etilishi sifati (kadrlar, axborot, texnika, o'quv-metodik ta'minot);

– ta'lim jarayoni sifati (malaka oshirish kurslaridagi ta'lim mazmuni, ta'limning shakllari, metodlari va texnologiyalari, professor-o'qituvchilar saviyasi);

– natija (qo‘yilgan maqsadlarga erishish, fikrlash va faoliyat yuritishning yangi usullarini egallash, kasbiy kompetensiyaning oshishi).

Xalq ta’limi xodimlarining malakasini oshirish jarayonida ta’lim sifatini boshqarishning asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat:

a) sifatni bashoratlash va loyihalash (rejalashtirish);

b) sifatni ta’minlash;

v) sifatni boshqarish;

g) ta’lim sifatini oshirish.

Malaka oshirish kurslaridagi ta’lim jarayoni uning sifatini baholashni tizimli tashkil etish, ya’ni monitoringni joriy etish zaruriyatini talab etadi. Mazkur monitoring biryoqlamalik tavsifiga ega bo‘lib, u, asosan, tinglovchilarning kurs oldi va so‘nggidagi tayyorgarligi saviyasi, o‘quv modullari bo‘yicha ta’lim samaradorligi, mashg‘ulotlar sifati, tinglovchilarning o‘tilgan darslarni baholashi, ta’lim muhitining tashkil etilish sifati, amalga oshirilgan o‘quv, tarbiyaviy va ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar saviyasiga doir ma’lumotlarni olish imkoniyatini beradi. Monitoring natijalari ta’lim jarayoni sifati to‘g‘risida ma’lum darajada axborot beradi, lekin ta’lim sifatiga ta’sir etish va uni boshqarish uchun etarli emas.

Malaka oshirish ta’limi muassasalarida ta’lim sifatini boshqarish mexanizmlaridan yana biri malaka oshirishga kuyiladigan Davlat talablaridir.

Xalq ta’limi xodimlarining malakasini oshirish jarayonidagi ta’lim sifati – malaka oshirish ta’lim muassasasidagi ta’lim jarayonlarining davlat talablariga, erishilishi mumkin bo‘lgan natijalarga, mezon va ko‘rsatkichlarda ifodalangan ijtimoiy va shaxsiy kutishlarga moslik darajasini aks ettiruvchi umumlashtirilgan xususiyatidir.

Ta’lim dasturlarini ichki baholash natijasida ta’lim muassasasi tomonidan o‘qitishning an’anaviy va interfaol shakllari, ularning o‘zaro nisbati, tinglovchilarning joriy, oraliq, yakuniy attestatsiyasi natijalari, o‘qitish metodlari va ularning tinglovchilar tomonidan qabul qilinishi haqidagi ma’lumotlar shakllantiriladi.

Mazkur ma’lumotlarni e’tiborga olgan holda ta’lim dasturini o‘qitish metodlari, joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar jarayonida tinglovchilar bilimini baholash mexanizmlarining mavjudligi va samaradorligi hamda o‘qitish sifati nazorati mexanizmlari kabi ko‘rsatkichlar asosida tashqi baholash amalga oshiriladi. SHuningdek, ekspertlar ta’lim dasturini tashqi baholash jarayonida uning sifatini baholash mezonlariga (yuqori, o‘rtacha, past darajada) mosligini aniqlaydilar va quyidagi asosiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha baholashni amalga oshiradilar: dasturning

o‘quv-uslubiy ta’minoti, zarur o‘quv adabiyotlarning mavjudligi va miqdorining etarliligi, o‘quv jarayonining moddiy-texnika ta’minoti.

Ta’lim dasturlarida dars beruvchi professor-o‘qituvchilar saviyasini ichki baholash natijasida ularning umumiy soni, bloklararo taqsimlanishi, xorijiy tilni bilish darajasi kabi ko‘rsatkichlar bo‘yicha ma’lumotlar jamlansa, tashqi baholash natijasida o‘qituvchilarning malaka saviyasi, kompetentligi va professor-o‘qituvchilar tarkibining barqarorligi kabi ko‘rsatkichlar bo‘yicha mavjud holat aniqlanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ichki nazorat tizimi yordamida to‘plangan ma’lumotlar asosida muassasadagi ta’lim sifatining tashqi ekspertizasini etarli darajada xolis o‘tkazish mumkin bo‘ladi.

Ta’lim sifatini nazorat qilish borasida mamlakatimizda va xorijda joriy etilgan ilg‘or tajribalar tahlili, olib borilgan amaliy tajribalar asosida sifatni ta’minlash tizimi, baholash bilan bog‘liq bosqichlardan tashqari sifatni takomillashtirish bo‘yicha echimlarni axtarish va qarorlar qabul qilish, shuningdek, ularni joriy etish bosqichlarini ham qamrab olishi mazkur tizimning eng muhim jihatlari – uning davriyligi va takomillashishga yo‘naltirilganligida namoyon bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, xalq ta’limi tizimidagi islohotlar ta’lim-tarbiya jarayonlarini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishni, ya’ni ta’lim sifati va samaradorligini ta’minlashning eski metodlaridan voz kechib, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishlar va zamonaviy talablarga mos keladigan, demokratik tamoyillarga asoslangan ta’lim boshqaruvini shakllantirish zaruratini ilgari surmoqda.

**Foydalanilgan manbalar:**


1. Incheon Declaration/ Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (Word Education Forum, 19-22 may 2015, Incheon, Republic of Korea).

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-sonli “Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi” to‘g‘risidagi Farmoni.

3. Qurbonov SH., Seytxalilov E. Ta’lim sifatini boshqarish. –T.: “Turon-Iqbol”, 2006. –592 b.

# IXTISOSLIK O'QUV PREDMETLARINING PREDMETLARARO ALOQADORLIGI – KASBIY TA'LIM UZVIYLIGINI TA'MINLASHNING MUHIM OMILI SIFATIDA

***R.I.ORIPOVA,***
*ToshDAU dotsenti, p.f.n.*

*Mazkur maqolada predmetlararo aloqadorlik asosida bir-birini to'ldiruvchi, kengaytiruvchi, chuqurlashtiruvchi o'quv predmetlarini mazmun va mantiqiga ko'ra yaxlit holatga keltirish, ya'ni tizimlashtirish, ularni Davlat ta'lim standarti doirasida muvofiqlashtirish, uyg'unllashtirish xususida so'z boradi.*

***Tayanch so'zlar**: umumkasbiy, ixtisosolik, predmetlararo aloqadorlik, integratsiyalash, psixologik tahlil, didaktik tizim, majmuaviy, muvofiqlashtirish, tizimlashtirish, umumkasbiy.*

*Эта статья посвящена интеграции взаимодополняющих, расширяющихся, углубляющихся предметов на основе междисциплинарных отношений с точки зрения содержания и логики, то есть систематизации, их координации в рамках Государственного образовательного стандарта.*

***Ключевые слова**: общее, специализация, междисциплинарный, интеграция, психологический анализ, дидактическая система, комплекс, координация, систематизация, общее.*

*This article is devoted to the integration of complementary, expanding, deepening subjects on the basis of interdisciplinary relations in terms of content and logic, that is, systematization, their coordination within the framework of the State educational standard.*

***Key words:** general, specialization, interdisciplinary, integration, psychological analysis, didactic system, complex, coordination, systematization, general.*

Pedagogika fanida predmetlararo aloqadorlik muammosining qo'yilishi, eng avvalo, asosiy diqqat-e'tiborni o'quv rejasida ko'zda tutilgan o'quv predmetlarini o'rganishni muvofiqlashtirish va o'quvchilarda mazmunan mukammal, mantiqan tugal tizimli bilim, xatti-harakat usullari va shaxsiy fazilatlarni shakllantirishga qaratiladi. Predmetlararo aloqadorlik ta'lim mazmunining tarkibiy mantiqiy jihatlariga ahamiyat berishni talab etadi. Shu nuqtai nazardan u didaktik muammo, prinsip, shart-sharoit, vosita, metod kabi yo'nalishlarda tadqiq etilib, uzluksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlariga joriy etilishi zarur. Tahlillarimiz predmetlararo aloqadorlik masalasini nazariya va amaliyotda quyidagi yo'nalishlarda tadqiq etilayoganligini ko'rsatadi.

Predmetlararo aloqadorlikni amalga oshirishda ko'proq umumilmiy, umumkasbiy va maxsus o'quv predmetlari orasidagi aloqadorlik tadqiq

etilayotganligi ham ma'lum. Bunday aloqadorlik tabiiy hol bo'lib, sun'iy qurilmalar va texnologiya jarayonlari asoslarini ilmiy ravishda anglashga imkon beradi.

V.A. Skakun kasb-hunar ta'limini o'ziga xos jihatlarini hisobga olgan holda predmetlararo aloqadorlikni quyidagicha tasniflab tadqiq etishni tavsiya etadi:

1. O'quv materialining mazmuni bo'yicha;

2. Shakllanishi ko'zda tutilgan xatti-harakat usullari (ko'nikma va malakalar) bo'yicha;

3. Ta'lim metodlari va vositalari bo'yicha.

Predmetlararo aloqadorlikning turli jihatlariga ko'ra tasniflab ularning roli va o'rnini baholash ularni amalga oshirish usullarini aniqlash imkonini beradi. Predmetlararo aloqadorlikdan zamonaviy darsning dolzarblashtirish, yangi materialni o'rganish, qo'llash, nazorat qilish, uyga vazifa berish kabi barcha bosqichlarida foydalanish imkoniyatlari mavjud.

Bizningcha, amaliyotda predmetlararo aloqadorlikni amalga oshirilishiga quyidagilar ma'lum ma'noda to'sqinlik qiladi:

1. O'quv predmetlarida o'zaro muvofiqlashtirilmagan atama (termin) va tushunchalarning qo'llanilishi;

2. O'quv materialidan asosiy g'oya, nazariya, masala yoki tushunchalarning ajratib olinmaganligi yoki ko'rsatilmaganligi;

3. Ilmiy bilimlarning ichki aloqadorligini hisobga olinmaganligi (bilimlarda mantiqiy tugallikning hisobga olinmaganligi);

4. O'quv predmetlarining tarqoqligi (yaxlit holda tashkil etilmaganligi va aniq yagona maqsadni ko'zda tutmaganligi), ularning mazmunan uzviy bog'lanmaganligi va izchil o'rganilmaganligi;

5. O'quvchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasi, predmetlarni o'zaro aloqadorlikda o'qitishga munosabati va shu kabilar.

Predmetlararo aloqadorlik ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish omili bo'lishiga qaramay shu paytgacha u ilmiy jihatdan etarli darajada ishlab chiqilmaganligi tufayli kasb-hunar pedagogikasida ham etarli darajada tadqiq etilmagan hisoblanadi.

Predmetlararo aloqadorlik tushunchasini qanday pedagogik kategoriyaga kiritish haqida yagona fikr yo'qligiga qaramay, u o'z dolzarbligini yo'qotmaydi. Predmetlararo aloqadorlikni pedagogik muammo sifatida talqin etib, uning yordamida o'quvchilar tomonidan kasbiy bilim va xatti-harakat usullarini tizimli o'zlashtirishlarini aniqlashga harakat qilamiz. Chunki predmetlararo aloqadorlikni o'rnatish, belgilab olish (qayd etish) va amalga oshirishning zarurligi har tomonlama bilimdon, mustaqil va ijodiy faoliyat ko'rsata oladigan mutaxassis shaxsni tarkib toptirish maqsadini ko'zda tutadi.

Genetik jihatdan predmetlararo aloqadorlik o‘rganilayotgan ob’ektlar aloqadorligi (predmetlar, insonlar, hodisalar va jarayonlar)dan kelib chiqadi. Predmetlararo aloqadorlikning metodologik asosi moddiy olamning yaxlitligi, nazariya va amaliyotning birligi, olam, jamiyat va tafakkurning o‘zgarishi va rivojlanishi hisoblanadi.

Predmetlararo aloqadorlikning psixofiziologik asosi inson tafakkuri, ya’ni fikr yuritish tabiatidan kelib chiqadi. Chunki predmetlararo aloqadorlik o‘rganilayotgan ob’ektlarning yangi qirralarini bilishga imkon beradi va ko‘lam jihatdan keng va chuqur, mohiyatiga ko‘ra yaxlit tizim shaklidagi bilim, xatti-harakat usullari hamda shaxsiy fazilatlarning shakllanishiga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Didaktik nuqtai nazardan olib qaraganda, predmetlararo aloqadorlik o‘qituvchi va tahsil oluvchilarning o‘zaro hamkorlik faoliyati jarayonida o‘rganilayotgan ob’ektlarning mazmuni va mohiyatini ochib beradi. Predmetlararo aloqadorlikning didaktik jihatdan muhimligini quyidagicha ifodalash mumkin:

1. “Predmetlararo aloqadorlikni amalga oshirish mukammal bilimlar tizimini tarkib toptirish va rivojlantirishning zaruriy shartidir;

2. Moddiy dunyoning yaxlitligiga asoslangan holda, dialektik dunyoqarashni shakllantirishda ta’lim mazmunining barcha tarkibiy qismlari organik aloqadorlikni talab etadi;

3. U zamonaviy texnika, ilg‘or ishlab chiqarish texnologiyalari, mulkchilikning shakllari, yangicha xo‘jalik yuritish va shu kabilarning ilmiy asoslari mazmuni hamda mohiyatini anglab etishga imkon beradi;

4. O‘rganilayotgan o‘quv predmetlarini mazmunan o‘zaro muvofiqlashtirishni ko‘zda tutadi;

5. Predmetlararo aloqadorlik o‘quv materialini takrorlanishiga chek qo‘yish, o‘quv vaqtini iqtisod qilish kabilar bilan shaksiz tashkiliy-iqtisodiy samara beradi;

6. Ta’lim-tarbiya jarayonini majmuaviy muvofiqlashtirib, g‘oyaviy-siyosiy, axloqiy, estetik va mehnat tarbiyasini oshishiga imkon beradi”.

O‘quv materiali uning o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilishi muhim bo‘lgan jihatlarni aniqlab olish, unga mos o‘quv-bilish faoliyatlarini samarali tashkil qilish uchun psixologik jihatdan tahlil qilinadi. Psixologik tahlil mantiqiy tahlil funksiyalarini kuchaytirishga xizmat qiladi. Psixologik tahlil o‘qituvchi darsga tayyorgarlik ko‘rayotgan paytda uni dolzarblashtirish, yangi tushuncha va xatti-harakat usullarini shakllantirish, mustahkamlash va boshqa bosqichlarda muammoli vaziyatlarni yuzaga keltirish hamda ular echimini topish usullarini belgilab olishga imkon beradi.

1. O‘quv materiali qanday tarbiyaviy ahamiyatga egaligini aniqlash maqsadida tahlil qilinib, ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlar

uyg‘unligiga erishiladi.

2. Amalga oshirish - oldindan belgilab olingan aloqadorlikni bevosita ta’lim-tarbiya jarayoniga joriy etishni ko‘zda tutadi.

3. Nazorat qilish bosqichi ko‘zda tutilgan maqsad bilan olingan natijalarni qiyoslab xulosa chiqarish va unga mos ish ko‘rishni talab etadi. Bu bilan oldingi bosqichlarga ma’lum bir o‘zgartirishlar kiritish imkoni ham hosil bo‘ladi.

Predmetlararo aloqadorlik ko‘p qirrali murakkab pedagogik muammo sifatida faqat vaqt bo‘yicha amalga oshirilishi bilan chegaralanmasdan, balki o‘quv materialining mazmunini tashkil etuvchi dalillar, tushunchalar, qoidalar, nazariyalar va shu kabilar bilan ham tavsiflanadi, umumiyligi bo‘yicha aloqadorlik quyidagilarnita’minlaydi va imkoniyat yaratadi:

- o‘quv materiali tarkibiga kiruvchi dalillar, tushunchalar hukm, xulosa va, nazariyalar tarkib topishi uchun zaruriy tayanch hisoblanadi va o‘rganilayotgan ob’ektning eng muhim jihatlari, aloqalari, munosabatlarini to‘liq idrok etilishini ta’minlaydi;

- tushunchalar o‘rganilayotgan ob’ektlarning eng muhim jihatlari, aloqalari, munosabatlariga oid aloqa va munosabatlarni o‘zida aks ettirib, nazariy umumlashtirilgan xulosalar chiqarishga imkoniyat yaratadi.

Predmetlararo aloqadorlik mohiyati, ko‘lamining kengligiga ko‘ra uzviy, o‘zaro va integrativ aloqadorlikdan ustun turadi, chunki uning yo‘nalishi vaqt bo‘yicha ham, mazmun bo‘yicha ham, qo‘llaniladigan metodlar va shu kabilarga ko‘ra ham chegaralanmagan. Shuningdek,predmetlararo aloqadorlik tashkiliy-iqtisodiy, tuzilmaviy jihatlarga ham ega. Ulardan unumli foydalanish o‘quv vaqtini iqtisod qilishga, o‘quv rejasi, dastur, darslik va shu kabilarning mantiqiy tuzilishini aniqlashga imkon berib, ta’lim-tarbiya jarayonida yuqori samaradorlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Predmetlararo aloqadorlik asosida bir-birini to‘ldiruvchi, kengaytiruvchi, chuqurlashtiruvchi o‘quv predmetlarini mazmun va mantiqiga ko‘ra yaxlit holatga keltirish, ya’ni tizimlashtirish, ularni Davlat ta’lim standarti doirasida muvofiqlashtirishni, uyg‘unllashtirishni ham ko‘zda tutadi.

Integratsiyalashtirish g‘oyasi turli sohada faoliyat ko‘rsatuvchi mutaxassis olimlarning qarashlarini muvofiqlashtirishga yo‘naltirilganligi natijasida “gibridlashgan-qo‘shma mazmunli” “integrativ” o‘quv predmetlari yuzaga kela boshladi. Integrativ o‘quv predmetlari mazmunida bir-birini kengaytiruvchi, to‘ldiruvchi va chuqurlashtiruvchi turli sohalardagi tushuncha, dalil, qonun, nazariyalar ichki aloqalari, ya’ni mazmunan tutashligiga ko‘ra tizimlashtiriladi. Bunga yorqin misol sifatida qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashtirishga oid o‘quv predmetini ko‘rsatish mumkin.

Har qanday mashina, shuningdek, qishloq xo‘jalik mashinalarining ham yaratilishi eng avvalo hayotiy talablardan kelib chiqib, insonning jismoniy va aqliy mehnatini engillashtirish, mahsulot sifat va samaradorligi uchun ishlab chiqilgandir. Inson mehnatini maqsadga muvofiq engillashtirish uchun esa, u (mashina) inson hayoti va sog‘ligi uchun xavfsiz, tuzilishi jihatidan murakkab bo‘lmay, balki oddiy, kam mablag‘ va material talab etadigan (yengil, arzon, puxta, ishonchli ishlaydigan); ish unumi va sifati yuqori bo‘lishi kerak. Amaliyotda ishlatiladigan mashina va qurollarning yuqoridagi va boshqa xususiyatlarini ijobiy tomonga o‘zgartirish borasida ixtirochi olimlar tomonidan tinmay izlanishlar olib borilmoqda. Buning natijasida keng qamrovli tezkor mashinalar ishlab chiqilmoqda. Mashinalarning ish sifatini oshirishda faol(aktiv) ish organlarining o‘rnatilishining muhimligi chet elda ishlab chiqarilayotgan mashinalarda o‘z ifodasini topdi.

Yuqoridagi misolda biologiya, ximiya, agronomiya, texnika, texnologiya, iqtisodiyot, ekologiya va shu kabilar haqidagi bilimlarni integratsiyalashganligiga ishonch hosil qilamiz. Bu, albatta, ta’lim oluvchilarda turlicha yo‘nalishlar bo‘yicha bilim va xatti-harakat usullarini uzluksiz tarkib toptirishga qaratilgan.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, integratsiyalab o‘qitish faqatgina mazmunni muvofiqlashtirishni emas, balki o‘qitishning tashkiliy shakllari, metod va vositalarini ham ilmiy asoslangan holda tanlashni nazarda tutadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Авлиёқулов Ҳ.Н. Ўқитишнинг модул тизими ва педагогик технологиясининг амалий асослари.-Бухоро.” Муаллиф.”-2001.56 б.

2. Азизхўжаева Н.Н. Педагогик технология ва педагогик маҳорат (барча мутахассислик магистратура йўналиши учун ўқув қўлланма. - Т.: 2003. – 174

3. Ҳайдаров Ё. Ўрта махсус мактаб педагогикаси масалалари: умумий ва касб-ҳунар таълими бирлиги.- Тошкент: меҳнат нашриёти -1992.- 140 б.

4. Абдуқудусов О., Бабажанов Б. Изучение предмета «Сельскохозяйственные машины» во взаимосвязи с дисциплинами естественно-математического цикла (методические рекомендации) – Ташкент, РУМЦ – 1990. – 39 с.

# PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMI PEDAGOG KADRLAR MALAKASINI OSHIRISHDA AXBOROT – TA'LIM MUHITINING IMKONIYATLARI

***K.A.KARIMOV,***
*p.f.f.d (PhD)*

*Ushbu maqolada professional ta'lim tizimi pedagog kadrlar malakasini oshirishda axborot-ta'lim muhitining imkoniyatlari bayon etilgan bo'lib, ta'limning innovatsion axborot-didaktik shakllari, ta'limni axborotlashtirish masalalari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, maqolada axborot - ta'lim muhiti, bu ta'limiy axborotlarni uzatish va tez almashishni ta'minlovchi vosita sifatida talqin qilingan.*

***Tayanch so'z va iboralar:*** *professional ta'lim, pedagog kadrlar, malaka oshirish, ta'limni axborotlashtirish, axborot-didaktik shakllar, axborot-ta'lim muhiti, muhitli yondashuv, sifat va samaradorlik, motivatsiya, ta'lim muhiti.*

*The article discusses the possibilities of the information and educational environment in the professional development of teachers in the vocational education system, innovative information and didactic forms of education, issues of informatization of education. The article also interprets the educational information environment as a means of transmission and rapid exchange of educational information.*

***Key words:*** *professional education, teaching staff, professional development, informatization of education, information and didactic forms, information and educational environment, ecological approach, quality and efficiency, motivation, educational environment.*

*В статье рассмотрены возможности информационно-образовательной среды в профессиональном развитии учителей в системе профессионального образования, инновационные информационно-дидактические формы обучения, вопросы информатизации образования. В статье также интерпретируется информационно-обучающая среда как средство передачи и быстрого обмена учебной информацией.*

***Ключевые слова:*** *профессиональное образование, педагогический коллектив, повышение квалификации, информатизация образования, информационно-дидактические формы, информационно-образовательная среда, экологический подход, качество и эффективность, мотивация, образовательная среда.*

Uzluksiz pedagogik ta'limning muammosini hal qilish sohasidagi nazariy va amaliy tajribaga ijobiy baho berib, hozirda shakllangan tuzilmaviy-mazmunli va protsessual tarkibiy qismlar pedagog kasbiy faoliyatining tabiatiga mos kelmasligini ta'kidlash lozim. Professional ta'limtizimi rahbar va pedagogik

kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirishning amaldagi tizimi zamonaviy talablarga to‘liq javob bermaydi.

Ta’lim sifati va samaradorligiga qo‘yilayotgan talablar professional ta’lim tizimi pedagog kadrlari malakasini oshirishning mazmunini, shakllari va metodlarini ana shu talablarga mos ravishda takomillashtirib borishni taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 sentyabrdagi “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5812-son farmonida professional ta’lim dasturlari YUNESKO tashkiloti tomonidan qabul qilingan Ta’limning xalqaro standart tasniflagichi (MSKO) darajalari bilan uyg‘unlashmaganligi, o‘quv jarayoniga O‘zbekistonning Milliy kvalifikatsiya tizimi to‘laqonli joriy etilmaganligi tayyorlanayotgan kadrlarning mehnat bozorida munosib o‘rin egallashlariga to‘sqinlik qilayotganligi ta’kidlangan[2].

Malaka oshirish sohasidagi sifat o‘zgarishlar va yuqori samaradorlik ularning jahon ta’lim talablari bilan mosligi va pedagoglarning kelgusi mehnat faoliyatlarida o‘zlashtirgan kompetensiyalari qay darajada amaliyotga tatbiq qilinayotganligiga bog‘liq. Ta’lim-tarbiyadagi sifat o‘zgarishlar va yuqori samaradorlik esa mazkur sohaga ijobiy yangilik kiritish bilan belgilanadi. Bunday yangilikni kiritish jarayoni innovatsion jarayon bo‘lib, ilg‘or pedagogik texnologiyalarni joriy qilib, ta’limda sifat va samaradorlikka erishishdan iborat bo‘ladi. Bu esa kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimi oldiga barcha soha mutaxassislarining, shu jumladan, professional ta’lim tizimi o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi saviyasini zamon talablariga mos tarzda uzluksiz takomillashtirib borish vazifasini qo‘yadi.

Ta’limning innovatsion axborot-didaktik shakllari - ta’lim oluvchining qobiliyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ta’lim - tarbiya mazmunini, ta’lim maqsadiga mos ravishda loyihalash hamda pedagogik, axborot-kommunikatsion uslublar, shakllar va o‘qitish usullarini tadbiq etishga yo‘naltirilgan psixologik, umumpedagogik, didaktik va shaxsiy uslubiy tartiblar asosida amalga oshiriluvchi ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir tizimidir. Professional ta’lim tizimi pedagog kadrlari malakasini oshirishning innovatsion axborot-didaktik shakllari – yuqori darajadagi samaradorlikni ta’minlovchi, pedagogik qonuniyatlar, maqsadlar, tamoyillar, mazmun, shakl, uslublar, o‘qitish vositalari va AKT dan hamda tarbiyalash usullaridan tashkil topgan loyihalash va mos ravishda ushbu texnologiyani amaliyotda qo‘llash tizimidir[3; 18-b.].

Ta'limni axborotlashtirishning maqsadi axborot va telekommunikatsion texnologiyalarni qo'llash hisobiga intellektual faoliyatni global jadallashtirishdan iborat. Ushbu muammolarni hal qilish doirasida texnologiyalar va axborotlashtirish vositalarini bir tizimga birlashtirishning pedagogik, metodik va texnologik asoslarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan tadqiqotlar o'tkazish lozim. Bunday tizim sifatida axborot-ta'lim muhiti taklif qilinishi mumkin.

Axborot-ta'lim muhiti - bu ta'limiy axborotlarni uzatish va tez almashishni ta'minlovchi vosita hisoblanadi. Ushbu muhit asosida ta'lim oluvchilarni bir-birini tushunishga, o'zgalar fikrini hurmat qilishga, o'z fikrini erkin bayon qilishga va birgalikda muammolarni hal etishga o'rgatishga imkoniyat yaratiladi. Natijada yagona ta'lim sohasiga kirib boriladi.

H.F.Rashidov fikricha ta'limiy muhit quyidagicha shakllantiriladi: "Qachonki, ta'lim olishga motivatsiyasi bo'lgan shaxs paydo bo'lsagina, muhit ta'limiy bo'ladi. Bunda bitta muhit bir odamga ta'limiy bo'lsa, boshqasiga neytral bo'ladi, har bir odam muayyan ta'limiy makon chegaralarida o'zining ta'limiy muhitini shakllantirish imkoniyatiga ega" [4].

"Ta'lim muhiti" atamasi V.A. Yasvinning ishida etarli darajada aniq ta'riflangan, u ta'lim muhiti -deb "shaxsning berilgan namunaga ko'ra shakllanishining ta'sirlari va sharoitlari hamda ijtimoiy va fazoviy-predmetli qurshovda tarkib topgan uni, rivojlanishi uchun imkoniyatlar" ni tushunadi [5].

Axborotli-ta'lim muhitining nazariy yadrosi – pedagogika fanining yangi yo'nalishi bo'lib, axborot-ta'lim muhiti yangilanishga yo'naltirilganlik mohiyatidan kelib chiqib, pedagogik jarayonlarni tadqiq qiladi. Shuning uchun an'anaviy ta'lim jarayoniga u yoki bu shaklda yangi pedagogik tizimni kiritish ko'p hollarda samarasizdir. Shu bois yangi sifat tuzilmasiga, tizimni tashkil etishning yangi mezonlariga ega bo'lgan butunlay yangi didaktik modelni yaratish lozim.

Axborot-ta'lim muhitining ko'pgina ta'riflari tahlili - ta'lim jarayonini axborot, texnik va o'quv metodik ta'minoti hamda uning ishtirokchilarining o'zaro munosabat tizimidir - deb xulosa qilish imkonini beradi.

Axborot ta'lim tizimini shakllantirish tadqiqotimiz vazifasi doirasida axborot-ta'lim muhiti tushunchasi N.F.Abdunazarovaning ishida quyidagicha ta'riflangan: "Axborot muhiti, axborotni yaratish va qo'llashning individual-shaxsiy tomonlari bilan yuqori darajada bog'liq bo'lgan tushunchadan iborat. Ta'lim jarayonining har bir sub'ekti o'zining axborot muhitini mustaqil shakllantiradi. Axborot resurslarini yaratar va iste'mol qilar ekan, ta'lim jarayoni sub'ekti nafaqat o'zi

rivojlanadi, balki axborot muhitini ham rivojlantiradi. Shu tarzda individual axborot muhitlaridan ta'lim jarayonining axborot tizimi bo'lgan axborot makoni paydo bo'ladi" [6]. Juda ko'pchilikni tashkil etadigan bunday ta'riflarda murakkab hodisa bo'lgan axborot-ta'lim muhitining mohiyatini tushunishda fikrlarning anchagina turlichaligini ko'rish va unda eng muhim xarakterli tomonlarni ajratib olish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, pedagog kadrlar malakasini oshirishning axborot-ta'lim muhiti kompyuterli telekommunikatsiya asosida tashkil etilgan, umumiy muammo, maqsad, kelishilgan uslublar va faoliyat usullariga ega, faoliyatning birgalikdagi natijasiga erishishga yo'naltirilgan ta'lim oluvchi - hamkorlarning o'quv-bilish, tadqiqiy, ijodiy, ilmiy faoliyati tushuniladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги Фармони.// Ўзбекистон Республикаси Қонун Ҳужжатлари тўплами. –Т., 2017. –Б.39.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 6 сентябрдаги "Профессионал таълим тизимини янада такомиллаштиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"ги ПФ-5812-сон Фармони.

3. Макаров С. И. Методические основы создания и применения образовательных электронных изданий (на примере курса математики): дис.… д-ра.пед. наук: 13.00.02.- М.: ИОСО РАО. 2003.-242 с.

4. Рашидов Х.Ф. Теоретико-методологические и социально-педагогические основы развития среднего специального, профессионального образования в Узбекистане (на материалах реализации национальной программы по подготовке кадров). Дисс. …докт. пед. наук. -Ташкент, 2005. 311 с.

5. Ясвин В.А. Образовательная среда: от моделирования к проектированию. -М.: Олма-Пресс, 2001.365 с.

6. Абдуназарова Н.Ф. Педагогические основы повышения квалификации преподавателей профессиональных колледжей в условиях информатизации образования Дисс. к. п. н. - Т. 2008 -151 с.

# НЕПРЕРЫВНОЕ ОБУЧЕНИЕ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ УЧАЩИХСЯ И СТУДЕНТОВ С ПРИМЕНЕНИЕМ ЭФФЕКТИВНЫХ МЕТОДОВ И ПРИЁМОВ

**_Ф.А.ТИЛЛАБОЕВА,_**
*ассисент АнТГАУ*

*Ушбу мақолада техник фанларига иҳтисослашган олий ўқув юрталарида бир нечта босқичдан иборат бўлган инглиз тилини ўргатиш курсини ташкиллаш бўйича сўз юритилади. Ҳар бир босқичда талабалар материалларни самарали тарзда ўзлатиришларига ва инглиз тили билимларининг турли жиҳатларини ривожлантиришига ижобий таъсир кўрсатадиган усуллари тўғрисида маълумот берилади.*

***Таянч сўзлар:*** *лексика ва грамматика базаси, «Грамматик таржима қилиш» усули, коммуникатив усули,ўйин назарияси, тил барьери, алгоритм, контентга мўлжалланган усули, саноат соҳаси.*

*В данной статье рассматривается процесс организации курса обучения английскому языку студентов технических вузов в несколько этапов: от базового к профессиональному. При описании каждого из этапов представлены методы и приемы, способствующие эффективному усвоению материала и развитию различных аспектов владения английским языком у студентов.*

***Ключевые слова:*** *лексико-грамматическая база, метод «грамматического перевода», коммуникативный метод, игровая теория, языковой барьер, алгоритм, контент-ориентированный метод промышленная сфера.*

*This article highlights the process of creating educational course of teaching English language for students of technical universities. The course is subdivided into several stages from a basic stage to a proficient one. Describing each stage, the author explains the methods contributing to improvement of various skills of using English.*

***Key words:*** *lexical and grammar foundation, «Grammar translation method», communicative method, the game theory, language barrier, algorithm, content-aimed method, the domain of industry.*

Каждое элементарное действие учителя по выбору методов обучения, направленное на учащегося, вызывает переход учащегося из одного состояния в другое[1]. Например, если на первом этапе с целью формирования лексико-грамматической базы широко применяется метод грамматического перевода, который подразумевает организацию изучения английского языка опосредованно через родной язык, то на заключительном этапе возможно применение контент-ориентированного метода, который включает

понимание материала на основе контекста и нацелен на использование языка в профессиональнойпрактике.

**На начальном этапе изучения английского языка** (первый семестр 1 курса) студентам важно понять его морфологические и синтаксические основы, а также сформировать базовые знания часто используемых академических слов, распределенных по темам. Объяснения правил грамматики и лексического значения слов на данном этапе осуществляется через родной язык учащегося, то есть применяется метод«Грамматического перевода».

При применении данного метода изучение лексики осуществляется на основе запоминания списка слов с переводом на родной язык. Если студенты получают список объединенных одной тематикой слов с переводом их значений, а также текст и упражнения с применением данной лексики, чаще всего, это способствует пополнению их словарного запаса и умению применять слова для составления предложений и перевода текстов. Чтобы учащиеся сумели оптимальным образом улучшать свой словарный запас, они не должны ограничиваться механическим заучиванием слов с переводом. Слова лучше запоминаются вместе с их синонимами или антонимами, которые обычно встречаются в одном тексте. Также целесообразным является применение толковых словарей Кембриджского или Оксфордского университетов, онлайн версии которых в настоящее время доступны на разных языках, в том числе на русском.

Метод «Грамматического перевода» может быть применен при обучении студентов навыкам чтения и понимания целого текста. С целью оценки восприятия текста, составляются вопросы по отдельным частям и общему смыслу текста. Вопросы могут касаться содержания текста или способности сделать вывод из целого текста[2].

Преподавая грамматику по выше упомянутому методу, учитель должен представить вниманию учащихся формулы и правила применения тех или иных грамматических категорий. Необходимо после объяснения каждой формулы и правила применения дать возможность студентам составлять свои собственные примеры. Это позволит более ясному пониманию определенных правил. В особенности, указанный порядок действий идеально работает приобъяснений времен глагола в действительном и страдательном залоге английского языка.

Для дальнейшего контроля знаний преподаватель должен способствовать самостоятельной работе учащихся с упражнениями по пройденному материалу. Чаще всего применяются задания, где требуется заполнить пропуски нужной формой слова, исправить допущенные ошибки и произвести перевод с родного языка на английский.

По завершении первого этапа, у студентовдолжны быть сформированы знания грамматики и лексики английского языка на уровне (B1).

**Второй этап** включает в себя формирование навыков восприятия студентами текста и речи, а также ее воспроизведение в устной и письменной форме. На второй этап целесообразно отвести примерно 1 год и 6 месяцев. В течение данного периода необходимо распределить учебное время занятий ориентируясь на развитие у студентов 4 навыков (аудирование, чтение, письмо и разговорная речь). Учитывая многонаправленность подготовки, для совершенствования каждого из навыков потребуется своя методика, отдельные приемы и материалы.

С целью развития навыков восприятия речи на слух эффективным будет использование приема "обучения через аудирование", который способствует улучшению уровня владения английским языком следующим образом: студенты научатся выделять общий смысл диалога и ключевые детали. Для эффективного образовательного процесса рекомендуется использовать материалы ембриджского Университета для подготовки к экзаменам системы IELTS, так как они включают в себя повседневную речь, беседы преподавателей и студентов по академическим вопросам, а также материалы лекций, которые читают профессора образовательных учреждений высшего уровня. По ходу изучения материалов, учащиеся могут закрепить знания устойчивых выражений, практической грамматики, а также произношения английского языка. Содержание бесед преподавателей и студентов, а также выступлений лекторов в аудиоматериалах позволят учащимся подготовиться к дальнейшему восприятию профилирующих предметов на английском языке. Учитель на данном этапе должен помочь студентам стать эффективными слушателями [3].

Данный приём целесообразно совмещать с "обучением через чтение", который представляет собой работу учащихся с текстом с различными тестовыми заданиями. Наиболее оптимальными для развития навыков чтения также являются материалы Кембриджского Университета, используемые для подготовки к IELTS экзаменам. При выполнении заданий студентысравнивают и сопоставляют отдельные части текста, делают вывод из смысловых частей текста и целого текста. Наряду с вышеуказанными навыками, студенты эффективно развивают свой словарный запас, так как работа с текстом предполагает выделение ключевых слов вопросов и нахождение их синонимов ифраз, выражающих смысловую связь с ними.

Помимо навыков восприятия текстовой и аудио информации, слушателям курса необходимо начинать совершенствовать умения выраже-

ния своих мыслей посредством устной и письменной речи.

С целью улучшения устной речи учащихся, преподаватели могут использовать "Коммуникативный метод обучения языка". Данный метод подразумевает развитие у учащихся способностей общаться на иностранном языкеи выражать собственные мысли и переживания, вне поля традиционной грамматики. То есть, преподаватель должен дать возможность студенту преодолеть языковой барьер, отодвигая на второй план допущенные грамматические и лексические ошибки. Оптимальным будет, если преподаватель слушая студента фиксирует характерные ошибки в тетрадь по ходу ответа или записывает речь на диктофон для дальнейшего разбора.

Важным средством при совершенствовании у студентов способности к общению на английском языке являются игры. Игра открывает широкие возможностидля коммуникации, позволяет участникам более интенсивно взаимодействовать друг с другом и находить верные стратегии совместной деятельности в процессе общения. Коммуникативная игра направлена на формирование «способностей обучающихся к безбарьерной коммуникации в межкультурном контексте, повышает мотивацию обучающихся к изучению иностранного языка»[4].

Использование в процессе обучения студентов иностранному языку речевых игр имеет 4 функции, выступая как средство развития мотивационно-потребностной сферы; средство познания; средство умственных действий и средство развития произвольного поведения. Игра всегда предполагает принятие решения – как поступить, что сказать, как выиграть.

В комбинации с развитием устной речи, преподавателю необходимо развивать навыки письма учащихся. На данном этапе, преподаватель должен закрепить теоретический материал по видам предложений, вводным словам и союзам связывающим предложения, и пунктуации. Отдельную важность представляет пояснение структуры абзаца по типу тезис – аргумент, которая является базовой для всех письменных работ в английском языке. Предпочтительно использование пособий таких авторов как Oshima и Collins, которые дают возможность студентам улучшать навыки поэтапно от составления предложений до написания эссе. По завершению 2-го этапа учащиеся необходимо организовать тестирование по подобию экзамена IELTSс целью определения уровня владения языком учащимися. Ориентиром для минимального балла может служит оценка 6.0 (B2) по системе экзаменов IELTS.

**На завершающем этапе, с** учетом того, что учащиеся получают достаточный академический уровень знаний английского языка, преподавание должно быть нацелено на усвоение студентом материала по техни-

ческой профессии. На этом этапе необходимо, чтобы преподаватель сам на достаточном уровне владел пониманием технологического процесса с целью доступной подачи материала студентам.

Эффективному преподаванию будут содействовать материалы, признанные мировой практикой обучения английскому языку специалистов в сфере инжинерии и технологии. В частности, рекомендуется учебник под авторством Марка Ибботсона из серии изданий Кембриджского университета Professional English in Use под названием Engineering: Technical English for Professionals с прилагаемым к нему аудио материалом. Книга содержит набор лексики, тексты и задания по ключевым направлениям инженерии таким, как проектирование, материаловедение, механика, энергетика и другим дисциплинам. Прилагаемые аудиоматериалы помогут развить навыки понимания сложного технологического процесса на слух. Также в книге имеются задания способствующие формированию умения объяснить технические операции. Таким образом, окончании курса студент будет способен свободно общаться со специалистами промышленных предприятий, ведущих деятельность на английском языке.

Таким образом, повышение уровня знаний английского языка студентов технических вузов до профессионального уровня является на сегодня актуальной задачей. Инженеры владеющие техническим английским поднимут сферу индустрии на качественно новый уровень, минуя трудности перевода технологического процесса, с которым сталкивается переводческий персонал, который имеет филологическое образование.

**Список литературы:**

1. Дмитренко Т.А. Методика преподавания английского языка в вузе. «Москва», 2009. – С.124

2. Iliescu A. Methods of Teaching English as a Foreign Language // Papers of the Sibiu Alma Mater University Conference. 2014 March 27-29. 8th edition, Vol.1. – P.307

3. Власенко О. Н., Райсвих Ю. А., Скоробренко И. А. Использование игровых технологий в процессе подготовки будущих учителей иностранного языка к профессионально-педагогической деятельности // Современные методы и технологии преподавания иностранных языков – Сборник научных статей Чувашского Государственного педагогического университета им. И.Я.Яковлева. Ноябрь 2019 г., с.448

4. Mehjabin N. Teaching techniques that I usein my ESL classes. Prosandcons. // BRAC University. 2007. August. – P.15

# O'QUV JARAYONI UZVIYLIGINI TA'MINLASHDA KREATIV TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI (XORIJIY TAJRIBALAR ASOSIDA)

**M.AXMEDOV,**
O'zDK p.f.n.

*Maqolada xorijiy tajribalar asosida o'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari o'quv jarayoniga kreativ ta'lim texnologiyalarini tatbiq etish, shuningdek, kreativ ta'lim texnologiyalari tushunchasi mazmuni, kreativ tafakkur – oliy ta'lim muassasasi professor-o'qituvchilarining ijodiy faoliyati sifatida, oliy ta'lim muassasalarida kreativ ta'lim texnologiyalarinitatbiq etishning shakl, uslub va vositalari taklif etilmoqda.Taklif qilinayotgan mexanizm yordamida o'rta maxsus va oliy ta'lim muassasalarida professor-o'qituvchilar tomonidan olib borilayotgan ta'lim-tarbiya sifati va samaradorligi qay darajada ob'ektiv ekanligi aniqlanadi.*

***Tayanch so'zlar:*** *kreativ ta'lim, kasbiy etika, ijodkor shaxs, tanqidiy tafakkur,ijodiy yondashish, sintezlash, mantiqiy fikrlash.*

*Статья посвящена применению креативных образовательных технологий в образовательном процессе средних специальных профессиональных и высших учебных заведений на основе зарубежного опыта, а также концепции креативных образовательных технологий, креативного мышления как творческой деятельности профессоров и преподавателей вузов. Форма, стиль и инструменты предлагаются. Используя предложенный механизм, определяется, насколько объективно качество и эффективность обучения, проводимого учителями в средних специальных и высших учебных заведениях.*

***Ключевые слова:*** *творческое образование, профессиональная этика, творческая личность, критическое мышление, творческий подход, синтез, логическое мышление.*

*The article is devoted to the use of creative educational technologies in the educational process of secondary specialized vocational and higher educational institutions based on foreign experience, as well as the concept of creative educational technologies, creative thinking as a creative activity of professors and university professors. Shape, style and tools are offered. Using the proposed mechanism, it is determined how objectively the quality and effectiveness of the training conducted by teachers in secondary specialized and higher educational institutions.*

***Key words:*** *creative education, professional ethics, creative personality, critical thinking, creative approach, synthesis, logical thinking.*

Shaxsning mutaxassis sifatida kasbiy kamol topishi, rivojlanishi o'z mohiyatiga ko'ra jarayon tarzda namoyon bo'ladi. Kasbiy etuklik inson ontogenezining muhim davrlari kasbiy kamol topish, rivojlanish g'oyalarining qaror topishi (14-17 yosh)dan

boshlanib, kasbiy faoliyatning yakunlanishi (55-60 yosh)gacha bo‘lgan jarayonda kechadi. Ijodkor shaxsning shakllanishi va rivojlanishi uning ichki va tashqi olami o‘zgarishining o‘zaro mos kelishi, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar hamda inson ontogengizi - tug‘ilishidan boshlab to umrining ohiriga qadar uzluksizlik, vorisiylikni taqozo etadigan faoliyat mazmuniga bog‘liq[2].

Kreativ ta’lim - o‘quvchilar tasavvurini kengaytirib, tanqidiy fikrlashdan foydalanib, yangi va mazmunli g‘oyalarni shakllantirishi, ularni mustaqil va moslashuvchan bo‘lishi uchun xizmat qiladi. O‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi jarayonida o‘rgangan bilimlarini takrorlashni o‘rniga, o‘quvchilarda muammoning turli echimlarini topish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Turli nostandart echimlarni ishlab chiqish, turli xil fikrlash va bu qobiliyatni rivojlantirishning yagona usulidir.

Kreativ ta’limga bo‘lgan qiziqish tobora ortib borayotgani bois talabalar ishbilarmonlik, siyosat va murakkab muammolarni hal etishning har bir mavzusi bo‘yicha yanada chuqurroq o‘ylaydi va bunga ehtiyoj sezadi. Dunyo tobora bir-biriga bog‘langan bo‘lib, biznes va siyosatda chiziqli qarorlar qabul qilish murakkabdir. Hozirgi rahbarlar bevosita muammolarni hal qilish uchun yangi g‘oyalar keltiradigan odamlarni qidirmoqda. Misol uchun, 2010 yilda o‘tkazilgan tadqiqotlarda 60 dan ortiq mamlakat va dunyoning 33 ta turli soha boshliqlari ijodkorlik uchun so‘ralgan. Ushbu 1500 bosh menejerlar, sanoatning ushbu tobora murakkab dunyoda o‘sib borishi uchun ta’lim sohasidagi ijodiy strategiyalarni joriy qilish kerak, deb hisoblaydilar. Bu bitiruvchilarni kelajakda ish jarayonida keng ko‘lamli o‘zgarishlar uchun yanada yaxshiroq tayyorlash zarurligini ko‘rsatadi. Ya’ni, ijodkorlik qobiliyati kelajakda muvaffaqiyatli korxona uchun malakali deb ta’riflangan.

Talabalar mustaqil bilim olishi jarayonida ko‘proq ma’lumotga ega bo‘ladi va asosan o‘zlari ishtirok etishadi, bu esa ta’limni osonlashtirishga yordam beradi. Bundan tashqari, kreativ ta’limning maqsadi har bir talabaga qarshi chiqish va o‘ziga xoslikni rag‘batlantirishdir. Talabalarning muammolarni «standartlashtirish» o‘rniga turli xil javobgarliklarga da’vat etiladi. Bu, o‘z navbatida, sinfda bir nechta o‘quvchining mavjud bo‘lishiga imkon beradi.

Kollejlar va universitetlar sonining ko‘payishi ta’limning barcha sohalarida ko‘proq ijodiy talabalar zarurligini ko‘rsatmoqda. Stenford universiteti, Garvard universiteti laboratoriyasi, Oklaxoma davlat universiteti ijodkorlik va innovatsiya instituti, Ball Statening ijodiy tadqiqotlar markazi kabi turli markazlarni ochilishi natijasida o‘quvchilarni ijodiy muammoni hal qilish va fikrlashni rivojlantirishga erishildi. Ijodkorlik - bu ta’lim qobiliyatlari to‘plami va ko‘plab universitetlar

talabalarni o‘zlarining litsenziya o‘quvlarining bir qismi sifatida ijodkorlik darslariga jalb qilishni talab qiladi.

**Ijodiy o‘rganishning afzalliklari.** Dastlabki tadqiqotlar ijodkorlikni kam sonli odamlar ega bo‘lgan intellektual qobiliyat sifatida ko‘rdi. Ijodkorlik aql bilan bog‘liq edi. Biroq, bugungi kunda ijodkorlik aqlga bog‘liq bo‘lmagan ta’lim qobiliyatlari to‘plami sifatida ko‘riladi. 2000 yil boshlarida o‘tkazilgan ayrim tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, odamlarning etukligi ularning ijodiy salohiyatini zaiflashtiradi. Robinsonning hisobotiga ko‘ra, 5 yoshga to‘lgan bolalarning ijodiy salohiyati 98% ni tashkil qiladi; 10 yoshgacha bo‘lganlar uchun bu foiz 30 foizgacha tushadi; 15 yoshida 12% ni tashkil qiladi; va kattalar ekanmiz, bizning ijodiy salohiyatimiz 2 foizdan oshmaydi. Ikki yil o‘tgach, ish beruvchilar va universitetlar talabalar va oxir-oqibatda ishchi kuchida ijodkorlikni rag‘batlantirish zarurligini tushunishdi.

Ta’limga qaraganda, talabalar va o‘qituvchilar ko‘proq ijodiy jarayonni ta’minlash uchun ko‘proq erkinlik talab qiladigan ishlarga e’tibor qaratilgan. O‘z ta’limida ishtirok eta oladigan talabalar ko‘proq ijodkorlikni namoyon etishadi, ammo bunday ta’limning ishlashi uchun o‘qituvchilar ham o‘quv rejasini yanada ko‘proq nazorat qilishlari kerak. Bu o‘qituvchi kabi ko‘rinishi mumkin, yil davomida o‘quv rejasini belgilaydi yoki har bir o‘quvchiga har bir mavzu bo‘yicha sarflash kerak bo‘lgan vaqtni belgilaydi.

Kreativ muammolarini hal qilish (Solving creative problems) (SCP). SCP uslubi ijodkorlikni rivojlantirishning aniq shakli bo‘lib, turli xil va konvergent fikrlash ko‘nikmalarini qo‘llaydi. Talabalar oldindan rejalashtirish va echim topish uchun miya chayqalishini so‘rashadi. Barcha o‘quv rejasini ijodiyga almashtirishning o‘rniga, bu usul o‘quvchilarga topshiriqlarga tanqidiy yondashishni o‘rgatishning yana bir ravshan usuli hisoblanadi.

**Torranc inkubatsiya modeli (TIM) -** Paul E.Torranc tomonidan ishlab chiqilgan Torranc inkubatsiya modeli (TIM) uch bosqichdan iborat: 1) prognozlash; 2) taxmin 3) trening. Ushbu model o‘qituvchilarga ijodkorlikni o‘zlarining darslariga ta’sir o‘tkazmasdan integratsiyalashishga imkon berish uchun yaratilgan. Ijodkorlarga ta’lim berishga vaqt sarflash o‘rniga, o‘qituvchilar TIM modelidan bir vaqtning o‘zida mavzu va ijodkorlikni o‘rganish uchun foydalanishi mumkin. O‘qituvchi modeli o‘qituvchilarga yaxshiroq o‘rganish va talabalarga qiziqish ortishiga yordam beradi.

Kreativ ta’lim ba’zan dizayn ta’lim deb ataladi, lekin uni dizayn sohasiga taalluqli ta’lim bilan aralashtirish mumkin (masalan, arxitektura, grafik dizayn, ichki dizayn va hokazo). Dizaynli fikrlash ham hayotning barcha sohalarida ijodiy

muammoni hal qilish jarayonini tushuntiradi. Bu juda o'xshash bo'lsa-da, kreativ ta'lim o'qituvchilarning ijodkorlikni zaiflashtirish yoki rag'batlantirish uchun o'rgatilganligiga qaratilgan.

**Singapur -** OECD ning PISA global ta'lim so'roviga ko'ra, Singapur 2015 yilning eng yaxshi ta'lim tizimlari deb nomlandi. Singapur nafaqa to'z sinflarida texnologiyani keng qo'llash bilan bir qatorda, o'qituvchi ham ma'lumotni topishda yordamchi emasligini ta'kidlaydi. Sinfdoshlar texnologiyasidan foydalangan holda, ular talabalarni qiziqtirishi mumkin. Texnologik ko'nikmalar bugungi kunda ham dolzarbdir. Bundan tashqari, o'qituvchilar o'zlarining o'qitish strategiyasini o'rganish va o'zgartirishlari, boshqa o'qituvchilar bilan muloqot qilish va boshqalarga ta'sir o'tkazishlariga imkon berishlari tavsiya etiladi, shuning uchun o'qitish usuli doimiy ravishda yaxshilanadi.

**Finlandiya -** Finlyandiya dunyoning eng yaxshi ta'lim tizimlaridan biri sifatida tan olingan. Davlat nafaqat munosib ta'lim olishni istamoqda, balki o'qituvchilar ko'p yillar davomida bir xil talabalar bilan bo'lishadi. Finlyandiyada o'quv dasturi pastdan yuqoriga boshlanadi, shuning uchun o'qituvchilar o'quv rejasini o'zgartirish uchun ko'proq imkoniyatlar mavjud. Bu qisman test ko'rinishidagi o'zgarishlarga bog'liq. Sinovlar progressni baholash vositasi sifatida ishlatiladi, ammo milliy test amalga oshirilmaydi. Finlandiya maktablarida, o'quv dasturining bir qismi sifatida 4C - hamkorlik, ijodkorlikva kommunikatsiyani tanitish uchun bir nechta tashabbuslar qilingan. Finlyandiya ta'lim dasturi Finlyandiya tashqarisida joylashgan. Finlyandiya ta'limining asosiy a'zolari, masalan Creative Education Council, Finlyandiya, bir qancha mamlakatlarda ijodkorlik atrofida joylashgan fin maktablarini rivojlantirishga qaratilgan.

**Buyuk Britaniya -** 1960-80-yillar mobaynida, Buyuk Britaniyaning boshlang'ich maktablari bo'lgan, Ploughden hisobotida qayd etilgan. Buyuk Britaniyadagi taniqli maktab - Summerhill AS, buota-onalar, o'qituvchilar va o'quvchilarning ta'limga bo'lgan ovozi ya'ni, demokratik maktabdir va ta'limning standart maktab tizimiga moslashgan hamda o'quvchilarni chuqur bilim olishiga qaratilgan.

Evropa Ittifoqi bilan taqqoslaganda Buyuk Britaniyada, ayniqsa Shimoliy Irlandiyada ijodkorlik ko'plab maktab mavzularida tez-tez ishlatiladi.

**AQSH -** Qo'shma SHtatlardagi ta'lim tizimi ijodkorlikning inhibitori sifatida qaraladi. Keng miqiyosli milliy testlar o'qituvchilarni qat'iy o'quv dasturiga rioya qilishga majbur qiladi, shuning uchun o'qituvchilar kamroq erkinlikka ega. Sinovlar, shuningdek, akademik samaradorligi past bo'lgan maktablarda davriy naqsh hosil qiladi - past raqamlar kam mablag' sarflashga olib keladi. Aslida Amerika Qo'shma

Shtatlarida sifatli ta'lim oladi.

**Avstraliya -** Avstraliyaning Ta'lim, Mehnat, Ta'lim va Yoshlik Vazirlari Kengashi (Education, Employment, Education and Youth Council) yosh avstraliyaliklar uchun o'quv maqsadlari bo'yicha Melburn deklaratsiyasida ijodkorlikni ta'lim modeliga kiritishga kirishdi.

Akademik Ken Robinson ta'lim sohasida ijodkorlik zarurligini ta'kidlaydi. U innovatsion ta'lim tizimlarini yaratishga qaratilgan hukumatlar va ta'lim dasturlari bilan ishlaydi.

Kreativ ta'lim kengashi Creative Education Council Finlyandiyaning Tampere shahrida tashkil etilgan, ijodkorlik orqali ta'limni qayta belgilash shiori bilan tashkil etilgan global tashkilotdir. Har yili CEC Creative Education Council bo'yicha xalqaro simpoziumni tashkil etadi, unda o'qituvchilar, tadqiqotchilar, o'qituvchilar dunyo bo'ylab uchrashib, kreativ ta'limning yutuqlari va kelajagi haqida fikr yuritadilar.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, ijodiy shaxslar ko'proq pul topish, baxtli hayot kechirish va barcha sohalarda yangi g'oyalar yaratish uchun harakat qilishadi. Shunga qaramay, xuddi shu tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, aholining yarmidan kamrog'i ularning ijodiy salohiyatini oqlaydi. Afsuski, ko'pgina maktab tizimlarida ijodiy sinflarni o'qitish usullarini amalga oshirish uchun har doim o'qitish usullari yoki resurslari mavjud emas.

Yuqoridagi fikrlar asosida xulosa kiladigan bo'lsak, kreativ ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra shaxsda vaziyatga tanqidiy, ijodiy yondashish, muammoni tahlil qilish, sintezlash, ta'limning tarkibiy elementlari o'rtasidagi o'zaro uzviylik va aloqadorlikni topish, mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini hosil qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Саидқулов Ш. Узлуксиз педагогик таълим ва малака ошириш муаммолари. – Самарқанд: СамДУ, 1996. – 73 б.

2. Креатив педагогика. Тошкент давлат педагогика университети хузуридаги педагог кадрларни кайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармок маркази педагогика ва психология йуналиши учун ўқув-услубий қўлланма. Тузувчилар п.ф.н., доцент М.Усмонбоева, катта укитувчи А.Тураев. Тошкент 2016

3. Кричевский Р.Л. Если вы руководитель. – М.: Дело, 1998. – 400

4. Ken Robinson ,Lou Aronica. Creative Schools: The Grassroots Revolution That's Transforming EducationApr 21, 2015.

# O'QITUVCHINING KASBIY STANDARTI: XORIJIY TAJRIBALAR TAHLILI

***A.A.IBRAGIMOV,***
*Samarqand viloyati XTXQTMOHM, p.f.f.d(PhD)*

*Mazkur maqolada xorijiy davlatlarda amalda qo'llanayotgan pedagoglarning kasbiy standartlari qiyosiy tahlil qilingan, ularni yaratish, mazmuni va kutiladigan natijalarga doir yondashuvlar hamda ilg'or tajribalar atroflicha yoritilgan.*
***Tayanch so'zlar**: kasbiy standart, bilim, faoliyat, qadriyatlar, mehnat funksiyalari.*

*В данной статье приведен сравнительный анализ зарубежных профессиональных стандартов педагога. А также освещены передовые практики в данной сфере, подходы формирования профессиональных стандартов, их содержание и ожидаемые результаты.*
***Ключевые слова**: профессиональный стандарт, знание, деятельность, ценности, трудовые функции.*

*The article provides a comparative analysis of the professional standards of teachers in foreign countries, approaches to their creation, content and expected results, as well as best practices.*
***Key words:** professional standard, knowledge, activity, values, job functions.*

Rivojlangan davlatlarda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlarining ustuvor yo'nalishlarini tahlil qilish orqali pedagoglarning malaka darajasiga qo'yilayotgan talablarning ortib borayotganligini ko'rish mumkin. Shuningdek, jamiyatda ham pedagogik faoliyatdan kutiladigan natijadorlikka munosabat o'zgarmoqdaki, zamonaviy dunyoda bilimga bo'lgan ehtiyoj va intellektual mulkning muhimligi oddiy haqiqatga aylandi.

Hozirgi davrda ta'lim sifatini baholovchi xalqaro miqyosdagi turli mustaqil tashkilotlar tomonidan o'qituvchilarning malaka darajasini o'rganish va ularni rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, Ta'limni baholash xalqaro assotsiatsiyasining (IEA) "Pedagogik ta'lim va matematikaga o'qitishni rivojlantirish" (TEDS-M) loyihasi doirasida 17 ta davlatdagi pedagoglar malakasi va faoliyati sifatini oshirishga qaratilgan ta'lim siyosati yo'nalishlariningo'rganish natijalarini umumlashtirgan holda, taqdim qilgan hisobotida pedagoglarning kasbiy standartlarini ishlabchiqishni ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida qayd etadi[6].

Pedagoglar kasbiy standartlarini ishlab chiqish va foydalanishdan turli maqsadlar ko'zlanishi ilmiy adabiyotlarda chuqur tahlil qilingan:

– standart pedagoglarning eng sara amaliyoti namunasi sifatida;

– standart pedagogik faoliyat sifatining kafolatlangan minimumi sifatida;

– standart ta'lim oluvchilarni o'qitishning zaruriy miqdorini tushunish sifatida;

– standart kasbiy amaliyotning belgilangan andazasi va muayyan pedagog faoliyatini taqqoslash uchun asos sifatida;

– standart shaxsiy amaliyot hamda standartning baholash (o'z-o'zini baholash) va kasbiy rivojlanishini refleksiv qiyoslash vositasi sifatida;

– standart pedagoglar faoliyatini differensial baholash va mehnatiga haq to'lash tizimini ishlab chiqish vositasi sifatida;

– standart pedagogik dasturlar bitiruvchilarini baholash va ularni sertifikatlash (ro'yxatdan o'tkazish, litsenziyalash), shuningdek, pedagogik dasturlarni (pedagoglarni tayyorlash dasturlari)ni ham baholash vositasi sifatida [2, 32-b.].

Mazkur tahlil pedagoglar faoliyatiga qo'yiladigan standartlarni ularning kasbiy mahoratlari sifatini oshirishga yo'naltirilgan vosita sifatida qarashga imkon beradi.

Kasbiy standartlarni ishlab chiqishda ma'lum me'yorlarga amal qilish zarur bo'lib, ular sifatli o'qitish va o'qituvchi qanday bo'lishi kerakligi haqidagi aniq tasavvurlarni berishi lozim. Chunkikasbiy standartlarga ko'ra, o'qituvchilarga o'qitishning ma'lum uslubi va metodlarini majburiy qo'llashlarini belgilash orqali ta'lim sifatini oshirishga emas, balki uning salbiy oqibatlariga ega bo'lish mumkin.

V.Louden turli mamlakatlarda ishlab chiqilgan pedagogik faoliyatga doir standartlarni tahlil qilish asosida ularni milliy ta'lim tizimiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi va amaliyotga yo'nalganligini belgilovchi mezonlarni aniqladi:

– qisqalik;

– shaffoflik (pedagog faoliyatidan kutiladigan natijalarning ochiqligi);

– xususiylik (aniq o'quv predmetiga yoki ta'limning ma'lum bosqichiga taalluqliligi);

– kontekstlilik (o'qituvchi o'zining kasbiy harakatlarini aynan qaysi kontekstda namoyish qilishi yoki uning faoliyatiga doir ma'lumotlar (artefaktlar) qanday jamg'arilishining ko'rsatilishi);

– o'qitish va o'qishga yo'naltirilganlik[4, 124-b.].

Turli davlatlarda joriy qilingan pedagoglar uchun kasbiy standartlar mazmunining qiyosiy tahlili ularda umumiy yondashuvlar, tuzilmaviy jihatdan o'xshashliklar yoki bir-biridan farq qiluvchi qismlar mavjudligini

ko‘rsatdi.Jumladan, B.Pontning ishlarida keltirilgan 7ta davlat (Avstraliya, Kanada, Chili, AQSH, Angliya, Meksika, Yangi Zelandiya) standartlarining solishtirma tahliliga ko‘ra, ular asosan uchta tarkibiy qismdan iboratligi aniqlangan: pedagogning bilimi, amalga oshiradigan faoliyati va ega bo‘lishi lozim bo‘lgan qadriyatlar. Tarkibiy qismlarning mazmuni esa bir-biridan farq qilishi yoki boshqacha nomlanishi mumkin (1-jadval).

1-jadval.

Turli mamlakatlarda amalda bo‘lgan pedagogning kasbiy standartlari mazmuni (B.Pont [3])

| | Австралия | Квинсленд (Австралия) | Виктория (Австралия) | Британия Колумбияси (Канада) | Чили | NBPTS* (АҚШ) | INTASC** (АҚШ) | Калифорния (АҚШ) | Техас (АҚШ) | Англия | Мексика | Янги Зеландия |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **Фанга доир билими** | | | | | | | | | | | | |
| Фанни билиш ва тушуниш (умумий маънода ифодаланган) | X | X | X | X | X | | X | X | | X | X | X |
| Фанни билиш ва тушуниш (ҳар бир фан ва босқич аниқ белгиланган) | | | | | X | X | | | X | | | |
| **Педагогик амалиёт** | | | | | | | | | | | | |
| Ўқувчининг ўзига хос хусусиятларини (маданияти, аввалги тажрибаси, таълимга бўлган эҳтиёжи) билиш, қадрлаш ва уларни инобатга олган ҳолда ўқитиш | X | X | X | X | X | X | X | X | X | X | X | X |
| Ўқувчиларнинг қандай ўқишини тушуниш ва бундан фойдаланиш (ўрганиш ва ривожланиш назариялари) | X | X | X | X | X | X | X | X | X | X | | X |
| Барча ўқувчилардан юқори натижалар кутиш | X | | X | X | X | X | X | X | X | X | | X |
| Интизомни қандай ўргатишни билиш | X | | X | X | X | X | X | X | X | X | X | X |
| Юқори даражада танқидий фикрлаш ва кўникмаларни ривожлантириш | X | X | X | X | X | X | X | X | X | | X | X |
| Ўқитиш ва ўрганишни режалаштириш, амалга ошириш ва баҳолаш | X | X | X | X | X | X | X | X | X | X | X | X |
| Таълим олишни рағбатлантирувчи муҳит яратиш ва уни мўътадил сақлаб бориш | X | X | X | | X | X | X | X | X | X | X | X |
| Ўқувчиларнинг таълим олиши ва ривожланишида оиланинг ролини тўғри баҳолаш | X | X | X | X | X | X | X | X | X | | | X |
| Ўқувчилар орасида ижтимоий қадриятлар ва этикани тарғиб қилиш | | X | | X | | X | | | X | | | |
| Таълимда ахборот технологияларини қандай қўллашни билиш | X | X | X | | X | X | X | X | X | X | | X |
| Демократик қадриятларни ўқитиш амалиёти таркибига киритиш | | | | | X | | | | | | | |
| **Қадриятлар ва касбий фаолият** | | | | | | | | | | | | |
| Ўқувчиларнинг таълим олиши ва ривожланишига устуворлик қаратиш | | | X | X | X | X | | | | | | |
| Ўзининг ўқитувчилик амалиёти ҳақида фикрлаш ва баҳолаш | X | X | X | X | X | X | X | X | X | X | | X |
| Таълим сиёсатининг мантиқий асосини ва амалиётда қўлланишини билиш | | | | X | | | | | X | | | X |
| Касбий таълимга катта эътибор қаратиш | X | X | X | X | X | X | X | X | X | | | X |
| Мактаб фаолиятига ўз ҳиссасини қўшиш | X | X | X | | X | X | | X | X | X | | X |

NBPTS* – National Board for Professional Teaching Standards (Kasbiy pedagogik standartlar milliy kengashining standarti).

INTASC** – the Interstate New Teacher Assessment and Support Consortium (Boshlovchi o‘qituvchilarni qo‘llab-quvvatlash va baholash konsorsiumining standarti).

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, keltirilgan standartlarning aksariyati bir-biriga o‘xshash o‘quv vazifalarini tavsiflaydi, farqlarni faqat har bir hudud uchun berilgan tafsilotlarda topish mumkin. Masalan, umumiy mazmunga ko‘ra, barcha standartlarda o‘qituvchilar o‘quvchilarni o‘qitishni to‘g‘ri rejalashtirishi, amalga oshirishi va baholashi kerakligini ta’kidlansa-da, ba’zi hollarda ushbu komponentlar turli xil mezonlar va ko‘rsatkichlar orqali taqdim etiladi. Aniq misollarga to‘xtaladigan bo‘lsak, Britaniya Kolumbiyasi kasbiy standartlarida bu elementlar umumlashtirilib ifodalansa, Avstraliya ta’limidagi muhim xususiyatlardan biri, o‘qituvchilardan ma’muriy ko‘nikmalarning talab qilinishidir. Meksika standartlari esa deyarli amaliy mashg‘ulotlarga yo‘naltirilgan bo‘lib, to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq bo‘lmagan boshqa kasbiy vazifalarni qoldiriladi va faqatgina sinfdagi mashg‘ulotlarga urg‘u beriladi [3, 35-b.].

Shotlandiyada ham keyingi yillarda ta’lim tizimini takomillashtirishga qaratilgan islohotlar doirasida jiddiy fundamental tadqiqotlar olib borilmoqda. Ularning samarasi o‘laroq, pedagogning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ifodalovchi quyidagi mukammal kasbiy standartlar tizimi ishlab chiqildi:

– Pedagogni dastlabki ro‘yxatdan o‘tkazish standarti (SPR);
– Pedagogni to‘liq ro‘yxatdan o‘tkazish standarti (SFR);
– Faoliyat davomidagi kasbiy ta’lim standarti;
– Liderlik va boshqaruv standarti.

Kasbiy faoliyatga kirish dasturini muvaffaqiyatli yakunlagan o‘qituvchilar Pedagogni to‘liq ro‘yxatdan o‘tkazish standartiga yo‘naltiriladi. Har ikkala standart ham o‘qituvchining kasbiy kompetensiyalarini belgilaydi va quyidagi to‘rtta qismga ajratilib shakllantirilgan: kasbiy qadriyatlar va shaxsiy sadoqat; kasbiy bilimlar va tushunchalar; kasbiy ko‘nikma va qobiliyatlar; kasbiy harakatlar.

Faoliyat davomidagi kasbiy ta’lim standartining birinchi bo‘limi yuqoridagi qismlarga mos keladi. Ikkinchi bo‘limi esa kasbiy rivojlanishning quyidagi sohalarini qamrab oladi: pedagogika, o‘qitish metodikasi, o‘qitadigan fanining nazariyasi; o‘quv rejasi va baholash; tadqiqotchilik faoliyati; siyosiy jarayonlar, ta’lim nazariyasi va amaliyotidagi joriy yondashuvlar; kasbiy ta’limini rivojlantirish

va qo‘llab-quvvatlash; barqaror rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘qitish.

Liderlik va boshqaruv standarti asosida kasbiy qadriyatlar yotadi hamda u jamoada ishlash, liderlik sifatlarini rivojlantirish, belgilangan boshqaruv harakatlari va strategik tafakkurning mavjudligini ifodalaydi [8].

Rossiya Federatsiyasi, Ukraina va Qozog‘iston kabi davlatlarda pedagoglar uchun ishlab chiqilgan kasbiy standartlar yuqorida keltirilgan yondashuvdan farqli ravishda, qo‘yiladigan talablar mehnat funksiyalarining tavsifidan iborat qilib shakllantirilgan.

Shuni alohida qayd qilish kerakki, barcha mamlakatlarda ham kasbiy standartlar joriy qilinmagan bo‘lsa-da, ularda mazkur vazifani ifodalovchi milliy tizimlar mavjud. Masalan, hozirgi paytda respublikamizda xodimlarning ish faoliyati bilan bog‘liq munosabatlarda tegishli lavozimlarning malaka tavsiflaridan foydalaniladi. Bu jarayon Braziliyada pedagoglarning eng yaxshi amaliyoti bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar, Janubiy Koreyada boshlovchi o‘qituvchilar uchun litsenziyalash indikatorlarida o‘z aksini topgan.

Singapurda pedagoglar uchun kasbiy standartlarga o‘xshash bo‘lgan o‘qituvchining kompetensiyalari modeli (TCM) joriy etilgan. O‘qituvchining kompetensiyalari modeli bitta tayanch kompetensiya (“Bolani to‘liq rivojlantirish”) va to‘rtta kompetensiyalar klasteri(“Bilimlar tizimini rivojlantirish”, “Qalblarni va aqlni egallash”, “Hamkorlikda ishlash”, “O‘zini va boshqalarni tushunish”)dan iborat. Har bir kompetensiyaga o‘qituvchi faoliyatining samaradorligini belgilovchi bir necha darajalar belgilangan. Shuningdek, o‘qituvchining ma’lum kompetensiyalarga loyiqligini namoyish qilishi uchun har bir darajaning aniq mezonlari ko‘rsatilgan [1, 5-b.].

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, pedagogning kasbiy standarti o‘qituvchi tomonidano‘z missiyasining anglanishi, faoliyatida aniq mo‘ljal olishi va rivojlanishini ifodalovchi muhim hujjat vazifasini o‘taydi. Shunday ekan, respublikamizda ham o‘qituvchilar uchun kasbiy standartlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish sohada olib borilayotgan islohotlarning mantiqiy izchilligini aks ettiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. A Teacher Education Model for the 21st Century // A Report by the National Institute of Education, Singapore [Elektron resurs]. – Copyright © National Institute of Education 2009. First published October 2009. – URL:https://www.nie.edu.sg/docs/default-source/nie-files/te21_executive-summary_

101109.pdf?sfvrsn=2 (murojaat vaqti: 13.05.2020 y.).

2. Ingvarson L.S. Standards for Graduation and Initial Teacher Certification: The International Experience [Elektron resurs]. – Melbourne: ACER, 2012. – 63 p. – URL: http://works.bepress.com/lawrence_ingvarson1/206/. Pdf. (murojaat vaqti: 4.05.2020).

3. Learning Standards, Teaching Standards and Standards for School Principals: a Comparative Study [Elektron resurs] / B. Pont // OECD Education Working Paper. № 99. Centre of Study for Policies and Practices in Education (CEPPE). Chile. – EDU/WKP(2013)14. – 79 p. – URL: https://www.oecd-ilibrary.org/education/learning-standards-teaching-standards-and-standards-for-school-principals_5k3tsjqtp90v-en (murojaat vaqti: 5.05.2020).

4. LoudenW. Standards for Standards: The Development of Australian Professional Standards for Teaching / Australian Journal of Education [Elektron resurs] – Volume: 44 issue: 2, page(s): 118-134 Issue published: August 1, 2000. Pdf.

5. Search for Teacher Education and Development Study in Mathematics[Elektron resurs]. – URL: https://www.iea.nl/search/node?keys=Teacher+Education+and+Development+Study+in+Mathematics(murojaat vaqti: 04.05.2020).

*Jurnalning ushbu sonini tayyorlashda qatnashganlar: L.Qaraxanova, S.Pirmatov.*

*O'zbekiston Matbuot va axborot agentligidan 03.01.2007 yilda ¹ 0101 tartib raqami bilan ro'yxatdan o'tgan.*

*«Uzluksiz ta'lim» jurnali O'zbekiston Respublikasi OAK rayosatining 2013 yil 30 dekabrdagi 201/3-sonli qarori bilan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha ilmiy jurnallar ro'yxatiga kiritilgan.*

*Jurnal talablariga to'liq rioya qilingan holda 1,5 intervaldagi 6-7 bet hajmdagi ilmiy maqolalar elektron versiyasi bilan birga qabul qilinadi.*

Bosishga ruxsat etildi: 22.06.2020 y. Qog'oz bichimi 60x84 $^{1}/_{16}$
Ofset bosma usulida bosildi. 8-bosma taboq.
Adadi nusxa. Buyurtma

**«ADAD PLYUS» MCHJ matbaa korxonasi.**
**Toshkent sh., Chilonzor t. Bunyodkor ko'chasi, 28-uy.**